

Mahbuba Ismonaliyeva

O'ZBEK NASRIDA POLVON OBRAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

MAHBUBA ISMONALIYEVA

O'ZBEK NASRIDA
POLVON OBRAZI

(Monografiya)

NAMANGAN – 2021

UO'K: 821.512.133-9

KBK: 84 (5 Ÿ36) 7

I - 17

Ismonaliyeva, Mahbuba

Mahbuba Ismonaliyeva / O'zbek nasrida polvon obrazi / Monografiya / "Arjumand media" nashriyoti / 2021-yil, 100-bet.

KBK: 84 (5 Ÿ36) 7

Annotatsiya. Ushbu monografiya o'zbek nasrida polvon obrazining yaratilishi va uning obrazlar tizimidagi o'ziga xos o'rni, o'zbek polvonlarining ma'naviy-ruhiy dunyosi va uning kitobxon ma'naviyatiga ta'sirini yoritishga bag'ishlangan.

O'zbek polvonlari obrazi o'tgan asrning 60 – 70 yillarida adabiyotimizning buyuk darg'alari bo'lmish Said Ahmad va Tog'ay Murodlarning asarlarida vujudga keldi va shakllandi. Mustaqillik adabiyotida Luqmon Bo'rixon, Nurilla Chori, Abdulla Ayizov va boshqa qator yozuvchilarning ijodida polvonlarining yangi qiyofalarini uchratamiz. Monografiyada nasrimizda polvon obrazining paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari, kelajak avlod tarbiyasida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Ushbu monografiyadan shu sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, pedogogika universitet va institutlarining bakalavriat, magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar hamda adabiyot ixlosmandlari foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: **Zokirjon MAMAJONOV**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), ADU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar: **Mo'minjon SULAYMONOV**, filologiya fanlari nomzodi, NamDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti

Kamoliddin SHAHOBOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Monografiya Namangan davlat universiteti ilmiy-texnik kengashining 2021 yil 10 iyundagi 6-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-6981-8-5

© Mahbuba Ismonaliyeva

© "Arjumand media" nashriyoti, 2021

25.2.19/1

**Mazkur monografiya O'zbekiston
Respublikasi Mustaqilligining
30 yilligiga bag'ishlanadi.**

KIRISH

Adabiyotning obrazlar vositasida fikrlashi va uning markazida inson obrazini yaratish masalasi turishi barchamizga ma'lum. O'zbek nasrining bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichida inson obrazi turli shakllarda yaratildi. Biz inson obrazini goh shoh ko'rinishida, goh gado qiyofasida ko'ramiz. Ba'zida u dunyolarni titratgan bahodir, ba'zida esa beshik quchoqlagan mushtipar ona. Adabiyot insonni qanday qiyofada tasvirlamasin, uning bosh mavzusi shaxs ma'naviyati masalasi bo'lib qolaveradi. Zero, mustaqil O'zbekistonimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: *"Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin".*¹ Ha, ma'naviyat, ma'rifat masalasi har bir jamiyatning kelajagini ta'minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Yurtimizda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ham bejiz emas. U esa o'z navbatida adabiyotga ham ta'sirini o'tkazib keladi. Zeroki, ma'naviyat va ma'rifat adabiyotga egiz tushunchalar bo'lib, ma'naviy barkamol, yetuk insonni tarbiyalash uning bosh vazifasi sanaladi. Shu maqsadda ijodkor bu vazifani to'la uddasidan chiqa oladigan obrazlarni yaratishga intiladi. O'zbek nasrida ana shunday obrazlardan biri o'zbek polvonlari obrazi bo'lib, nasrimizning buyuk

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" - T: O'zbekiston, 2008-yil. 5-bet.

darg'alari bo'lmish Said Ahmad, Tog'ay Murodning asarlarida ushbu obrazning vujudga kelishi va shakllanishi uchun dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda Luqmon Bo'rixon, Nurilla Chori, Abdulla Ayizovlarning ijodida polvon obrazi yangi chizgilarda ko'ramiz.

Atoqli nosirimiz Said Ahmad "Ufq" trilogiyasining birinchi kitobi "Qirq besh kun" romanida vodiy polvonlarining "Katta Farg'ona kanali" qurilishidagi mardonalıkları, qahramonona xatti-harakatlarini mahorat bilan badiiyatga olib kirdi. Bu roman polvonlar hayotidan lavha qiluvchi ilk asar sanaladi. Umuman, Said Ahmad ijodida polvonlar obrazi alohida o'rin tutadi, keyinchalik "Jimjitlik" romanida bu obrazga yana qaytdi. 1976-yilda Surxon vohasining taniqli vakili, o'ziga xos iste'dod sohibi Tog'ay Murod o'zbek polvonlarining hayot tarzini, qalb dunyosini, chin ma'nodagi polvonlik falsafasini yorituvchi "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini yaratdi. Bu asar "o'zbek polvoni" shaxsiyatini tanishda alohida ahamiyat kasb etib, yaratilgan davridayoq yilning eng yaxshi qissasi nomiga sazovor bo'ldi. Ana shu tarzda nasrimizda polvon obrazi paydo bo'lib, ularning hayoti tasvirlangan har bir asar kitobxon qalbidan joy egalladi.

Mustaqillik yillari adabiyoti inson shaxsiga butkul o'zgacha nazar bilan qaraydi. Va bunda o'zbek polvonlarining ham o'z o'rni bor. Polvonlar ma'naviy barkamollik, jismonan sog'lomlik, ruhiy bardamlik timsoliga aylandilar. Shu bilan bir qatorda ular ham xatolardan, hayot yo'llaridagi adashishlardan holi emas. Ammo o'zbek polvonlarining ibratomuz hayoti, ularning yashash prinsipini belgilovchi or va nomus masalalari ijodkorga o'quvchi-kitobxonning qalb dunyosini tarbiyalashda katta imkoniyat yaratadi. Adabiyotning didaktik funksiyasidan kelib chiqib komil inson shaxsini tarbiyalash uning bosh maqsadi ekan, o'zbek polvoni obrazi ham badiiy adabiyot olamida o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib polvon obrazining o'ziga xos jihatlarini yoritish va obrazlar sistemasidagi o'rmini ko'rsatib berish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir. Polvonlar obrazining o'zbek adabiyotshunosligida ilk bor o'rganilayotganligi esa ushbu ishning ahamiyatini belgilaydi.

I BOB. O'ZBEK NASRIDA POLVON OBRAZINING KELIB CHIQUISHI VA UNDA FOLKLORNING O'RNI

1.1. O'zbek nasrida polvon obrazining kelib chiqishi xususida

Adabiyot – millat qalbidir. Unda xalqning orzu va umidlari, iztirob va armonlari o'z aksini topadi. Insoniyat olamida ong shakllanishi bilan hamnafas tarzda yashab kelayotgan adabiyotning hayot jilg'alari bevosita xalq og'zaki ijodi sarchashmalariga borib taqaladi va u asrlar mobaynida bevosita yozma adabiyotga o'zining ta'sirini o'tkazib keladi. Hech bir badiiy asar yo'qki, unda folklorning izlari ko'zga tashlanmasa, yoinki biror-bir ijodkor uning boy xazinasida bahramand bo'lmasa.

Har bir davr o'z qahramonlarini yaratadi va u xalq orzusi, umidlari natijasi o'laroq maydonga chiqadi. O'zbek xalqi asrlar davomida Go'ro'g'li, Rustam, Alpomish, Ravshan, Kuntug'mish, Avazxon, Hasanson kabi pahlavonlarning qahramonona xatti-harakatlari, xalqni zolimlardan xalos qilish, uning gullab-yashnashi uchun jonini fido qilishga-da tayyor ekanliklari haqida kuylab keladi. Yozma adabiyotda ham bu qahramonlarga monand ravishda pahlavon yigitlar, alpomat bahodirlar timsollari yuzaga chiqdi, ijodkorning badiiy ideali sifatida harakatlandi. Folklorning badiiy adabiyotdagi chizgilarini yana ko'plab o'rinlarda uchratishimiz mumkin albatta, asosiysi, bizning obyektimiz doirasida bo'lgan polvonlarning xalq og'zaki ijodiga qahramonlariga xos bo'lgan xususiyatlari hamda xalqimizning ming yillik qadriyatlarini, an'alarini, axloqiy-ma'naviy komillik tushunchalarini o'zida saqlab kelayotgan turish-turmushlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Polvonlar oddiy xalq farzandi, ammo ular omma orasida kuch-qudrati, halolligi hamda ichki ma'naviy dunyosi bilan boshqalardan ajralib turadi. Said Ahmadning "Qirq besh kun" romani qahramonlari: Azizxon, Ali polvon, Esh polvon, Jo'ra polvonlarning xatti-harakatlarida, atrofdagi voqea-hodisalarga munosabatida, vijdon pokligi va ichki ma'naviy qiyofalarida kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, hali oq bilan qorani to'la ajratib olmagan, yosh, hayotga chanqoq Azizxon obrzi

kitobxonning e'tiborini ilk mutolaadayoq o'ziga tortadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarning deyarli barchasida qahramonning uzoq kutilgan, tilab olingan yolg'iz farzand ekanligi yoki favqulotda kuch-qudratga ega bo'lish motivi kuzatiladi. Azizxon obrazida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Adib Azizxonni zo'r ishtiyoq bilan yaratadi. Uning qiyofasida yengilmas hamda jasur pahlavon suratini chizadi: *"Azizxon egasiz qolgan ot-aravalarni ko'rib paytdan foydalanmoqchi bo'lipti. Ikkita otni aravadan chiqazib bolalarni mindiripti. O'zi ko'cha tarafdagi darvozaning bir tavaqasini chiqazib ko'cha o'rtasida qorniga qo'yib yotib opti. Bolalar ot bilan qornidagi darvozaga chiqishipti. Aravakashlar kelishsa ot yo'q. Bolalar ot minib chiqqan darvoza taxtasining bosh tarafida Azizxonning iyagi chiqib turipti. U kuchanib, yana bittang ot minib chiqqaning, deb buyruq qilyapti"*². Oddiy inson bolasining bunday kuch-quvvatga ega bo'lishi bir qarashda aqlga sig'maydi. Yozuvchi xuddi kuchli mubolag'ga yo'l qo'yganga o'xshab tuyiladi. Ammo shuni unutmash kerakki, o'zbek yigitlari qadimdan pahlavon, kuch-qudratda tengsiz bo'lishgan. Azizxon ana shunday o'zbek yigitlarining tipik vakilidir. Romanda Azizxonning qoni qaynoq, bir mushtga o'n kaltak qaytaradigan payti tasvirga olingan: *"Aravakashlar bolalarni tirqiratib otlarni tushirishdi. Bittasi Azizxonning yuziga tarsaki tortib yuboribdi. Azizxon zabti tez, dev yigit. Unga shapaloq urgan aravakash yigitni belidan ushlab devor oshirib chorboqqa irg'itibdi. Qolgan aravakashlar unga yopirilib kaltaklay ketishibdi. Azizxon unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa otib, to'rt tarafga quvib, ko'cha o'rtasida, qani, mard bo'lsang yaqin kel, deb ikki qo'lini beliga tirab turibdi"*(15-bet). Azizxon mutolachida ilk ko'rinishlarda tekkanga tegib, tegmaganga tosh otadigan ko'cha bezorisidek taassurot qoldirsa-da, bu kuch qudratga to'la, asov otdek bo'ysunmas yigit yozuvchining maqsadi o'laroq qirq besh kun ichida olamshumul voqea sodir bo'lishi, ya'ni ikki yuz yetmish kilometrlik kanal qurilishida qahramonliklar ko'rsatishi va unga beixtiyor o'quvchisini ishontirish uchun tayyorlab boradi. Zero, o'zbek xalqi, o'zbek polvonlari ana

² Ahmad S. Ufq. - T: Sano-standart, 2016 - yil. 15-B. Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan ko'chirmalar qavs ichida beriladi.

shunday qahramonliklar qilishga qodir insonlardir. Azizxondagi bunday kuch-qudrat qayerdan paydo bo'lganligiga yaqinlari, mahalla-ko'y, ota-onasi ham hayron. Otasi Ummatali esa o'g'lining sho'xliklarini deb halovatini yo'qotgan: *"Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta payolagina choy icha olamanmi, yo'qmi? He, senga polvonlikni o'rgatgan Hojimuqondan o'rgildim!... Ota iljayib boshini sarak-sarak qildi. – Ha, tentak-a! Quyulib qolarmikan, ishqilib! Ota bolasining taqdiridan tashvishlanardi. – Minilmagan asov otning o'zi. Bilmay minganni irg'itib tashlaydi. Egar urdirmaydi, hurkovuch. Ha, ishqilib omon bo'lsin! Bir kunmas bir kun zo'r xotinning qo'liga tushsa, yuvosh bo'lib qolar. Ummatali o'zini shu gaplar bilan ovutardi"*(15-bet). Azizxon obrazi kitobxon ko'z o'ngida afsonaviy pahlavonlardek gavdalanadi. Yozuvchining maqsadi ham ana shunday, u Azizxonni shavq-u zavq bilan tasvirlaydi. Uning tasvirida xalqimizning qadimiy, yengilmas bahodirlariga ishora bor. Azizxon o'z davrining Alpomishi edi. Agar Alpomish yetti yoshda Asqar tog'ining cho'qqisini qulatgan bo'lsa, Zirillamada esa Azizxonning bolaligidan kuch va g'ayratda, sho'xlikda uning oldiga tushadigan biron bola topilmas edi: *"Ummatali u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib to'lg'anib yotardi. O'g'li yo'lga kiribdiki, har kuni hunar ko'rsatadi. Boshqalarning bolalariga o'xshash bo'sh-bayovgina bo'lmadi. Yerga ursa ko'kka sapchiydigan, hatto uxlab yotganda ham qo'l-oyog'ini silkib, nimalardir deb baqirar, qichqirardi. Azizxon o'n to'rt yoshlardamikin, Ummatali tush paytida uyiga qaytsa, hovlidan bolalarning qiyqiriqlari eshitildi. Bolam yana nima baloni boshladiykin, deb hovliga kirganda esi og'ib qoldi. Azizxon uy eshigini turumidan chiqarib qorniga qo'yipti. Besh bola uning qornida eshik ustida o'yin tushishyapti. Ummatali qo'liga tayoq olib bolalarni to'rt tarafga tirqiratdi.*(26-bet). Farzandning erkaliigi, uning sho'x qiliqlari sira ham ota-onaga malol kelmaydi. Ummatali ham Azizxon haqidagi fikrlarini, uning bolalik xotiralarini tinimsiz yodga olib yashaydi: *"O'n besh yoshlarida bo'lsa kerak, Azizxon o'rik shoxiga oyog'i bilan osilib, g'unajinni qornidan katta dasturxonni sirib bog'lab, tugunidan tishlab ko'targandi. Tog'a kalxoz medpunktiga vodoprovod tushirish uchun ko'cha boshiga yigirmatacha temir quvur*

keltirib qoʻygan edi. Azizxon oʻrtoqlari bilan bahs boylashib, ertalabgacha hamma quvurlarni egib gʻildirak qilib qoʻyipti. Ana oʻshanda Ummatali quvur haqini toʻlashga majbur boʻlgan. Azizxon togʻasirikiga qochib ketib bir haftadan keyin Ummatalining oʻzi borib, olib kelgan edi. Ummatali hayron edi. Bu bolada shuncha kuch, shuncha gʻayrat qaydan paydo boʻldi ekan? Oʻzining ham, xotinning ham urugʻida bunaqa odam boʻlmagandi. Yuvoshgina ota-onaning bolasi ajab gʻalati chiqdi. Oʻtganning oʻrogʻini oladi, ketganning ketmonini oladi”(26-bet). Farzand qancha shoʻxlik, erkalik qilmasin, baribir, u ota-onaga uchun doimo farzand boʻlib qolaveradi. Ummatali ham oʻgʻling yorugʻ kelajagidan umidvor, uni xalq koriga yaraydigan inson boʻlishini xohlaydi, shu orzu bilan yashaydi: “Harna qilsa ham farzand, ota bechoraning joni achiydi. Koʻngli bolasining bir kun emas, bir kun esi kirib, yurtga nafi tegadigan odam boʻlib ketishiga ishonadi. Axir bolasi ichmaydi, chekmaydi. Faqat bebosh oʻylarini jilovlayolmaydi, xolos! Mol doʻxtirning uyiga oʻt tushganda uning Hasan-Husan chaqaloqlarini olov ichidan olib chiqqan kim edi? Kolxoz chorvasini sel oqizganda oʻzini toshqinga otib, mollarni qutqarib qolgan shu Azizxon emasmi?! Azizxon toshqin suvga oʻxshaydi. Uni jilovlasa, xohlagan tomonga, dalalarga, chorboqlarga boshlab borsa boʻladi. Agar jilov solmasa, u qirgʻoqlarni buzib, ekinlarni payhon qiladi. Ammo uni kim jilovlaydi?!”(27-bet). Barchamizga maʼlumki, mehnat inson shaxsini kamol toptiruvchi asosiy omil. Yozuvchi bu azaliy haqiqatni asarning tub mazmuniga singdirib yuborgan. Roman voqealari Azizxonni kuchi zoe ketmaydigan manzillarga yetaklaydi. Uning kuch-qudratini foydali ishlarga safarbar etadigan yagona narsa bu – mehnat edi. Taqdir uni “Katta Fargʻona kanali” qurilishiga olib keldi. Bu yerda Azizxon mehnat orqali oʻzligini angladi, xalqqa Aziz polvon boʻlib tanildi. U kanal qurilishida mardonalik koʻrsatdi, bu yerdagi Azizxonning xatti-harakati bizga Farhodning Armaniston togʻida suv chiqarishini, uning bahodirliklarini eslatadi. Kitobxonning bu obrazga boʻlgan mehr va muhabbati ortib boradi.

Xalqimiz tarixida “Katta Fargʻona kanali” qurilishi olamshumul voqea boʻlgan. Uning qurilishida nafaqat Azizxon, balki butun oʻzbek

xalqi: yosh-u qari, ayol-u erkak birdek xizmat qilgan. Ayniqsa, Farg'ona polvonlarining mardonavor xizmati yuksak bo'lgan. Do'nan polvon, Ali polvon, Jo'ra polvon, Esh polvonlar kabi ko'plab yurt o'g'lonlari bu qurilishning oldi kuchi bo'lib xizmat qildilar: *"Biz bugun vodiy polvonlarini alohida to'pladik. Besh yuzga yaqin polvon qurilishning alohida uchastkalarida o'z kuchlarini ko'rsatishlari kerak. Uchqo'rg'on to'g'oni, Log'umbek sharsharalari va nihoyat Kuyganyor to'g'oni siz azamatlarning bilak kuchingizga mahtal bo'lib turipti. Kanal qurilishi shtabi polvonlardan uchta katta brigada tuzishga qaror qildi. Uchqo'rg'on uchastkasida ishlaydigan brigadaga Log'on kanali qurilishida nom chiqargaan mashhur polvon Do'nanboy Do'stmatov. Log'umbek sharshara qurilishida ishlaydigan brigadaga buloqboshilik Jo'ra polvon G'oyipov boshchilik qiladi. Kuyganyor to'g'oni qurilishidagi brigadaga izboskanlik Ali polvon boshchilik qiladi"*(51-bet). Xalqimiz qadim zamonlardan juda ko'p ishlarni hashar yo'li bilan amalga oshirib kelgan. Bu esa millat hamjihatligiga, atrof-muhitning obodonchiligiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Farg'ona kanali ham ana shunday o'zbek xalqi ahilligi, uyushqoqligining namunalaridan biridir. Ushbu qurilishda polvonlarimiz kishini lol qoldiradigan, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan natijalarga erishdilar. Ularning mehnat qilishlarini, zabardast va ephilligini, kuch-g'ayratga to'la o'zbek er kishisini yozuvchining o'zi ham shunday bir mehr bilan gavlantiradiki, go'yo samoviy pahlavonlar yerga tushib mehnat qilayotgandek taassurot uyg'otadi. Bu tasvirlarda azaliy o'zbek bahodirlariga ishora sezilib turadi: *"Azizxon Hasan otani opichlab yelkasiga qo'yganча harakatsiz qirg'oqqa kelardi... Kimdir Azizxonning yelkasiga to'n tashladi. U to'nni bir yelka qoqib tushirib yubordi-da, odamlar orasiga kirib ketdi. Orqadan odamlarning o'zaro gaplari eshitilib turardi: – Azamat ekan! – Qayerdan ekan bu yigit? – Sherning kuchi bor ekan azamatda"*(74-bet). Aziz polvon odamlarni lol qoldirar, har bir harakatida yoshlikning shijoati barq urib turardi: *"Jo'ra polvon andak o'ylanib turgandan keyin iljaydi. Azizxon tutib turgan qanorga kuraklab tuproq tashlay boshladi. Qanor yarim bo'lgandan keyin, endi bas, dedi. Azizxon, solavering, ustoz, deb kuldi. Qanor bo'g'zigacha tuproqqa to'lgandan keyin*

Azizxon, qani orqalatvoring, ustoz, dedi. Ikki kishilashib qanorni uning orqasiga qo'yishdi. Odamlar bola hozir qorni bilan yerga qapishib qoladi, degan gumonda chang o'tirib ho'l bo'lib ketgan og'ir kipriklarini qimirlatmay qarab turishardi. — Bola, mayib bo'lasan, ko'pam chiranma, — dedi Jo'ra polvon. Azizxon indamadi. Bir silkinib qanorni orqasiga o'ngladi-da, pildiragancha taxtadan yuqoriga chiqib ketdi. Hamma hayron. Toyib ketsa ushlab qolamiz, deb ikki-uch polvon yigit-yo'lning yarmida uni kutib turishardi. Azizxon ularga qaramay, chang-to'zonga to'lgan qirg'oqqa chiqib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Odamlar hang-mang bo'lib qolishgan edi” (91-bet). “Buyuk Farg'ona kanali”qahramonlarni yaratdi. Albatta, bu qurilishda juda ko'blab insonlar shijoat ko'rsatishgan. Azizxon ana shu shijotli, serg'ayrat insonlarning oldi vakili, ularning umumlashgan obrazi edi. Kitobxon beixtiyor Azizxon obrazini kuzatishda hamda Arman yurtida suv chiqarish uchun tog` yonayotgan Farhodni esga oladi. Adibning o'zi ham bunga ishora qilib o'tadi: “Azizxon odamlar kuzatuvida choyxona tarafga yurarkan, Halimaxonim Jo'ra polvonning boshidagi qirg'izcha qalpog'ini olib ikki bukladi-yu, og'ziga tutib ashulani boshlab yubordi. Birdan hamma jimib qoldi. Azizxon ham yurishdan to'xtab angrayganча unga qarab turardi. Qo'shiq tog` qaziyotgan Farhod sha'niga aytilayotgan Shirinning yurak dardlari edi. Azizxon xijolatlikdan qizarib ketgan, bu obro` uni chinakamiga mast qilgan edi”(93-bet). Mehnat Azizxonni tarbiyaladi. Qurilishdada u odamlar orasida chinakamiga hurmat qozondi. Davlat rahbarlarining nazariga tushdi. Ota-onasiga, tug'ilib o'sgan joyiga rahmat olib berdi: “Oxunboboyev o'zidan katta qanor to'la tuproqni tashib chiqayotgan yigitga ko'zi tushdi-yu, o'rnidan turdi. Bu payt Azizxon yelkada qanor bilan taxta pillapoya ustida shoshilmay, bir maromda qadam tashlab yuqoriga chiqib kelardi. Chang-to'zon orasida uning gavdasi soyadek ko'rinardi. — Kim bu?— dedi Oxunboboyev hayratda. O'sha tarafdin ko'zini uzmay turgan Eshon aka, bilmadim, deb bosh chayqadi. — Kim bo'lsa ham bas qilsin! Tuprog'ini to'kkandan keyin bu yoqqa chaqiringlar. Sal fursat o'tib Azizxon iljayganча qanorni sudrab Oxunboboyevning oldiga keldi. — Iya, senmiding? Bu nima qilganing?

Bas qil-e! Azizxon iljaydi. – Ota, sal kunda kanal bitadi. Ishlab qolaylik-da. Keyin armon qilib yurmaylik. – Qancha kilo ko'tarasan? – Bilmadim – dedi Azizxon. – tortib ko'rmaganman. Qancha ortsangiz ko'taraveraman. Oxunboboyev hang-mang bo'lib qoldi. Keyin hazil aralash, "o'dammisan, nimasan", dedi"(92-bet). Azizxon sof ma'noda millat, mehnat qahramoni. Yosh bolaning bunday favqulotda kuch-qudratga ega bo'lishi uni omma orasida yosh Aziz polvon qilib tanitdi. Adib bu obrazni xalqimizning og'izlarda doston bo'lmish pahlavonlariga qiyos etadi. Shuni aytib o'tishimiz joizki, ijodkor Azizxon obraziga xos sifatlarda haqqoniylik, tabiiylikdan biroz chetga chiqqanligi kuzatiladi, mubolag'a, bo'rttirish oshirib yuboriladi. Ammo ana shunday ulkan inshootni qirq besh kunda bunyod etish uchun, albatta, xalq orasidan chiqqan Azizxon kabi polvonlar darkor edi. O'zbek xalqi esa polvonlar yurti. Adib qahramonlari ana o'sha xalqning oddiy, lekin kuch-g'ayratga to'la, samimiy insonlardan saralab oldi. "Qirq besh kun"ning o'qishliligi, samimiyatga to'la asar ekanligining sababi ham ana shundadir, balki.

Xalqimizda shunday gap bor: *"Insonga shon-sharaf keltiradigan ikki narsa: biri mehnat, biri ilm-u hunardir"*. Farg'ona polvonlari bu qurilishda mehnati bilan og'izlarga tushdi. Qurilish qahramonlaridan bo'lmish polvon Do'nan Do'stmatov mohirligi bilan hatto Azizxonni ham ortda qoldirdi. Polvon Azizxon ham unga qoyil qoldi: *"Azizxon ikki marta Do'nan polvon ishlayotgan uchastkaga borib ishini ko'rib keldi. Zo'r. Juda zo'r ish qilyapti Do'nan polvon. Azizxon avval uni ko'rmay, kuchini chamalamay turib, Do'nan polvon nima bo'пти, undan o'tib ketaman, deb o'ylagan edi. Ishini ko'rdi-yu, bu gapni o'ylamay aytganini bildi. Darhaqiqat, Azizxon Do'nan polvonga teng kelolmasdi. Balki, kurash tushsa uni yiqitar, ammo Do'nan polvon unchalik og'ir yuk ko'tarolmas. Chunki u yer qazishning tilini bilib olgan, rejani to'g'ri olishi, o'zini koyitmay bir me'yorda ketmon urishi boshqa kishining qo'lidan kelmasdi. Chunki Do'nan polvon Lo'g'on kanalida ishlab chiniqqan edi. Mayli, har kim o'z qo'lidan ishini qiladi. Azizxon o'zini yupatish uchun bahona topdi. Do'nan polvon ko'p tuproq qazishda birinchi. Ammo lekin tuproqni ko'tarishda u Azizxondan o'tib*

bo`pti”(113-bet). Albatta, har bir xalqning o`z polvonlari, alpqomat bahodirlari bo`lgan yaxshi, ular xalq koriga yaraydi. Og`irini yengil qiladi. Romanda Esh polvon obrazining Azizxon bilan ziddiyatlari qizg`in tarzda yoritib beriladi. Kitobxonda bu holat romantik asarlardagi kabi oq va qora kuchlarning bir-biriga qarshi qo`yilishi manzaralarini eslatadi. Ammo ijodkor Esh polvon obrazini yaratishda realizm an`analariga sodiq qoldi. Uni oddiy bir inson va unda bo`ladigan o`ziga xos xarakter xususiyatlarini mahorat bilan ochib beardi. Asarda Esh polvon Azizxonning xatti-harakatlariga qarshi qo`yilsa-da, o`quvchida Esh polvon obraziga nisbatan samimiyat paydo bo`ladi: *“Esh polvon kecha Azizxonni ko`p tuproq tashib chiqarishda musobaqaga chaqirgan edi. Belyavskiy Esh polvonni ng Azizxondan yengilganini, alamzada ekanini biladi. Agar u tuproq tashishda ham yengiladigan bo`lsa, kanalni tashlab ketib qoladi. Eshning yagona umidi shu musobaqadan edi. Belyavskiy shularni o`ylab Esh ishlayotgan toshloqqa qaradi. U katta-katta xarsanglarni beliga qo`yib yuqoriga olib chiqar, ajib bir intilish bilan xarsangni yonboshiga irg`itardi”*(130-bet). Esh polvonning mehnatdagi shijoati atrofdegilarning ham o`z ishlarini berilib, chin yurakdan mehnat qilishga undardi. Darhaqiqat, Esh polvon katta kuch va g`ayrat bilan mehnat qilardi: *“Eshda kuch ko`p, oriyati zo`r. nima bo`lganda ham Azizxonni yengsam, deb urinib yotipti. Kechalari ham oydinga ishga chiqib ketyapti. Azizxon tushmagur u kechgacha qiladigan ishni tushgacha bajarib qo`yyapti. U bola o`ziga birovni yetkazmaydi. Faqat bitta Do`nanvoyni tan oladi. Undan boshqasini oldimga o`tkazib bo`pman, deydi. Ajab g`alati bola. Ish unga pisanalmas. Ishni xuddi ermakka qilayotgan qiynalmay, kuchar may, kulib turib bajaradi. Bir kunda o`n olti kubometr o`n oltita katta yuk mashinasiga yuk bo`ladi-ya!.., bu voqealarni Belyavskiy o`z ko`zi bilan ko`rgan. Shundoq polvonni yengish Eshga oson tusharmikin? Agar Esh Azizxon qilgan ishning yarmiga yetsa ham katta gap. Negaki Azizxon g`ayri tabiiy kuchga ega bir yigit. Bunaqasi bu yaqin orada topilishi qiyin”*.(132-bet)Ha, Azizxon kanal tashkilotchilari tan berganidek, g`ayri tabiiy kuchga ega bir pahlavon, u butun kanal qurilishi ahlini lol qoldira oldi. Shu qatorda Do`nan polvon va Esh polvonlar ham o`z

mehnati bilan kanal qurilishi tarixida qoldi: "Butun ikki yuz yetmish kilometrlik kanal trassasida uch kishining – Do`nan polvon, Aziz polvon, Esh polvonlarning nomi og`izdan tushmasdi. Gazeta deyarli har kungi sonida shu uch polvonning qazigan, chiqazgan tuprog`i qancha bo`lganligini xabar qilar, agitatorlar suhbatning boshida ularning nomlarini tilga olardi"(113-bet). Har bir davr o`z qahramonlarini yaratadi. Hamda mana shu qahramonliklar yuzaga chiqishi uchun, albatta, qulay shart-sharoit ham yuzaga chiqadi. Do`nan polvon, Esh polvonlar o`zlarining bilak kuchlari bilan xalqqa ancha oldin polvon bo`lib tanilgan bo`lsa, kuch-g`ayratga to`la Azizxonni qismati uni kanal qurilishiga yetaklab keldi. Bu yerda u kuchni foydali ishlarga sarflash kerakligi, xalq koriga yarash saodati haqida o`ylay boshladi. U bu yerda haqiqiy afsonaviy pahlavonga aylandi. Darhaqiqat xalqimiz ming yillar davomida Azizxon kabi polvonlarni kutib, kuylab yashaganlar. Ularni xalq dardiga darmon bo`lishlarini orzu qilganlar. "Buyuk Farg`ona kanali" qurilishida vodiy polvonlari yengshimarib astoydil mehnat qildilar hamda kanal qurilishi tarixida, yurtimizni obodonlashtirish tarixida o`z nomlarini abadiyga muhrladilar. Shu o`rinda Said Ahmadning "Qirq besh kun" romani o`zbek polvonlarining kuch va shijoatga to`la hayotlarini badiiy ifoda etgan asarlarning peshqadami sifatida nasrimiz tarixida qoldi.

Xalq ijodiyoti ta'sir etmagan, xalqning o`ziga xos milliyligi ko`zga tashlanmaydigan ijod namunasini topib bo`lmaydi. Chunki ijodkor o`zi mansub bo`lgan xalqning milliy qadriyat darg`alaridan suv ichib voyaga yetadi, uning ta'sirida ijod olamiga qadam qo`yadi va ana o`sha xalqining baxti va baxtsizligi, orzu va armoni kuychisiga aylanadi. Demak, har bir ijodkor o`z asarlarida o`zi anglab yoki anglamagan holatda xalq ijodi namunalariga murojat etadi, o`z xalqning ruhiyatiga mos bo`lgan asar yaratadi. Hozirgi o`zbek adabiyotida xalq ruhiyati va didiga mos asarlar yaratayotgan ijodkorlardan biri Luqmon Bo`rixondir. Adib zamonaviy o`zbek adabiyotgao`z uslubi bilan kirib kelgan yozuvchilardan. Luqmon Bo`rixon ijodining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning asarlarida folklor an`analarining o`ziga xos tarzda namoyon bo`lishidir. Muallif asarlarida xalq og`zaki ijodidan unumli foydalanadi.

Biz bu masalada uning “Quyosh hali botmagan” qissasidan joy olgan Absal polvon obrazi haqida to`xtalmoqchimiz.

Ma`lumki, sharq musulmon dunyosida ustoz (pir) eng muqaddas tushunchalardan biri bo`lib keladi. Mumtoz adabiyotda ham murshidning chin kamolot bosqichiga erishishida piring o`rni beqiyos. Toliblar o`z pirlariga qo`l beradilar va fano tomon intila boshlaydilar. Xalq o`gzaki ijodida esa pirlar o`zining alohida olingan, takrorlanmas xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular qahramonning muammolarini yechishda ko`maklashadilar, ma`naviy kamolotida katta rol o`ynaydilar. (Masalan, “Alpomish” dostonida Shohimardon piri, Rajab pir; “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning ma`naviy pirlari: Boniy, Moniy va Qoran kabilar) Adibimiz Luqmon Bo`rixon ham bu an`analardan unumli foydalanadi va qissaga Absal polvon obrazini kiritadi. Absal polvon bo`ljak polvonlar Norsoat va Davronning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni ma`naviy kamolotga yetaklaydi. Qissada Absal polvon donishmandlik, or-nomus, jasorat timsoli. Muallif Absal polvondagi ilohiylikka ishora qilib ketadi: *“Asl ismi Abdusalom bo`lgan bu kishi el-ulus orasida Absal, Absal polvon nomi bilan mashhur. Abdusalom hech bir ustoz ko`rmagan hech bir mashg`ulotda qatnashmagan, xuddi o`rislarning Ivani kabi atoyi polvon emish..., Bu jigit bilan hazillashmang, hamisha hurmatini joyiga qo`ying, unga Chilton pirlar polvonlikni g`oyibdan yuqtirgan”*³ Ma`lumki, Chilton pirlar xalq e`tiqodiy tushunchalari asosida kelib chiqqan obraz, qadimdan odamlar ularga e`tiqod qilganlar va madad so`rganlar. Hayotdagi real insonning bunday e`tiqodiy timsollarni uchratishi yoki bo`lmasa, ularning odamlarga nazari tushishi baxt hisoblangan. Absal polvon ham ana shunday Chilton pirlarning nazari tushgan obraz. Adibimiz Luqmon Bo`rixonning boshqa asarlarida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkin. “Xizr ko`rgan yigit” asarida ham Qorjov ana o`shanday Xizr nazar solgan insonlardan. Demak, xalq og`zaki ijodiga tez-tez murojat qilish Luqmon Bo`rixon ijodiga xos xususiyatlardan biri. Bu yo`l bilan muallif o`z asarini xalq ruhiyatiga yaqin qilib yaratgan, uni

³ Бурixon Л. Куёш хали бoтмаган. // Ёшлoк, 2015. 1-2 сон. 17-Б. Кейинги ўринларда ушбу манбадан олинган кўчирмалар кавс ичида бериллади.

qiziqarliligini oshirgan. Aytish mumkinki, bu o'rinda muallif o'zining badiiy niyatiga to'laqonli erishgan.

Muhabbat tuyg'usi ranjida qilgan har qanday insonda o'zi xohlaydimi yoki yo'q ma'lum bir ruhiy, ma'naviy o'zgarishlar yuz beradi. U kamolotga intila boshlaydi, ko'ngil qo'ygan insoniga har tomonlama munosib bo'lishga harakat qiladi. Absal polvon shogirdlariga jismoniy ta'lim-tarbiyadan ko'ra ma'naviy tarbiya berishni o'ylaydi: *"Rais bova sizlarni menga ishonib topshirib ketgan, shuning uchun bir-ikki og'iz nasihat qilib qo'yishim kerak bo'ladi. Bu ham mashq-mashg'ulotimizga kiradi. Eshityapsizlarmi?"*(20-bet). Absal polvon muhabbat kishisi, u muhabbat insonlikning bosh omili ekanligini to'la anglagan. Muallif asarning badiiy mantig'ini shakllantirishda va xarakter xususiyatini ochishda turli detallardan unumli foydalangan. Qissada Absal polvon yuragining eng tubida saqlaguvchi sirlarining, dardlarining davosini sibizg'a kuyidan topadi. Undan najot izlaydi: *"Har bir polvonning o'z sibizg'asi bo'lishi kerak, uni yurakning ustidagi kissada asrab-avaylab yurgan ma'qul"* (18-bet). Hali muhabbat nima ekanligini to'la anglamagan yosh polvonlar, Norsoat va Davron, sibizg'aning ustozlari Absal polvonning hayotidagi ahamiyatini bilishmas, unga shunday ta'rif beradi: *"Sibizg'a deganlari bir enlik qamishdan yasalgan oddiy va jo'n musiqa asbobi ekan. Absal polvonning uni ixlos-u e'tibor bilan qo'lga olishini ko'rib, g'oyat noyob narsa bo'lsa kerak deb o'ylabmiz"*(17-bet).

O'sha bir enlik qamishdan yasalgan oddiy va jo'n musiqa asbobi Absal polvonning dardlarining da'vosi, zaxmlarining malhamidir. U hech kim bilan bo'lisha olmaydigan ko'ngil sirlarini sibizg'a orqali to'kib soladi. Sibizg'a navolarini tinglab, hattoki Quvondiq qaysarning ham qarog'larida yosh yaltiraydi. Xo'sh, buning sababi nimada? Sababi shundaki, muhabbatning butun bir umrga tatigulik kuchida. Muhabbat insonni xoh kuldiradi, xoh kuydiradi. Muhabbat deb ataluvchi obi-hayot tashrif buyurmagan ko'ngil qashshoq, u xuddi sahro misoli sassiz va qarovsizdir.

Qissada Absal polvon portreti vaqti-vaqti bilan, kezi kelganda chizib boriladi: *"Devqomat, biroz dehqon, biroz cho'pon kimsa...."*

sibizg`ani bahaybat kaftlari orasiga olib qalin lablariga tegizdi”(17-bet). Bir qarashda kitobxon oddiy chapani o`zbekdan farqi bo`lmagan odamda qanday ilohiylik, sirlilik bo`lishi mumkin degan o`yga borishi mumkin. Absal polvondagi sirlilik uni xatti-harakatlarida, gap-so`zlarida namoyon bo`ladi: “*Xuddi yonimizda turganday harakatlarimizni aniq - tiniq baholardi! Yana bir holning guvohi bo`lganman. Men shogirdlarning biri bilan kurash tushayotgan paytim Absal polvon shundoqqina biqinimizda og`ir-og`ir nafas -olib turganini payqadim! Payqadimu yonimga yalt etib o`grildim. Shu lahzadayoq o`gildan chiqib kelayotgan ustozning tanbehi jarangladi:*

Ey, kengasoylik hayolingni bo`lma!”(18-bet).

Ha, Absal polvon ana shunday inson holati va xayolini o`qiy oladigan ilohiy qobiliyatga ega odam bo`lgan. U Norsoat va Davronning kelajagini oldindan ko`rgan bo`lsa ne ajab. Absal polvonning shogirdlarga aytgan gaplarida ham uning shaxsiyatiga yaqinlashib boramiz: “*Yuraging buyurgan ishni qilishni o`rgan. Polvonlikning birinchi sharti shu*”(18-bet). Inson zoti doim ham yuragi buyurgan ishni qila olmaydi, odamlarning gap-so`zlaridan qochadi, aql bilan ish ko`rishni ma`qul deb biladi. Qissamiz qahramoni Norsoat ustozining yo`rig`idan borib, yuragiga quloq soldi. Yillar davomida ardoqlagan pok muhabbati yo`lida g`irromlik qilishga-da bordi va o`z sibizg`asini-muhabbatini qo`lga kiritdi.

Davronning Absal polvonga: “*...yurakning polvonlikka nima aloqasi bor? Yurak noto`g`ri yo`lga boshlasachi*” - degan savoliga Absal polvon - “*...yurak noto`g`ri yo`lga bo`shlasa yo sening polvonliging, yo yuraging borligi o`trik*”. (19-bet) - deya javob berganida ham uning naqadar ko`ngil quli va yuragi bilan bamaslahat ish qiluvchi inson ekanligi yaqqol ko`zga tashlanib boradi. Undagi oliy fazilatlar nomoyon bo`ladi.

Polvon bo`lish faqatgina er kishining jismoniy imkoniyatlari bilan o`lchanmay, balki insondan ma`naviy kamolotni, ruhiy yetuklikni talab qiladi. Xalqimizda har bir mushagi zo`r polvon sanalmaydi, polvon, avvalo, o`zligini anglagan, o`zgalarga ma`naviy ta`sir eta oladigan bo`lishi kerak. Qissamiz qahramoni Absal polvon ham polvonlikning

ma'naviy fazilatlarini to'la egallagan. U shogirdlariga shunday nasihat qiladi: "...*polvon odam uch narsaga hokim bo'lishi kerak: nafsiga, shuhratparastlikka, manmanlikka; uch narsaning quli bo'lishi kerak: haqiqatning, or-nomusning va muhabbatning*"(20-bet). Absal polvon vazmin inson, u har qanday vaziyatda o'zini tuta biladi. Davronning mahmadonalik qilib Absal polvon og'zidan gapni ilib ketsa ham, sukut saqlab jim kutadi, qo'yingki, shogirdlar ustozlarining oldida nafasini qattiqroq olishdan-da hayiqar edilar.

Absal polvonni ikkilanmay qissaning badiiy g'oyasini shakllantiruvchi asosiy obraz desak, xato bo'lmaydi. Chunki u aytgan gaplar Norsoat va Davron hayotida ijobotini topadi. Haqiqiy muhabbatni anglagan ko'ngilni – polvon ko'ngli deyish mumkin bo'lsa, muhabbatga yurakdan oshno bo'lgan insonnigina polvon, er kishi deyish mumkin, degan g'oya Absal polvon obrazi orqali talqin etiladi. Norsoat hamda Davronning ma'naviy kamol topishlarida Absal polvon qanchalik katta rol o'ynagan bo'lsa, "Qirq besh kun" romani qahramoni Azizxonning haqiqiy polvon bo'lib yetishishida undagi g'ayri tabiiy kuchdan tashqari ustozlaridan olgan ta'lim ham benihoyat katta o'rin egallaydi. Azizxonning hamqishloqlari tilidan Azizxon hamda uning ustozi to'g'risida ushbu fikrlar keltiriladi: "*Azizxon o'n besh yoshlarda edi. Toshkentga Hojimuqon degan qozoq polvoni kelganini eshitib qoladi. Hojimuqon qorniga taxta qo'yib ustidan yuk mashinasini o'tkazarmish, yelkasida temir yo'l relisini obkashga o'xshatib egib-bukarmish. Azizxon bu tomoshalarni o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelib uydagilariga bildirmay kechasi kechasi Gorchakovodan poezdga chiqib Toshkentga qochadi. Dadasi bilan onasi bir kun kutishadi, undan darak yo'q..., Azizxon shu ketgancha ikki oy yo'q bo'lib ketadi. Ota-onasi qidirmagan joy qolmaydi. Militsiyaga xabar qilishadi, bari bir daragi chiqmaydi. Azizxon Hojimuqonga ergashib, Qozog'iston taraflarga ketadi. Mashhur polvon undan kimsan, ota-onang bormi, deb surishtirganda, hech kimim yo'q, yetimman, detdomda o'sganman, deb javob qiladi. Hojimuqon uni sinab ko'radi. Bolaning kuchiga hayron bo'ladi. O'zi ko'taradigan toshlarni ko'tartirib ko'radi. Azizxon qilt etmay ko'tarib otadi. Shundan keyin Hojimuqon uning qorniga avval buzoq, keyin eshak, undan keyin ot*

chiqazib ko`radi. Azizxon ko`zini pirqiratmay, nima chiqazsa ko`taraveradi...ana shundan keyin mashhur polvon uni o`ziga shogird qilib oladi. Og`ir yuk ko`tarish sirlarini o`rgata boshlaydi. Samarqand, Buxorova Toshkent shaharlaridagi o`yinlarida o`ziga assistant qiladi"⁴. Guvohi bo`lganimizdek, biz tahlilga tortgan har bir polvonlarimizning hayotida ustozning o`z o`rni bor. Adib Luqmon Bo`rixon Absal polvonni Norsoat hamda Davron polvonlarning faqatgina jismonan emas, balki ruhiy dunyosi, ma`naviy qiyofasi shakllanishidagi ahamiyatini qalamga oladi. Said Ahmad "Qirq besh kun" romanida Hojimuqonning ma`naviy fazilatlarini va uning Azizxon ruhiy olamidagi o`rni haqida alohida to`xtalib o`tmasa-da, kitobxon Azizxon sof va samimiy fe`l-atvori, halol va mardligi hamda har bir polvonni o`ziga ustoz deb atashida uning hayotidagi ustoz tarbiyasi chizgilarini kuzatishi mumkin.

O`zbek xalqining alohida millat bo`lib shakllanishi qadim ming yillarga borib taqaladi. Mana shu davrlar mobaynida xalqimizning milliy qadriyatlarini shakllandi. Dunyo madaniyati tarixida o`zbek millati madaniyatining o`z o`rni va nufuzi bor. Xalqimiz bu milliy qadriyatlarga sodiq ravishda yashab kelmoqda. Milliy qadriyatlar har bir xalqning elat bo`lib shakllanishida muhim vazifa o`taydi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har bir qadriyatning peshonasida unutilish qismati bor. Ijodkor xalqi esa ana o`sha unutilib borayotgan qadriyatlarni qalamga oladi, uni o`z millati yuragiga uni qayta joylaydi, xalqning milliy ruhini tiklashga harakat qiladi. O`zbek nasrida o`z asarlariga shunday qadriyatlarni, milliylikni o`ziga xos tarzda jo qilgan ijodkor Tog`ay Muroddir. Uning asarlarini o`zgacha bir ruhiyati, kayfiyati bor. Kitobxon bu holatni mutolaa boshidanoq his etadi, asar ruhiyatga berilib qoladi. Voqealar va asar kayfiyati o`quvchini ancha vaqtgach o`z ta`siri ostiga oladi. Unda aytilayotgan fikrlar o`quvchini o`ylashga, mulohaza yuritishga undaydi. Tog`ay Murodning ilk ijod namunasi bo`lmish "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ham bu holatga beixtiyor guvoh bo`lishimiz mumkin. Adib ushbu asari bilan o`zbek nasri maydonida yangi yo`nalish ochib

⁴ Ahmad S. Ufq. – T: Sano-standart, 2016 – yil. 133-B.

berdi. Adabiyotga o'z so'zi, o'z yo'li bilan kirib keldi. Adib ushbu asarda Surxon vohasidagi milliy qadriyatlarni g'oyat ehtiros bilan qalamga oladi. Taniqli adib Said Ahmad ushbu qissa haqida shunday yozadi: "*Men To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida Bo'ri polvon, Tillovberdi polvon, Abil polvonlarning kurashlarini zavq-shavq bilan tomosha qildim. Surxon polvonlarining halolliklari, mard va tantiliklarini ko'rib g'ururlanib ketdim. Ana o'zbek polvonlari, ana deya g'ururlandim*"⁵. Ushbu qissa maydonga kelishi bilanoq keng jamoatchilikning diqqatini o'ziga qaratdi. Ro'znomalarda, adabiy jurnallarda ushbu qissa haqida turli maqolalar paydo bo'ldi, bundan tashqari bu qissa yilning eng qissasi deb ham topildi. O'ylashimizcha, ushbu asarning bu darajada shuhrat qozonishiga omil bo'lgan asosiy sabablardan biri unda milliliylikning, xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik, ochiq fe'llilik, samimiylik va shu kabi xislatlarni obrazlarning xarakter xususiyatlariga mohirona singdirilganligi hamda har bir o'zbek qalbi uchun tanish bo'lgan kechinmalarning asar ruhiyatiga yuksak ravishda uyg'unlashtirilganligidadir. Keling, asarning boshlanishiga diqqatimizni qarataylik, u xalqimizga uzoq asrlar davomida saqlanib kelinayotgan to'yga odamlarni ommaviy tarzda aytilishidan boshlanadi. Shu lavhaning o'zidayoq kitobxon milliylik nafasini his etadi: "*Odamlar-u odamlar, tog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! Bugun ha-a-amma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to'yiga, he-e-e-ey! Cho', jonivor!*"⁶. Har bir xalqning madaniy boyligi hisoblanmish xalq og'zaki ijodida qo'shiqlar, turli aytimlar katta o'rinni egallaydi. Xalqimiz xoh to'y tomosha bo'lsin, xoh aza-motam bo'lsin qalbida borini qo'shiq yoki yig'i-yo'qlovlar orqali bayon etadi. Bunda to'y-tomosha egasi yoki dunyoni tark etgan insonga nisbatan bo'lgan chuqur ehtiromi va hurmati o'z ifodasini topadi. Adib qissaning boshlanmasidayoq to'yga chaqirish aytimlaridan foydalanib kitobxonni beixtiyor asar qahramonlarning kayfiyatiga yaqin qilib qo'yadi. Asarga kirib olishni va uning tushinilish darajasini oshirib beradi. Keyingi

⁵ Ahmad S. Tog'ay Murodning qo'shiqlari. – T., 1994.

⁶ Мурод Т. Юлдузлар мангу ёнади. –Т: Фахур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 3-Б. Кейинги ўринларда ушбу манбадан олинган кўчирмалар кавс ичида берилди.

o`rinlarda ushbu kayfiyat davom etadi. Bu o`rinlarda esa o`zbeklarning bir-biriga bo`lgan mehr-oqibati va cheksiz hurmati o`z aksini topadi. Milliyligimizning yana bir belgisi bo`lmish yaxshi niyat qilish ham asarda o`z aksini topgan: *"Xonadon bekalari, quruq ketmang, deya egar qoshiga to`n ildilar. To`y bekasi ularga: - Iloyim, sizniyam to`yga yetkazsin, - deya tilak tilab, yuziga fотиha tortdi. So`ngra Zulfiqor polvon ot minib, odamlarni o`z nomidan aytdi. Elning ko`ngli nozik-da. To`y bekasi aytgan boshqa, xo`jasi aytgan boshqa"*(3-bet). Dunyoda inson ko`nglidanda nozikroq narsa yo`q. To`y egalarining ommani to`yga alohida-alohida bo`lib aytib chiqishlari ham, boshqa millat qadriyatlarida uchramaydigan, faqatgina o`zbek xalqiga xos bo`lgan oliy qadriyatlarning nishonasidir. Zero, xalqimizda inson ko`ngli eng nozik narsa va ko`ngil olish savobli ish sanaladi. Qadimdan voha to`ylari ko`pkari, olishlarsiz o`tmaydi. Bu holat to`y taassurotlari uzoq vaqtgacha saqlanib qolishi, uni maroqli o`tishini ta`minlaydi: *"Ana, bir otliq boshsiz uloqni taqimiga bosib to`yxonadan chiqdi. Nabi oqsoqol: - odamlar, Oqjarda ko`pkari bo`ladi. Ana, uloqni olib ketdi! Xohlaganlar borsin. Eslaringda bo`lsin, kechasi olish bo`ladi, ertaga yana ko`pkar. Piyoda ko`pkarisiyam bor! Ertaga piyoda poygayam bo`ladi, ha!"*(5-bet). O`zbek to`ylari bolalarning shodon o`yin-kulgusisiz o`tmaydi, albatta. Asarda bu holat ham nazardan chetda qolmagan: *"Besh-olti bola jam bo`lib, bir uy ichicha yerni aylana qilib chizdi. Bu - gir. Biror sonni belgilashib, birovi bolalarni uch aylantirib sanadi. Oxirida mo`ljaldagi songa tushgani girda qoldi. U gir ichida engashib, ko`zlarini qo`llari bilan yashirib turdi. Bolalar har tarafga sochilib, yashirindi. Girda qolgani ularni izladi. Girdan ham ogoh bo`ldi. Kim uning ko`zini shamg`alat qilib, epchillik bilan girga chopib kirsam, u g`olib sanaladi. u ayollar orasida bir bola mo`ralab turganini sezib qoldi. Uni davrani gir aylantirib quvdi. Bola ushlatmay, girga qarab qochganda qo`lga tushdi. Bu orada boshqa bolalar girga to`plangan edilar. Endi qo`lga tushgani girda qolib, bolalarni izladi. Bu - yashinmachoq o`yini!"*(5-bet). Adibimizning bolalik yillari ham Surxon vohasida o`tgan. U bolalik xotiralarini beixtiyor ushbu qissada jonlantiradi. Folklor namunalari hisoblanmish bolalar o`yinlarining boshqa turlarini ham ushbu asarda

yana ko`rishimiz mumkin: "To`yxonaning kunchiqaridagi qisirpoyada bolalar ikki tarafga bo`lindi. Birinchi taraf teskari o`girilib, ko`zlarini chirt yumib turdi. Ikkinchisidan qulochi kattarog`i molning bir qarichcha suyagini qo`liga oldi. Suyak oppoq. Qorasi o`yingga yaramaydi. Oydinda qorayib ko`zga tez chalinadi. Oppog`i oy yorug`ida darrov ko`rina bermaydi. U suyakni qulochkashlab otib yubordi. Suyak tushgan yerdan chang ko`tarildi. Ular, bo`ldi, degach raqiblari o`girildi. Har tarafga yoyilib suyakni izlab ketdi. Suyak otgan bolalar qatorlashib o`tirib, ularni kutdi. Bolalar suyakni izlay berib oxiri topdilar. Agar topolmaganlarida suyakni otgan bolalarning o`zi topib ota berib, ularni sarson qilardi. Endi suyak otish gali oni topib kelganlarga. Buni oqsuyak o`yini deydilar!"(6-bet). Qissada xalq turmush-tarzini ko`rsatib berishga alohida o`rin beriladi. Xalq qo`shiqlari mehnat jarayoni mahsulidir. Odamlar mehnat zahmini unutish va ko`ngilni ko`tarib ishlashlari uchun qo`shiqlar to`qishgan. Bu odat xalqimiz orasida haligacha saqlanib qolgan:

*"Ol bolangni jonivor-a, churiya-chur-ey,
Ma`rab-ma`rab kela qol-a, churiya-chur-ey,
Moldan oldin kelmasang-a, churiya-chur-ey,
Uydan ketmay qola qol-a, churiya-chur-ey"*(19-bet).

Qissada mehnat qo`shiqlarining ajoyib namunalari ko`rishimiz mumkin. Bo`ri polvonning onasi tomonidan aytilgan ushbu qo`shiq o`zbek ayollarining mehnatkashligi, ibratga to`la samimiy hayotlarini ifoda etadi. Shuningdek, qissa qahramonlari tomonidan aytilgan ushbu qo`shiqlar ularning xarakter xususiyatlarini ochib berishdan tashqari, ularni qalbidagi dard-anduhlari va iztiroblarini ham namoyon etgan:

*"Sakrab-sakrab haydagin-a, mayda-yo, mayda-yo,
Saksonlar botmon kelsin-e, mayda-yo, mayda-yo,
Yo`rtib-yo`rtib haydagin-a, mayda-yo, mayda-yo,
Yuz botmonlar kelsin-e, mayda-yo, mayda-yo."*

Ho`kizlarning qadamidan chuqur iz qoladi. Somon tagidagi bug`doy g`ijir-g`ijir etadi. Bo`rining ovozi dardli:

*Ayri-ayri tuyog`ing, mayda-yo, mayda-yo,
Olmos bo`lsin jonivor-a, mayda-yo, mayda-yo,*

*Seni boqqan dehqonlar-a, mayda-yo, mayda-yo,
Sarmast bo'lsin jonivor-a, mayda-yo, mayda-yo*"(32-bet).

Har bir millat o'zligini saqlab qolgandagina uning umri jahon maydonida bardavom bo'ladi. Adibimiz ham asrlar davomida shakllangan, ayni chog'da esa unutilib borayotgan qadim qadriyatlarimizni ushbu asarga jo qildi. U Bo'ri polvon tilidan shunday gaplarni aytadi: *"Xalq nimasi bilan xalq? Ota-bobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq! Ko'pchiligini birovlar...birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi. Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik. Shunday keta bersak hademay o'zimizniyam boy berib qo'yamiz"*(45-bet). Ha, adib haq. Bugun ko'p narsalarni eskilik sarqitiga chiqaryapmiz, o'zimizni-da, o'zligimizni-da boy berib qo'yayapmiz. Ijodkor asarda bunday ayanchli holatlarni jonli tarzda tasvirlaydi. Kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Biz ushbu lavhalarni ishimiz doirasiga kiritib, ko'zlangan maqsadimizdan biroz chekaga chiqqandek tuyilsak-da, aslini olganda esa, bu orqali o'zbek polvonlarining yashash tarzi, ularning ma'naviy qiyofalari va ruhiy iztiroblarini ko'rsatib berishga harakat qildik. Chunki ijtimoiy muhit insonning qanday yashashi va qanday inson ekanligini ko'rsatib beruvchi asosiy omildir.

1.2. Polvon obrazini yaratishda folklor an'analari

Hamisha navqiron O'zbekiston o'zining qadim tarixida juda katta va beqiyos moddiy va nomoddiy merosga ega, bu esa bugungi va kelajak avlodning barkamol bo'lishi hamda shaxs ma'naviyatining yuksalishiga ulkan hissasini qo'shmoqda. Mana shunday beqiyos meroslarimizdan biri bu o'zbek kurashidir. Bu san'at turi insonni ham jismonan, ham ma'nan kamolga yetkazadi. Kurashda polvon deya dong'i ketgan o'g'lonlarni xalq suyadi, ardoqlaydi. Bugun adabiyotimizda mana shunday xalq suygan, ardoqlagan polvonlarning xarakter darajasiga ko'tarilayotganligi adabiyot ixlosmandlari uchun ham quvonarli, albatta. Ilk bor Katta Farg'ona kanali qurilishida nom chiqargan polvonlarni sevimli adibimiz Said Ahmad "Qirq besh kun" romaniga bosh qahramon sifatida kiritishi, bundan so'ng esa Bo'ri

polvon hayotiga bag'ishlangan To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi nasrimizda polvon obrazini shakllanishi uchun poyqadam bo'ldi. "Qirq besh kun" romanidagi Azizxon, Esh polvon, Do'nan polvon va boshqa polvonlar timsoli o'quvchiga folklordagi afsonaviy pahlavonlarni eslatadi, o'zbek polvonlarining urush yillaridagi jasoratlari o'quvchini ham hayratga, ham shavqqa to'ldiradi, bundan tashqari vodiy odamlarining samimiy hayotidan hikoya qiluvchi ushbu asar yaratilgan davridayoq katta shuhrat qozonib, kitobxonlar e'tirofini olgan. Yilning eng yaxshi qissasi nomiga sazovor bo'lgan "Yulduzlar mangu yonadi" asari esa taqdir sinovlariga mardonovor dosh berib, butun umr o'ziga halollikni kasb qilgan Bo'ri polvon kechmishidan hikoya qiladi. Bo'ri polvon – yonimizda umr guzaronlik qilayotgan oddiy inson obrazi. Qissada qahramonning ichki kechinmalariga, o'ylariga keng o'rin beriladi. Polvonlarning kurash maydonidagi harakatlari juda jonli tarzda tasvirlanadi, kitobxon o'zini bevosita kurash maydonidagi tomoshabindek his qiladi, shu bilan bir qatorda Surhon vohasining o'ziga xos urf-odatlarini, turmush-tarzi bilan tanishadi. Nasrimizda bu ikki asar ham o'ziga yarasha mashhurlikka erishdi, hamda polvon obrazi kitobxonning sevimli qahramonlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida esa, ushbu obraz yana ko'plab ijodkorlarning qissa va hikoyalari qalamga olinib boshlandi. Bular orasida Abdulla Ayizovning "Polvon yig'lagan tun", Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan", Nurilla Chorining "Bo'ron tingan kecha" qissa va hikoyalari shular jumlasidandir. Yaratilish davri jihatidan uncha katta farq qilmaydigan ushbu asarlarning badiiyatida ham turli xil o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin. Avvalo, birinchi o'xshashlik bu – polvonlar shaxsiyatini ochishga qaratilganligidir. Bundan tashqari, bu asarlarda muallif tilidan hikoya qilish usuli yetakchilik qiladi, "Polvon yig'lagan tun" qissasi va "Bo'ron tingan kecha" hikoyalari asar problemi yakka shaxslar taqdiri ustiga qo'yilsa, "Quyosh hali botmagan" qissasida ko'plab qahramonlar taqdiridagi chigalliklar orqali jamiyat qaridagi muammolar qalamga olinadi, qahramonlar orasidagi ziddiyat jamiyat uchun daxldorlik kasb etadi, ijtimoiy munosabatlar badiiy talqin qilinadi. Ayni chog'da, bu uch

orqali u bayonchilikdan qochib, tasvir mahoratini namoyish etadi.

Xalq dostonlarida ayrim holatlarda polvonlar o'z kuchiga ortiqcha baho berib manmanlikka yo'l qo'yadilar. Bu esa oxir-oqibat qahramonlarning davradan bosh egib chiqib ketishlariga sabab bo'ladi. Bu o'rinda "Alpomish" dostonidagi Ko'kaldoshning qismati kitobxonga tanish: *"Ko'kaldosh alp turib aytdi: - O'zbek! sen bunday bo'yniyo g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma, hali ham qo'ygin, yoringdan umid qilma, halak bo'lib kelgan yo'lingdan qolma, shu alplar o'lsa, o'lsin, o'zbekning qizi bechatoq bo'lib yolg'iz o'zimga qolsin deb turib edim, seni ilgaridan ham hisob qilganim yo'q edi., Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi, Chirpib Ko'kaldoshni ko'kka otadi, Ancha yer havoga chiqib ketadi. Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi, Olchi-chikka bo'lib shunday aylanib, Alp Ko'kaldosh bu osmondan keladi, Kallasiman kelib yerga uradi, Shunday bo'lib Ko'kaldosh ham o'ladi".* (Alpomish.134-bet). Dostondagi manmanlikka berilgan alp qismatining o'ziga xos ta'sirini "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi qahramoni Bo'ri polvonning sahnadan bosh egib chiqib ketish lavhasida ko'rishimiz mumkin: *"Bo'ri polvon yosh polvonga mensimay qaradi. "Yosh-bolaku! o'ylab ish qilyaptimi? Yo, kayfi bormi?" Bir yosh bola uning shonshavkatini nazarga ilmay qurga yugurib chiqishi Bo'ri polvonning izzatnafsiga tegdi. U darg'azab bo'lib davraga kirdi. Bosh bakovul oldiga g'oz yurish qilib jo'nadi. Davra odati bo'yicha bosh bakovul ro'parasiga - unga talab qilgan yosh polvonning qabatiga borib o'tirishi kerak. Biroq davraning o'rtasiga borib cho'k tushdi. Bo'ri polvon bu harakati bilan o'zining anavi yosh bola minan yonma-yon o'tirishga or qilishini bildirdi. Yosh polvonga ko'rpanga qarab oyoq uzatsang-chi, degan qarash qildi. Ularga g'unajin, yana bir qancha mayda zotlar qo'yildi. Bo'ri polvon Ismoilni ko'zga ilmay davra aylandi. "Tayyor osh-ku", - o'zidan ketdi Bo'ri polvon. Oqibat... Polvon nomini olgandan buyon birinchi marta yag'rini yer ko'rdi. Qanday yiqilganini o'ziyam bilmaydi. Ko'zlarini ochsa, osmonda yulduzlar ko'p ekan..."⁹* Bunday o'rinlardagi uyg'unlik adabiyotining didaktik funksiyasidan

⁹ Мурод Т. Юлдузлар мангу ёнади. -Т: Фафур Фулом номидagi Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 51-Б.

kelib chiqqan holda yuzaga chiqadi. Va o'quvchiga ibrat berishni bosh maqsad qilib oladi.

Kuzatishimiz mumkinki, xalq dostonlarining ko'pchiligida qahramonlar o'rtasida bahs, sinov motivi yetakchilik qiladi va bu dostonning voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Odatda, yozma adabiyotda kurashga tushayotgan polvonlar uchun sovrin tariqasida zot qo'yiladi. Xalq dostonlarida esa pahlavonlar o'zi yori uchun bellashayotgan raqiblardir. Misol uchun, "Alpomish" dostonida ham Hakimbek yori Barchin uchun barcha qalmoq alplariga qarshi kurashga otlangan bahodir. Yozma adabiyotda esa garovga ayol kishini qo'yib bahslashish sahnasini Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasida mahorat bilan ochib berilgan bo'lib, bu asarning kulminatsion nuqtasiga to'g'ri kelgan: *"- Soat, - dedi do'stim hanuz tovushi temirday jaranglab, - to'yimning kurashini qizitib berasizlar degandi domilla, esingdami? Indin to'y, kechki payt kurash. Kel, ikkovimiz masalani boshqacha hal qilamiz. - Qanday? - Ota-bobolarimiz an'anasi bo'yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G'olib Tanzilaga egalik qiladi. Ham domillaning to'yi qiziydi. Qalay? Bu gapga ko'narsan endi, a?"*¹⁰ Gap ayollar mavzusiga qadalganda, ayol polvonlar haqida so'z yuritmasdan aslo iloji yo'q. Kitobxonga ma'lumki, "Alpomish" dostonida Barchinning kurash tusha olishiga ishora bor. Bu uning kurash tushayotgan Alpomishga aytgan so'zlaridan ayon bo'ladi: *"O'n ming uyli Qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab, bir so'z deb turgan ekan: Ochilar bahorda bog'larning guli, Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbuli, Narmoda bo'libsiz biy bobom uli, Yiqolmasang bizga bering navbatdi, Juda keldi Barchin yoring g'ayrati, Ushlagandan ko'kka otmay ne bo'пти? Yiqolmasang, to'ram, navbat tilayin, Erkak libosini o'zim kiyayin, Bor kuchimni bilagimga jiyayin, Bu qalmoqni pora-pora qilayin"*(Alpomish.133-bet). O'zbek xalqi qahramonlar yurti, bahodirlar zamini va o'zbek ayollari ham mardonalikda ulardan aslo qolishmagan. Said Ahmadning yana bir mashhur asari "Jimjitlik" romanida ana shunday mardonavor ayol taqdiri qalamga olinadi: *"Urgutdagi kurashda*

¹⁰ Буриқхон Л. Қуёш ҳали ботмаган // Ёшлик, 2015. 1-2 сон. 13-Б.

Panjakentdan kelgan bir ayol polvon davraga chiqib marding bo'lsa o'rtaga chiq, dedi. U nihoyatda kelishgan, chiroyli, o'ttiz besh yoshlardagi juvon edi. Shu bilan kurash tushay, yiqilsam ham armonim yo`q, deganlar ko`payib qoldi. Juvon qandoqki polvon o'rtaga tushsa, ikki davra aylanganda yelkasini yerga bosaverdi. Jizzaxlik, yakkabog`lik, shahrisabzlik polvonlar birin-ketin yiqilaverdi".¹¹ Milliy an'analarimiz, ulug`vor qadriyatlarimiz haqida hikoya qiluvchi ushbu asarlarda kurash va uning qahramonlari bo`lmish polvonlar, ularning o`ziga xos hayot yo`llari haqida hikoya qilinadi. Bu asarlarning tub zamirida esa xalq og`zaki ijodining ta`siri yaqqol sezilib turadi. Demak, og`zaki va yozma adabiyot doimo aloqada, o`zaro ta`sirda hayot kechiradi. Folklorning badiiy adabiyotga ta`siri ijodkorning o`zi mansub bo`lgan xalqning badiiy tafakkuri va milliy dunyoqarashidan kelib chiqadi.

¹¹ Ahmad S. Jimjitlik. – T: O'zbekiston, 2007-yil. 228 –B.

I bob yuzasidan xulosalar

Komil inson shaxsini tarbiyalash barcha zamonlarda adabiyotning bosh maqsadi bo'lib kelgan. Buning uchun esa komillik tushunchasini ijodkor to'la anglay olishi va o'sha anglangan narsa uchun mos tushuvchi hayot hodisasini topa olishi zarur. Fikrimizcha, o'zbek polvonlarining hayot yo'li va ma'naviy dunyosi ana shunday komillik timsoliga aylana oladigan hodisalardandir. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodining boy namunalari ham ma'naviy komillikning timsolidir. Yuqorida biz tahlilga tortgan asarlarda ham yozma adabiyot va folklorning o'zaro munosabatini va bu munosabat komil inson shaxsini tarbiyalashga xizmat qilishini kuzatishimiz mumkin. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelamiz:

- Polvon obrazi xalq og'zaki ijodi bag'rida yuzaga keldi va "Alpomish" dostonidagi Hakimbek va boshqa alplar ilk o'zbek polvonlaridir;

- Zamonaviy o'zbek nasrida yaratilayotgan polvon obrazining xarakter xususiyatlari shakllanishida bevosita xalq dostonlari qahramonlarining xususiyatlarini kuzatamiz;

- Xalq og'zaki ijodining boshqa namunalari, xalq qo'shiqlari, turli o'yinlar, ertak va naqlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, mentalitetini namoyon etadi va bu polvon obrazini yaratishda ijodkor uchun qulay vositadir;

- Polvon obrazi zamonaviy o'zbek nasrida rivojlanib, ayni paytda folklor an'alaridan suv ichuvchi, o'zida komillik belgilarini namoyon qiluvchi inson obrazidir.

II BOB. POLVON OBRAZI TALQINIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR NAMOYISHI

2.1. Polvonlarning ma'naviy-axloqiy prinsiplari

Adabiyot o'zining didaktik funksiyasidan kelib chiqqan holda, o'z oldiga komil inson shaxsini tarbiyalashni maqsad qilib oladi. Zero, insonning ma'naviy qiyofasining shakllanishida adabiyotning o'rnini beqiyosdir. Ma'naviy buzilishlar jamiyat tanazzuliga sababchi bo'lishi barchamizga ayon. Haqiqiy ijodkor esa o'zi mansub bo'lgan jamiyatning muammolariga ko'z yumib keta olmaydi. Uning dardi bilan yashaydi, ravnaqi uchun jon kuyiktiradi. Ijodkor o'z ijod mahsulida hayolidagi ideal obrazini jonlantirar ekan, u orqali o'y-kechinmalarini bayon etadi. Orzu va armonlari shu obrazda tilga kiradi. Biz so'z yuritayotgan asar qahramonlari haqida ham ushbu gaplar o'rinlidir. Bo'ri polvon, Normurod polvon, Azizxon, Ali polvon, Norsoat, Davron va boshqa obrazlar kitobxonda asl o'zbek polvonlarining qiyofasini gavdalantiradi, ularning ma'naviy dunyosini ochib beradi. Keling, fikrimiz isboti tariqasida To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi polvonlar hayotiga yuzlanaylik.

O'zbek xalqida qadimdan yoshi ulug'larga nisbatan kuchli hurmat saqlanadi. "Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat" – deb bekorga aytilmagan. Qissada ham biz bevosita ushbu qadriyatining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. Asarda yoshi ancha o'tib qolgan Normurod polvonning o'z qishlog'i shani uchun yonib-kuyish manzarasi juda ta'sirchan ochib beriladi, shu bilan birgalikda, atrofdagilarning uning yoshiga bo'lgan hurmati esa kitobxon nigohida kontrast tasvirlar hosil qiladi, bu esa asarning jonliligini ta'minlaydi: *"Bo'ri polvon yalt etib sho'rchiliklar to'dasiga qaradi. So'ng Amir polvonga: - Unday bo'lsa, boshqasini chiqar! – dedi. Amir polvon: - E, polvon bova, master sportga teng kep bo'ladimi? Bo'ri polvonning ich-ichidan zil ketdi. Mehmonlar oldida izza bo'ldi. Xivich uchi bilan chiroqda yiltirayotgan somonlarni titkiladi. Shunda, davraga yoshi o'tib qolgan Normurod*

polvon chiqib keldi. U duch kelgan odamning ro`parasiga cho`kib, qo`llarini orqaga tiradi. Orqasiga chalqayib, oyog`ini uzatdi: - Mahsini tort! Tort mahsini! Torta bermagach, Normurod polvonning o`zi mahsilarini tortib-tortib sug`urdi-da, paytavalari chuvalatib odamlar ustiga otib yubordi. Sapchib turib, o`z polvonlariga qahr bilan qo`lini shop qildi: - Chiqmaysanmi-a, chiqmaysanmi? Elga eshittirib ayt, chiqmayman, de! Qo`lingni ko`tarib ayt! Unda, mana men chiqaman!"¹². Normurod polvonning umri davralarda o`tgan. U butun hayoti davomida kurash maydonlarida yurtining ori uchun kurashdi. Endi yoshi bir joyga borib qolganda, xalqi orasidan shan, or uchun kurashadigan biror polvon davraga chiqa olmayapti, polvon xalqi uchun bu juda og`ir holat. Chunki bu polvonning bir umrlik mehnati yo`qqa chiqqanini bildiradi. Yosh polvonlarga ustozlik qila olmagan uchun o`kintiradi. Sho`rchiliklarning Normurod polvonning hurmatidan Maksim polvonni davraga qo`ya olmasligi, xalqimizning barhayot an`analaridan darak bersa, xo`jasaotlik yosh polvonlarning loqaydliklari ma`naviy qadriyatlarining yo`qalib, beparvolik, nopisandlik avj olib borayotganligini ko`rsatadi. Polvon xalqida or-nomus tushunchalari juda ham baland bo`ladi. Ular sharmandalikdan ko`ra o`limni afzal ko`radilar: "Normurod polvon davra aylana berdi: - Bizda polvon yo`q, bo`lsa chiqardi! Bo`ri polvon uni to`xtatdi: - Polvon, ko`tarilma, e! Ko`p ko`tarilma! Normurod povon uning qo`lidan yulqinib chiqib, yana qur aylandi: - E, master sport tugul dev bo`lsayam chiqaman! Bo`ri polvon uning tirsagidan mahkam ushlab, qurdan yetaklab chiqdi. Normurod polvon yana davraga talpindi: - Normurod polvonning ko`zi ochiq bo`p turib, uning eli yerga qaraydimi? Ushlamang meni, polvon bova, ushlamang! E, yerga kirgizib yuborsayam chiqaman!"(44-bet). O`zbek polvonlariga xos bo`lgan xususiyatlardan yana biri bu soddalik, oqko`ngillilikdir. Ular o`z xalqi qadriyatlariga sodiq inson sifatida gavdalantiriladi. Bu holat Bo`ri polvonning harakatlarida, o`zini tutishida, gap-so`zlarida yorqin ifodasini topgan: "Ay, Maksim, sen

¹² Мурод Т. Юлдузлар мангу ёнади. –Т: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 43-Б. Кейинги ўрунларда ушбу манбадан олинган кўчирмалар кавс ичида бериллади.

Bo`ri polvon minan o`ralashma! Qaytarib aytaman, o`rlashma! O`sha samboyingdayam yengli jelek kiyib olishadi. Bo`ri polvonni bilmaydi dema! Bo`ri polvon... U o`z davrida turli musobaqalarda qatnashib kuboklar olgan. Kubokni birinchi ko`rganda u yoq-bu yog`iga qarab: "Samovar. Yaxshi bo`ldi, choy qaynatib ichamiz", deb o`ylagan edi. Uyiga kelib, so`rab-surishtirdi. Bilganlar, yo`q, bu samovar emas, deyishdi. Shu-shu, u kubok nomini yaxshi aytolmay, qola bersa eslab qololmay, samovar deb aytadigan bo`ldi"(46-bet). Ko`rinib turibdiki, Bo`ri polvon shunday sodda va tanti inson. U bir nutqida shunday deydi: "Azaldan polvon xalqida sal... kamroq bo`ladi degan gap bor. Yo`q, polvonlarda kam emas. Ularning vujudida hovur bor. Polvon - qoni tez odam. Polvon ko`pkariga boqilayotgan ot kabi asov bo`ladi"(38-bet). Ma`lumki, ijodkor aytmoqchi bo`lgan gap qahramon nutqi yoki uning ichki o`y-fikrlari orqali beriladi. Adibimiz ham bu o`rinlarda Surxon polvonlarining o`ziga xos fazilatlarini, ichki dunyosini ochib berishga harakat qiladi: "Vodiyliklar olishni kurash der ekanlar. Ular ham o`z kurashlarini namoyish qildi: ikki polvon bir-birining belidan qo`llarini o`tkazib ushlab, suyashib yura berdi. Bu orada voha polvonlaridan birining oyog`i osmondan kelib yerga tushdi, biri raqibini yelkadan oshirib otdi. Davra gursillab, hayqirib turdi. Bo`ri polvon vodiyliklarga qarasa, ular haliyam suyashib yurishibdi! U esnasi qotib, yelkasini qisdi. Ularga e`tibor bermay qo`ydi. "O`zi ular muloyim xalq-da, - dedi Bo`ri polvon o`zicha. Choy ho`pladi. – Juda muloyim. Kurashlari ham o`z tabitidan kep chiqqan. Mana, biz o`lguday qo`pol xalqmiz. Kurashimizdagi mardonalik, botirlik ham shundan. Ha, mayli. Xalq turli-tuman bo`lgani yaxshi. Bu – ulkanlik, ulug`lik alomati. Mana, farg`onacha kurash. Uyam o`zimizniki. Demak, ikkita kurashimiz bor ekan. Qanday yaxshi! Boylik!"(48-bet). Ko`rib turganingizdek, muallif Bo`ri polvonning qanday inson ekanligi uning o`y-mulohazalari, fikrlari orqali berib bormoqda, qissada Bo`ri polvonning portreti yaratilmasa-da, kitobxon o`z tasavvurida Bo`ri polvon siymosini yarata oladi. Muallif boshqa qahramonlar tasvirini yaratishda ham bu usuldan unumli foydalangan.

Qissada chin insoniy qadriyatlar ulug`lanadi, shu bilan birgalikda

insonning ma'naviy dunyosini kemiruvchi illatlar ham qalamga olinadiki, bu "yozuvchi dardi" bilan bog'liq, albatta: "Kolxoz raisi bir nechta polvonni olib, qo'shni Tojikistonning Regar rayoniga to'yga jo'nadi. Bo'ri polvonga odam yubordi. U, bora olmayman, mazam yo'q, dedi. Aslida bormasligining boisi boshqa yoqda – u raisni yomon ko'rardi. Mish-mishlarga qaraganda raisning oyog'i buzuq edi..., Bo'ri polvon shularni eshitib, rais bilan u yoq-buyoqqa bormas, undan hazar qilardi: "Nas bosgan odam bilan yurib bo'ladingiz! Yo'lda biror falokat bo'ladi-da, juvonnarg bo'p ketamiz"(35-bet). Islom dunyosida poklik insoniylikning birinchi sharti hisoblanadi. Tilini, dilini, qo'yingki, butun jism-u jonini pok saqlamoq bu – musulmonlik farzidir. Bo'ri polvon timsolida biz ana shunday pok, harom va halolni ajratib ish qiladigan shaxsni ko'ramiz. U ota-bobolarining merosiga sodiq, o'ziga poklikni, halollikni shior qilgan: "Otaginam, men hamisha sizning nasihatlaringizga amal qilib keldim. Siz aytar edingiz: polvon o'zini uch balodan asrasin, eng birinchisi – ayolbozlik! Otaginam, yoshim o'ttizga yetibdiki, oyog'inni qiyshiq bosmadim, harom-harish yo'llarga yurmadim. Hali uylanmadim ham. Ikkinchisi – ichkilikbozlik, derdingiz. Otaginam, men haligacha og'zinga aroq olmadim. Undan hazar qilaman. Uchinchisi – polvon o'zini nafs balosidan asrasin, deguvchi edingiz. Otaginam, men mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o'zimni hamisha saqladim"(58-bet). Yozuvchi bu "maslahat"ni faqatgina polvonlar shaxsi uchun emas, balki butun insoniyatga qarata aytadi. Bo'ri polvon timsoli kitobxon uchun o'rnak, namuna maktabiga aylanadi. Muallifning maqsadi ham shunda, undan odamlar o'rnak olsin, qanday yashashni o'rgansin. Bo'ri polvon polvonlik shartlariga to'la amal qilardi hamda har er kishini polvon deb chaqirardi va polvonlardek ish tutishini xohlard edi: "Erkakning sultoni olishadi, ha! Ana, Xidir polvon, kezi kelganda davrani gursillatib olishib keta beradi. Men raisman deb o'tirmaydi. Bo'lmasa kimsan – Botirov-a! arbob, ha, arbob! Ana uni chin erkak desa bo'ladi. Chunki, ota-bobosining hunarini yerda qoldirmayapti! Bordi-yu odamlar e'tiroz bildirsalar, Bo'ri polvon odatdagiday gapni cho'rt kesadi: - E, nima desang, de, bari bir o'yinni bilmagan ayolni – ayol, davrada olishmagan

erkakni – erkak demayman. U beshikdagi chaqaloqdan tortib nuroniy cholgacha – hamma-hammaning ismiga polvon soʻzini qoʻshib aytadi. Oʻsha odam kurashganmi-yoʻqmi, bari bir – ayta beradi. Aytgandayam ogʻzini toʻldirib, gʻurur bilan aytadi!”(49-bet). Boʻri polvonning hayot tarzi shunday. U oʻzi kabi polvonlarni qadrlaydi, har bir goʻdakni otabobosining merosini davom ettiradigan buyuk polvon boʻlib yetishishini istaydi. Biroq barchaga ayon haqiqat, inson xatolari va bu xatolardan chiqargan xulosalari bilan oʻzilikka erishadi. Qissada ham bu azal qonunining yorqin ifodalarini uchratamiz. Boʻri polvon ham umrida kibrga berilib xato qildi: “Sariosiyodagi oʻsha davrada Boʻri polvonga teng topilishi qiyin boʻldi. Davra egalari talvasada qoldi. Bordi-yu Boʻri polvonga talabgor chiqmay, davra shunday tugasa, sariosiyoliklar denovliklardan qoyil boʻldi degan soʻz. oʻz uyida qoyil boʻlish – magʻlub boʻlishdan ham yomon! Shunda, davraga yoshgina bir yigit chiqib, Boʻri polvonga talabgor boʻldi. Davra egalari shundagina yengil nafas oldi. Boʻri polvon yosh polvonga mensimay qaradi. “Yosh bolaku! Oʻylab ish qilyaptimi? Yo, kayfi bormi?” Bir yosh bola uning shonshavkatini nazarga ilmay qurga yugurib chiqishi Boʻri polvonning izzatnafsigaga tegdi..., Boʻri polvon bu harakati bilan anavi yosh bola minan yonma-yon oʻtirishga or qilishini bildirdi. Yosh polvonga, koʻrpangga qarab oyogʻ uzatsang-chi, degan qarash qildi. Ularga gʻunajin, yana bir qancha mayda zoilar qoʻyildi. Boʻri polvon Ismoilni koʻzga ilmay davra aylandi. “Tayyor osh-ku”, - oʻzidan ketdi Boʻri polvon. Oqibat... Polvon nomini olgandan buyon birinchi marta yagʻrini yer koʻrdi. Qanday yiqilganini oʻziyam bilmaydi. Koʻzlarini ochsa, osmonda yulduzlar koʻp ekan...U boshini quyi egib, davradan chiqib ketdi”(51-bet). Kibr-u havo insonni boshini egadigan eng yomon illatdir. Adabiyotimizda buning isboti va bunday lavhalar juda koʻplab uchraydi. Masalan, Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida oʻz chiroyiga ishongan Yusuf kibrga beriladi, natijada uni bir dirhamga sotib olishadi va shoh saroyida qullikka yoʻllanadi, yoki boʻlmasa, “Xon Dalli” dostonida har kuni minglab askarga bas kelayotgan Hasanxon oʻz kuchidan faxr tuyib, kibrlangani tufayli tanasiga oʻq tegib kulfatga duchor boʻladi. Bu kabi ibratlarni adabiyot sarchashmasida yana koʻplab uchratishimiz mumkin:

“Bo`ri polvon o`zidan bo`lak zo`r chiqishini hayoliga keltirmagan, zo`r faqat hitta – u men, o`zimman, deb yurardi. To`g`risi... o`zidan bo`lak zo`r chiqishini xohlamagan edi! Yo`q, Bo`ri polvon xohlaganduy bo`lmadi! Vaqt! Shavqatsiz vaqt har davrning o`z zo`rlarini yaratdi. Inson buni xohlaydimi – yo`qmi, vaqt o`zining yangi zo`rini yaratibdi. Ana, u, ana, davrada o`z mavqei, shon-shuhratini talab qilyapti!”(57-bet). Polvon tilidan azal haqiqatlari so`zlanmoqda. Biroq Bo`ri polvondek inson davralardan mag`lub bo`lib chiqib ketishi mumkin emas. Agar shunday bo`lsa, Bo`ri polvon timsoli ideallashuviga putur yetadi. Qahramon hayotiga befarq bo`lmagan adib ham, kitobxon ham buni istamaydi, albatta: *“Yo, otam!.. Ismoil uning to`g`onoq oyog`i ustidan oshib, davra o`rtasiga chalqancha tushdi! Hay-hay-hay! Yoshlik – yoshligini, ko`pni ko`rganlik – ko`pni ko`rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi! Bo`ri polvon qo`llarini ko`targanicha davradan chopib chiqib, hamrohini bag`riga bosdi. Shivirlab: - Ko`rdingmi meni? Ko`rib qo`y! – deya hamrohini quchoqlab-quchoqlab o`pdi. Kulayotgan yanoqlaridan munchoq-munchoq yoshlar oqdi”*(62-bet). Kurashda zafar osonlikcha qo`lga kiritilmaydi. Unga yetishish uchun odamdan katta mehnat va sabr-bardosh talab etiladi. Ammo buning uchun har kimda ham kuch topilavermaydi. Buning uchun qat`iyat kerak bo`ladi. Bo`ri polvon ana shunday qat`iyat sohibi etib tasvirlanadi. Yillar o`tsa-da, u qalbidagi bolalik hislariga sodiq yashadi, do`stining xiyonatini kechira olmagan bo`lsa-da, uni qumsab o`tdi: *“Bo`ri polvon uning barmoqlariga tikilib, ko`ngli yumshab ketdi. Ruhiyatida iliqlik, rahmdillik uyg`ondi. Nasim polvonni bag`riga bosgisi, uning soqollarini peshonasiga suykagisi keldi. Bir qadam bosib to`xtadi. “Yo`q, aslo, aslo! Men Bo`ri polvon bo`p tug`ilgan edim, dunyodan Bo`ri polvon bo`p o`taman!”*(87-bet).

Qissani o`qish davomida kitobxon yana ko`plab polvonlarning ichki ma`naviy olami, dunyoqarashi bilan tanishadi. Natijada o`zbek polvonlarining ma`naviy dunyosiga sayohat qiladi. Muallif badiiy niyati rivojida yana boshqa ko`plab polvonlar ma`naviyatiga to`xtalib o`tadi. Bu bilan o`quvchi surhon polvonlarining ruhiyatiga, dunyosiga yaqinlashadi: *“Bo`ri polvonning yoniga bir polvon gursillab tushdi.*

Temir polvon Berdi polvonni itchilga olib yiqtdi. Berdi polvonning origa o`rta yoshlardagi bir polvon chiqdi. Temir talabgorlarning yuziga qarab, o`ziga-o`zi fotiha o`qidi-da, davradan chiqib ketdi. Davra hayron. Bo`ri polvon borib gaplashib keldi. Yuzlarida tabassum o`ynab, davraga yuz soldi. Ovozi to`la faxr, g`urur edi: - Xaloyiq, men Temir polvon minan gapirishdim, ha! Ukkag`ar, qoyilman deyapti. Nimaga deysizmi? Manavi talabgor Chori polvon vaqtida Temir polvonga boshqosh bo`p to`ylarga olib brogan, o`zining hunarlaridan ungayam o`rgatgan ekan. Shunga, Temir polvon aytyaptiki, u kishi menga ustoz bo`ladilar, men ustozimning yoqasidan ushlayman, deyapti. Siz nima deysiz, xaloyiq!”(72-bet). Xalqimizda “Ustoz otangdan ulug`” – degan maqol bor. Qissada Temir polvonning o`z ustoziga bo`lgan hurmatida bu maqolning isbotini ko`ramiz: “– Otasiga rahmat o`sha polvonning! – Asl polvon ekan! – Bunday farzandlarning umri uzoq bo`lsin! – Tuf-tuf-tuf, ko`z tegmasin-e, asl o`zimizga tortibdi! Bo`ri polvon o`girilib, oxirgi gapni aytgan odam kim ekanini bilolmadi. “Balli! Bizning aslimiz shunday edi! – u hayolan o`sha odam bilan gaplashdi. – Inchunun, o`zining asliga tortmagan, uni unutan odam – odam ham emas!”(72-bet). Ha, Surxon polvonlari ana shunday, o`zlariga asllikni shior qilgan. Asliga tortgan – mard, jasur o`g`lonlar. Ular halollikni, mardlikni, or va nomus butunligini hayotiy prinsip darajasiga ko`targan insonlardir. Xalqimiz ular bilan har qancha faxrlansa, arziydi. Chunki ular o`zbekning eng oldi farzandlaridir.

Yuqorida voaha polvonlarining boy ma`naviy olami bilan tanishdik, ularga mahliyo bo`ldik, qoyil qoldik. Shuni aytib o`tishimiz joizki, vodiy polvonlari ham mardlik, jasurlik, dovyuraklikda voaha polvonlarida aslo ortda emas. Tahlilimiz doirasida boo`lgan yana bir asar “Qirq besh kun” romani qahramonlari bo`lmish vodiy polvonlari: Azizxon, Ali polvon, Esh polvon, Jo`ra polvonlar timsolida ham biz ma`naviyati yetuk timsollarni ko`ramiz, shu bilan birgalikda ular insoniy kamchiliklardan ham holi emas. Muallif bu obrazlarni yaratishda romantizm prinsiplaridan keng foydalangan. O`zi osmonlarga ko`targan, kuchqudratning timsoliga aylantirgan Azizxonning ma`naviy qiyofasini yoritishga keng o`rin beradi. Kitobxonga ma`lumki, Azizxon yerga ursa,

ko'kka sapchiydigan, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan, qoniqaynoq bir o'spirin yigit, uning kanal qurilishida qilgan qahramonliklari kitobxonni lol qoldirgan. Azizxon obrazi qalbida ilk muhabbat alangasi otash olayotgan oshiq qiyofasida asarga kirib keladi. Ammo biz roman yakunigacha Azizxonda xarakter rivojini kuzatamiz. Voqealar rivoji davomida sho'x, orqa-ketini o'ylamaydigan bolaning mehnat, odamlar orasida ideallashuviga guvoh bo'lamiz. Bunga kanal qurilishidagi mehnat hamda muhabbat sabab qilib keltiriladiki, bu, albatta, o'quvchi uchun ishonarli detalga aylanadi. Azizxon ota-onasining yakka-yu yolg'iz farzandi, ammo undan butun mahalla ko'ynorozi, sho'xliklaridan joni fig'onda. Shunday bo'lsa-da, Azizxon obrazida ota-onaga hurmatning go'zal namunasini ko'ramiz: *"Azizxon dadasiga betma-bet kelolmasdi. Har qanday to'polon qilmasin, har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko'ziga qarasa, shashtidan qaytar, churq etib og'iz ochmasdi"*¹³. Ota dunyodagi ulug'larning ulug'i sanaladi. Xalqimizda ota o'tirgan uyning tomiga chiqma, deb bekorga aytilmagan. Azizxon qancha sho'xlik qilmasin bunday sharqona odobdan holi inson emas. Uning qalbida vataniga, tug'ilib o'sgan tuprog'iga muhabbat jo'sh urib turadi. Uning bu harakatlarini kuzatgan o'quvchi qani endi yurtimning har bir o'g'loni yurtini shunday sevsa, uning nomini har qayda shunday saqlasa deydi. *"Yusupovning keyingi gaplari uning hamiyatiga tekkandek bo'ldi. Nahotki Farg'onadan bironta polvon bo'lmasa?! Farg'ona polvonlari hali kurashlarda yelkasini yerga tegizmay sovrin olib kelgan bo'lsa-yu, mana shunday ulug' ma'arakada chetda qolib ketsa! Yusupov gapini tugatishi bilan Azizxon o'rnidan turdi. – Mumkinmi? Nega farg'onalik polvonlardan birontasi brigada boshlig'i bo'lmadi? Shuni tushuntirib bersangiz. .. Oldingi qatorda o'tirga miqti Esh polvon piching qildi: - Uka, Farg'ona polvonlari sal mundoqroq bo'ladi. Uyiga yaqinroq joyda ishlamasa, xotinini sog'inib qoladi. Bu gap Azizxonning jon-jonidan o'tib ketdi. Sharrt burildi-yu alohida kursidataltayib bir o'zi o'tirgan Esh polvonning tepasiga keldi. – Yana bir marta ayting shu gapingizni, Polvon aka. Esh polvon uni*

¹³ Ahmad S. Ufq. – T: Sano-standart. 2016 – yil. 15-B. Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan ko'chinnalar qavs ichida beriladi.

pisand qilmay, o'taver, o'taver, deb masxarali iljaydi. Azizxon titrab ketdi. Yaktagina yengini ham shimarmay uni kursi bilan qo'shib shart ko'tardi. Pildiragancha davradan olib chiqib ketdi-yu, ko'cha o'rtasiga otdi. Kursi sindi, polvon tuproqqa qorishdi. Azizxon unga quramadi ham, qaytib kelib o'z o'rniga o'tirdi"(52-bet). Azizxon hamda Esh polvonning ilk to'qnashuvi mana shu yerdan boshlanadi. Keyingi o'rinlardagi voqea-hodisalar bu ikki polvonning ma'naviy qiyofasiga chizgilar chizadi. O'quvchi har ikki polvonda er kishining yuksak or-nomusini ko'radi. Ammo hayot adashishlarsiz bo'lmaganidek, bu polvonlarning ham or-nomus himoyasi yo'lidagi harakatlari xatolardan holi emas. Muallif qahramonlar hayotini tasvirlashda haqoniylik oqimidan chekinmaydi. Ularning yutuq va kamchiliklarini ro'yi-rost ko'rsatadi: *"- Qayerda ishlashni xohlaysan, bola? - Qayerni lozim topsangiz, o'shaqda ishlaganim bo'lsin. Ammo-lekin ishning eng og'irini bering. Farg'onaliklarning qanaqaligini birko'rsatib qo'ymoqchiman. Yo'ldosh ota Azizxonning yosh bolalarcha berayotgan javobidan zavqlanib turardi. Kelib yelkasiga qoqdi"*(53-bet). Azizxon samimiyligi, mehnatkashligi bilan barchaning mehrini qozonib borardi. Uning fe'l-atvori, dunyoqarashi sekin-sekin o'zgarib, borar. Bu esa haqiqiy polvon tarbiyasida katta ahamiyatga ega edi: *"Azizxonning yelkasiga birov qo'l tashladi. Azizxon o'girildi. Jo'ra polvon ekan. - Qoyil qilding, uka, - dedi iljanib, - Esh polvon lunjiga sho'r paxta bog'lab medpunktda o'tiripti. Hozir oldiga boramiz. Undan uzr so'ra. Har qalay sen yoshsan. Shundoq qil. Azizxon qishloqda shuncha sho'xlik qilib umrida biron marta uzr so'ramagan edi. Kelib-kelib endi mutlaqo notanish, uning ustiga yurtdoshlarini ermak qilgan kishidan uzr so'raydimi? Azizxon qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr so'rashga borolmasligini aytdi. - Unaqa qilma, bola. Polvon xalqi yengilgan raqibini belidan olib ko'tarib qo'yadi. Taomil shunaqa"*(54-bet). Yosh avlodning qanday voyaga yetishi, albatta, o'zidan oldingi insonlarning xulqi, ma'naviyatiga bog'liq bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, Azizxonning haqiqiy polvon bo'lib yetishishida Jo'ra polvonning ham ahamiyati katta. U haqiqiy polvon aslida qanday bo'lishi kerakligini Azizxonga tushintira oldi. Bu esa Azizxonda qilgan ishidan ilk bor

pushaymonlik hissining uygʻonishiga olib keldi. *“Medpunkt oldidagi skameykada lunji boylangan Esh polvon qaynoq koʻk echoy ichib oʻtirardi. U Azizxonga sovuq bir qaradi. Keyin piyolani yoniga qoʻyib oʻrnidan turdi. – Esh akang hali biron davrada bunaqa sharmanda boʻlmagan edi. Ammo qoyil qilding, uka. Esh polvon shunday deb tagiga bosib oʻtirgan yangi, hali ohori ketmagan toʻnini oldi-yu, bir siltab qoqib, Azizxonning yelkasiga tashladi. – Bu senga Esh akangdan esdalik. Yasha, omadingni bersin! Esh polvon boshqa gap ayimadi. Hech kimga hech nima demay toʻppa-toʻgʻri koʻprik tarafga qarab ketdi. – Endi qaytmaydi, - dedi kimdir, - yomon izza boʻldi. Shu ketgancha qishlogʻiga ketdi. Eshni bilmaysizlar, oriyatli polvon. Yiqilganim – oʻlganim deydiganlardan. Ketdi endi, bechora. Azizxonning yuragi jiz etib ketdi. Umrida birinchi marta qilgan ishiga pushaymon boʻldi. Ich-ichidan kuyindi. Ammo endi kech edi”*(54-bet). Oʻzbek polvonlarining naqadar oriyati baland ekanligini boshqa asarlarimiz doirasida ham koʻrib oʻtmoqdamiz. Esh polvon ham ana shundaylardan. Ammo u til erki tufayli, el orasida izza boʻldi. Shuncha yil yiqqan obroʻsi tuproqqa sovirildi. Bu esa ayni paytda Azizxonda ham qilgan ishidan pushaymon boʻlish hissini uygʻotdi. Adib inson ichki kechinmalarini, ayniqsa, polvonlar qalbining turli manzaralarini ishonarli tarzda chizib beradi. *“Ukajon, gaplarimni malol olmaysan. Oʻsha kungi voqeadan beri qishloqqa borolmay yuribman. Kanalga ham kelolmadim. Atayin qoshni qoraytirib, el koʻzidan yashirininb bemahalda oldingga keldim. Sen hali yoshsan, bilmaysan. Yigit kishining boshi egilguncha hoʻkizning boʻyni sinsin, deydilar. Mening boshimni sen egib qoʻyding. Esh akang, yelkasi yaqin orada yer iskamagan edi. Meni oʻldirding, bola. Esh polvonning koʻzlaridan duvva yosh oqib ketdi..., yelkasi yer koʻrmagan dongdor polvon hoʻng-hoʻng yigʻlab oʻtirsan, juda xunuk boʻlarkan. Azizxon shundoq magʻrur odamni bukib, dunyoni koʻziga qorongʻu qilib qoʻyganidan xijolat chekardi. Biron nima bilan koʻnglini koʻtarish qoʻlidan kelsaydi, u albatta ikkilanmay qilardi. Nima qilish kerak?”*(62-bet).Dunyoda pushaymondan yomon narsa yoʻq. Muallif Aziz polvon maʼnaviy kamoloti yoʻlida ana shunday vaziyatlarni birma bir chizib boradi:

"Azizxon yelkasiga qo`lini qo`yib achinib so`radi: - Nima qilsam bo`ladi, Polvon aka, nima qilsam ko`nglingiz joyiga tushadi? Polvon yoshli ko`zlarini unga qadadi. - Bitta yo`l bor. Jon uka, illo-billo yo`q demaysan. Seni hech kim tanimaydi. Taniganda ham ayb qilmaydi. Ertaga Urganjining maydonida Tamaraxonim kansitidan keyin Jo`ra polvon da`vochiligida kurash bo`ladi. Senga talabgor bo`lib chiqaman. Yiqilib berasan..., Azizxon o`ylanib qoldi. Esh polvonning ahvoli og`ir edi. Agar uning gapiga kirmasa, o`zini o`zi bir balo qilib qo`yishi hech gap emasdi. Avzoyi boshqacha. O`zini chavaqlashdan toymaydi. Azizxon polvonlarning tabiatini yaxshi biladi. Davradan boshini egib chiqib ketgan ko`p polvonlar yurtini tashlab begona ellarda sarson-sargardon yurganlarini biladi. Hatto o`zini osib qo`yganlar to`g`risida ko`p eshitgan. Azizxon sal shashtidan tushdi. - Bo`pti, - dedi u, bo`lar ish bo`ldi, degandek qo`l siltab. - Mayli. Siz aytganicha bo`lsin. Esh polvon ikki yelkasidan ushlab ko`ksiga bosdi. - Rahmat, o`g`il bola yigit ekansan. Davralardan besovrin qaytgulik qilmasin seni. Gap bitta, a? - O`g`il bolaning gapi bitta bo`ladi, - dedi qat`iy qilib Azizxon"(63-bet). Ha, polvonlarga davradan boshi egik chiqish bu o`lim bilan teng hodisa. Bu holatni faqat polvonning mardigina ko`tara oladi. O`quvchida Esh polvonning qilgan harakatidan "Esh polvon qanday polvon edi?" degan savol tug`ulishi tabiiy. Azizxondan yiqilib berishini so`rashi esa, unga nisbatan salbiy fikrlarni tug`diradi. Va bu holatni polvonchilikning xalq orasida ko`tarib yoradigan or-nomus masalasi bilan bog`lash mumkin. Esh polvon haqidagi fikrlar keyingi o`rinlarda ham uning harakatlari liniyasida ochib beriladi: "Bu gap konsert paytida ma`lum bo`lib qoldi. Ikki yigit uni imlab chetga, tut tagiga olib keldi. Qarasa ikkovi ham pichoq yalong`ochlab turipti. Azizxon zarracha ham cho`chimadi. Gapingni ayt, deb o`qraydi. - Esh polvonga yiqilib berasan. Agar yo`q desang, hozir tamom qilamiz. Azizxon kuldi. Bu kulgi yigitlarning hamiyatiga tegdi. - Yo`qmi? U epchillik bilan birining iyagiga musht tushirdi, ikkinchisining pichoq ushlagan qo`liga etigining uchi bilan tepdi. Pichoq uchib ketdi. Qo`rqadigan nomardni boshqa joydan izla. Borib polvoningga ayt, kechagi gap - gap"(64-bet). Xalqimizda "Qo`rqoq oldin musht ko`tarar" - degan naql bor. Bu gap bekorga

aytilmagan, albatta. Keyingi o'rinlardagi voqealar Esh polvon xarakteridagi salbiy jihatlarni ko'rsatishga qaratiladi. Aslini olib qaraganda maqsadimiz polvonlar ma'naviyatidan ijobiylik yoki salbiylikni izlash emas, balki polvonlarning ruhiy dunyosini o'rganishdir. Ammo ularning harakat va ichki kechinmalarini kuzatmasdan turib ularning ma'naviy dunyolariga yo'l topolmaymiz, albatta. Esh polvon obraziga bir oddiy inson sifatida qaralsa, undagi bu qusurlarlar tabiiydek, insonga xos bir illatdek tuyulishi mumkin, albatta. Muallif polvonlar xarakteridagi bu qusurli holatlarni tasvirlash orqali o'quvchini ularning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi, ularning g'ayrioddiy kuchga ega bo'lganligi barobarida, xalq orasida yashovchi oddiy bir inson ekanligini, o'ylari, kechinmalari siz-u biznikidan farq qilmasligini ko'rsatib berishga intiladi. Adib Azizxonni o'zga bir mehr bilan tasvirlashda davom etadi. Uni yengilmas bahodirlardek gavdalantiradi: *"Uning jussasi u qadar ko'zga tashlanmas, bir qarashda polvon ekanligi bilinmas edi. Polvonlar unga beparvogina qarab qo'yishdi. Esh polvon o'rnidan turishga chog'lanayotgan edi, da'vochilardan biri o'rtada o'tirgan miqti gavdali, qop-qora, ko'ksi ayollarnikiga o'xshagan o'rta yashar bir polvonni turg'izdi. U Azizxonni pisand qilmay iljayib qaradi. Uning bu qarashida, chaynamay yeb qo'yaman buni, nima qilasizlar yosh bolani uvol qilib, degan ma'no barq urib turardi..., Azizxon parvo qilmay bir intilib uni tizza bo'yi ko'tardi-yu, aylantirib o'tirmay davra o'rtasiga oborib oyog'ini yerga tegizmay turib bosdi. Qora polvonning ikki yelkasi yerga qadaldiqoldi"*(65-bet). Ishimiz doirasida ko'rib chiqqan manbalarimiz doirasida, kibr tuyg'usi polvon uchun eng xavfli narsa ekanligiga guvoh bo'ldik. Polvonlarning ustozlari ham doimo polvon kishi kibrdan saqlanishi kerakligini shart qilib qo'ygan. Raqibini pisanda qilmaslik polvonni oxir-oqibat kuragi yerga qadalishi uchun sabab bo'lib qoladi. Bir vaqtlar Bo'ri polvon ham xuddi shunday xatoga yo'l qo'yib yoshgina Ismoil polvondan yengilgan. Hamda o'zining bu qiligidan qattiq afsuslangan edi. Mana, Qora polvon ham raqibini yosh fahmlab xatoga yo'l qo'ydi, polvon shaxsi uchun bundan ortiq jazo yo'qdir. Uni kibri yiqitdi. Agar Azizxonga nisbatan hushyorlikni qo'ldan bermaganda

edi. hammasi boshqacha ham bo'lishi mumkin edi. Ammo muallif va kitobxon uchun Azizxonning yiqilishini tasavvur etish mushkul. Chunki ijodkor uni ideali doirasida yaratgan. Ideal qahramonlarning esa asar doirasida mag'lubiyatga uchrashi amri mahol holatdir.

Azizxonning samimiyati, oriyati kitobxonda unga nisbatan ichki bir mehri oshirib boradi. Uni faqatgina yengilmas bahodir deb emas, balki oddiy bir or-nomusi butun inson sifatida hurmat qila boshlaydi: *"Jo'ra polvon Azizxonni bilagidan ushlab davra aylantira boshladi. Odamlar unga pul uzata boshlashdi. Azizxon qip-qizarib ketdi. Umrida u bunaqa qilmagan edi. Jo'ra polvonning qo'lidan yulqinib chiqib joyiga o'tirmoqchi bo'ldi. Bir chol yo'lini to'sib chiqdi. – Jinni bo'lma, bolam. Bu kurashning taomili. Olmasang, xaloyiqni xafa qilasan. Azizxon uning gapiga quloq solmay joyiga borib o'tirib oldi. Ammo o'rtaga pul ko'tarib tushayotgan yigit-yalanglarni qaytarib bo'lmasdi. Jo'ra polvon bir chorsi pulni uning oldiga keltirib qo'ydi. – Bu ona sutidek halol. Azizxon uyatdan boshini egib qimirlamay turardi"*(65-bet). Insonlarda uyat hissi ularni yomon ishlardan saqlanishiga, vijdon deb atalmish tuyg'uning pok saqlanishiga omil bo'ladi. Azizxondagi yuqoridagi parchada ko'rgan holatimiz esa, yosh polvonning davradagi ilk taassurotlarini gavdalanitiradi. Muallifning o'zi ham uni "polvoncha" deb atab bunga ishora qilib ketadi. U hali katta polvonlik davralarini ko'rmagan bo'lsa-da, undagi or-nomus, kuch-qudrat kelajakda dong'i olamga ketgan polvon bo'lishiga umid uyg'otadi: *"Haqiqiy kurash bel olishganda bo'ladi. Azizxon bel olib u bilan barobar tebranib borarkan, Esh polvon g'irromlik qilmasmikin, deb o'ylardi. Kuch sinashib davrani to'rt aylanishdi. Bu orada Esh polvon charchadimi, deb sinash uchun bir-ikki belidan tortib qo'ydi. Azizxonning beli qotib qolgandek na egilardi, na bukilardi. Ikki marta ko'tarmoqchi bo'ldi, raqibi xuddi oyog'iga tosh bog'lagandek yerdan uzilmadi. Beshinchi aylanishganda Esh polvon uni yengishdan umidini uzdi. Azizxonning qulog'iga sekin shivirladi: - Va'dang esingdami, ukajon? – Esimda, - dedi Azizxon ham shivirlab. – Yana ikki aylanamiz-u ajrashamiz. – Yo'q, Polvon aka, ovvora bo'lasiz. Bir yoqli qilmay ajralish yo'q. – Va'dangni unutibsan-da, bola? – Agar oraga qo'sh pichoq oralamaganda, o'lay agar, yiqilib*

ham berardim. Nomardlik qildingiz. Endi mardlikni sizga o'rgatib qo'yganim bo'lsin"(68-bet). Badiiy adabiyot bilan yaqindan tanish bo'lgan kitobxonimizga ma'lumki, adabiyotimizda bu kabi holatlar ko'plab uchraydi. Mirzo Anvar fojeasida ham Xudoyorxon xuddi shunday gapning zahridan totib ko'rgan edi. Nomardlik qilgan Esh polvon endi yolvorish yo'liga o'tdi: "– Ukajon, yosh ekasan. To'yingga qarashib yuboraman. Bitta qo'y mendan. Xohlasang naq ikki yuz so'm beraman. – Kam! – Uch yuz beray. – Kam! Kam! Kam! – dedi baqirib Azizxon. – Sekinroq! Jinni bo'ldingmi! Xohlasang besh yuz beray. – Xo'p! – dedi Azizxon na'ra tortib. U shu xo'p degandayoq Esh polvonni tizza bo'yi ko'tarib olgan, aeroplan parragidek aylantira boshlagan edi. Zum o'tmay Esh polvonni yerga bosdi. Esh polvon yotgan yerida so'kindi. – Nomard, yeding-a! To Jo'ra polvon yetib kelguncha davra ular ustiga yopirildi. Azizxonni ko'tarib ketishdi..."(68-bet). Or va nomus o'zbek kishisining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Polvonlar orasida esa, ayniqsa, erkak kishining ori va nomusi uning kim ekanligini belgilovchi asosiy tamoyillardan. Esh polvon ham xalq orasida to'kilgan burdini qayta tiklab olishga astoydil harakat qildi. Ammo uning bu harakatlarida g'irrom borligi, o'z kuchiga ishonmaslik, raqibini yolg'ondan yiqilib berishga undashlarida uning ma'naviy-ruhiy olamidaga chirkin illatlarni, zaiflikni ko'ramiz. Azizxonning Esh polvon qo'yan shartga ko'nganligida uning naqadar tanti inson ekanligi sezilsa, Esh polvonning Azizxon va'dasiga ishonmay uni mushtumzo'rlar tomonidan qo'rqitishga urinishida uning uchun va'do-vafo tuyg'usining bir tiyinga qimmat narsa ekanligini, agar o'zi vafoli inson bo'lganda Azizxonning gaplariga ishongan va o'zini yanada badtar holga solmagan bo'lar edi, degan xulosa chiqarishimiz mumkin. Biroq besh qo'l barobar emas deganlaridek, Esh polvondagi bu illatlar Azizxon obrazining ijobiy qirralarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Ammo muallif Esh polvondagi bu qusurlar bilan birgalikda, uning ko'ngil tubi manzaralarini ham ochiq chizib beradi. Va o'quvchida Esh polvonni ham salbiy qahramon doirasiga qo'sha olmasligiga turtki bo'ladi. Esh polvondagi bu fazilatlar raqibining ya'ni, Azizxonning boshiga og'ir kunlar tushganda yuzaga sizib chiqadi: "Tashqarida Esh

polvon o'floh tig`ida terga botib, og`ir gavdasini arang ko`tarib turibdi. U belbog`i hilan bo`yni, yuzidan quyilayotgan terni dam-budam artadi. Eshning ikki ko`zi jiqqa yoshga to`lgan, tinmay hiqillardi. Ne-ne kurashlarda sovrin olib, ne-ne kurashlardan boshini egib chiqib ketgan, qahri qattiq, birovning dardini bilmaydigan hissiz bo`lib ko`rinadiga bu odam` aslida bunaqa emasdi. Salga ko`ziga yosh keladigan, muhtoj-nochor odamlar oldidan o`tganda ko`ngli buzilib, yuraklari ezilib ketadiganlardan edi”(164-bet). Atrofimizda turli-tuman odamlar yashaydi. Ko`zimizga ko`ringan siymo ichida, biz ko`rgan, bilgan inson qiyofasidan tashqari yana bir boshqqa inson bo`ladiki, biz ko`p hollarda uni ko`rmaymiz, insonning ichki qiyofasi gohi-gohida, juda quvnoq yoki g`amli davralarda bo`y ko`rsatadi, xolos. Esh polvon obrazi xarakterida ham shu holatning guvohi bo`lamiz:“- Esh aka! Tentak ukangizni kechira olasizmi? Esh polvon nimadir demoqchi bo`lib labini gapga juftlagan ham ediki, Azizxon uni gapirgani qo`ymadi. – Yo`q, avval ayting, kechira olasizmi? Men sizni ko`p qiynadim. Davra to`rlarida yurgan, birovga so`zini bermagan sizdek odamni yurt oldida uyatga qo`ydim..., - Ukajon, qayda bo`lsang omon bo`l. Boshing toshdan bo`lsin. Men ko`p davralarda bel olishganman. Yiqitganman, yiqilganman. Polvonchilik ham biromad ish. Yiqitsang poshshosan, yiqilsang bir-ikki kun ich- etingni yeb yurasn-u, yana kurashni qumsab qolasan. Azizxon uning gaplarini indamay eshitdi. – Bir iltimosim bor. Ertaga Maygirda kurash bor. Shunda oxirgi marta bel olishsak. O`lay agar, turib beraman. Bir yiqitib xumordan chiqing. Men ham xotirjam bo`lay. Shunday qiling, aka! Esh polvon bosh chayqadi. – Sendek azamatni yiqitadigan polvonning bo`yni uzilsin. Bu gapiingni qaytib ol. Aslo yelkang yer iskamasin. Davradan hosh egib chiqqulik qilmasin, Xudoyim. Roziman, ming marta roziman sendan, Azizxon shart o`rnidan turdi-yu, Esh polvonni supadan yulib oldi. Belidan baquvvat bilaklarini o`tqazib yerdan uzdi. Ikki aylantirib yerga qo`ydi. Qo`ydi-yu, bag`ridan bo`shatmadi. Yuzlarini yelkasiga ishqab turib qoldi. Shunda yaktagiga Azizxonning ikki tomchi ko`z yoshi tushdi. Esh polvon uning bu bolalarcha qiliqlaridan ta`sirlanib ketdi. – Bo`ldi, bo`ldi, tentak. Bolamisan, deymen, bo`ldi. Azizxon uni bag`ridan qo`yib yuborib, yuzini

teskari o'girdi. – Xayr endi, aka''(230-bet). Obrazlarning xarakterini asar boshidan kuzatib kelayotgan kitobxonga ma'lumki, Azizxonni ham, Esh polvonni ham hayot haqida qarashlarini o'zgartirgan narsa bu – mehnat bo'lmoqda. Azizxonni og'ir mehnat, erta xazon bo'lgan yorining qismati haqiqiy polvon darajasiga ko'tardi. Ayni vaqtda, Esh polvonning o'zi ham unga maktab vazifasini o'tadi. Esh polvonning o'zgarishiga Azizxon ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Asarda hali biz tilga olmagan, tahlilimiz ostiga kiritib ulgurmagani polvonlar talaygina. Ular o'zbek polvonlari avlodining chin ma'nodagi davomchilari, ma'naviyati yuksak, ori butun, o'rnak qilsa arziydigan insonlar. Kezi kelganda ularning ham ma'naviy-axloqiy qaddriyatlarini haqida to'xtalib o'tsak. Avvalo, vodiy polvonlarining oldi sanalmish, kanal qurilishining eng mashhur eng nomdor polvoni Do'nan polvon haqida gaplashsak: "Do'stmatov shundan keyin o'zini sal o'nglab oldi. Yana kaftini og'ziga oborib qantarib oldi. – Biz gapga yo'groqmiz-da, Ota. Onamiz ishga tuqqan. Ishdan boshqasini bilmaymiz. Bu so'roqqa nima deb javob berishni bilmay qoldim. Gapning ochig'ini aytсам, nega shunaqa qilayotganimni o'zim ham bilmayman. Balkim, sabrim chidamay shunday qilayotgandirman. Ota-bobolarim Norin bo'yida yashashgan. Butun umr yelkalaridan obkash tushmagan. Eshikka yarim bo'yra eni o'sma ekan bo'lsalar shuni ham obkashda suv tashib sug'orishgan. Hammamiz suv bo'yida tashna yashaganmiz. Hukumat yeringga suv chiqarib beraman, ekinging endi suvga yolchiydi, ota-bobolarining ichmagan suvni sen ichasan, bola-chaqalarining ichadi, ketmoningni ko'tarib chiq, dedi. Chiqdim. Mana, ishlayapman. Agar boshqalardan ko'p ishlayotgan bo'lsam, bu sevinganimdan, bolalarimning rizqini o'ylaganimdan, dalalarimga suv chiqishiga quvonganimdan bo'lsa, ajabmas. Mening-ku, bitta jonim bor. Agar o'nta jonim bo'lganida ham yurtga suv beraman deganga bag'ishlavoraman. Gapim shu"(199-bet). Asarda Do'nan polvon kurash sahnalarida tasvirlanmaydi. Uni yurtning oldi polvoni ekanligiga ishora beriladi. Yuqoridagi parchada esa Do'nan polvon o'zbek xalqining fidoiy farzandi, unga jonini berishga tayyor inson ekanligi yaqqol ayon bo'ladi. Yana bir qahramonimiz Ali polvon tilidan esa yosh polvonlar ibrat olsa arziydigan fikrlar beriladi: "Ali

polvon uning nimadan kuyinganini darrov payqadi. O'lganning ustiga tepgan, degandek gapiga yarasha javob qildi. – Battar bo'l. Harifining kuchini chamalamay bel olishadigan polvonning ko'radigan kuni shu. Esh polvonning dami ichiga tushib ketdi. Bir oz til chaynab turganidan keyin jur'atsizgina javob qildi. – Men sizga ishongan edim, Ali aka. Meni-ku yiqitdi. Nega siz dik etib tura qolmadingiz? Qasdimni olarsiz, deb o'ylagan edim. Ali polvonning jahli chiqib ketdi. – Sira esing kirmadi, kirmadi-da. Polvon degan birovning kuchiga ishonib kurash tushadimi hech jahonda?! Avval mundoq bir chamalab ko'r, chog'ing kelsa, ana undan keyin davraga tush"(69-bet). Esh polvon qanday polvon ekanligiga, yosh bolaning fe'lidek tez o'zgarib turuvchi xarakteriga avval ham ko'p to'xtalgan edik. Ali polvon vodiy polvonlarining ustози. Uning ota-bobosi ham kurash tushgan yosh polvonlarga ustozlik qilgan. Bu odat unga otadan o'tgan meros: *"Ali polvon salmoqlab gap boshladi: - Birinchidan, charchagan polvonni yiqitish mening taomilimda yo`q. Ikkinchidan, u bilan bel olishmasdim. – Nega? – jahl bilan so`radi Esh polvon. – Otamning maslahati ham, vasiyati ham shu bo`lgan. Men o`n yetti yoshimda xuddi shu polvonga o`xshab bir davrada yetti azamat nomdor polvonni alla qilganman. Ishonmasang, mana, Yusuffjon aka shu yerda. Borib so`ra, Yusuffjon aka o`sha kurashda qiziqchilik qilgandi. Qancha sovrin va pullar bilan qishloqqa qaytganman. Otam rahmatlik sovringa olgan to`n-u pullarni orqalab Marg`ilonga ketganlar. Yiqilgan polvonlarning yelkasiga o`sha to`nlarni tashlab, bolamni duo qilinglar, saflaringda yelkasi yer ko`rmay yursin, deb katta qozonda osh damlab yedirib kelganlar. Qaytib kelganlarida meni oldilariga o`tqazib bir gap aytgan edilar. Hali-hali qulog`imda jaranglab turipti bu gap. "E, nodon, ular sendan yiqiladigan anoyi polvonlardan emas, atayin yiqilib berishgan. Azboroyi oramizga bitta navqiron polvon kirsin, deganlaridan shundoq qilishgan"*(71-bet). Xalqimizda haq gapni aytuvchi insondan yaxshisi yo`q. Ali polvon ham haq gapni aytishdan toymaydi. U o`ziga holdan toygan polvonni yengishni or deb biladi. Otasining nasihatlariga amal qiladi, polvonlar orasiga yana yangi polvonlarning kirib kelishini xohlaydi. Yoshlar yo`lini to`sisini ko`zlamaydi. O`zbek polvonlari

qatorida Ali polvon kabi e'toqodi butun, haqgo'y polvonlarning bo'lishi kishini quvontiradi. Polvonlar avlodining hali uzoq yillar davom etishini ko'rsatadi. "Qirq besh kun" romanida o'zbek xalqining og'ir mehnat sharoitida ham birdamlikni qo'ldan bermay katta ishlarni amalga oshirganligi, shu bilan bir qatorda o'zbek polvonlarining boy e'tiqodi, yuksak ma'naviyati qalamga olinadi. Ijodkorning yana bir asari bo'lmish "Jimjitlik" romanida ham polvonlarning hayot tarzi haqida biroz bo'lsa-da to'xtalib o'tiladi. Bu esa Said Ahmad ijodida polvonlarning alohida o'rinini borligini ko'rsatadi. "Jimjitlik" romani bilan tanish bo'lgan kitobxonga asarning badiiy-g'oyaviy xususiyatlari bilan tanish, albatta. Asarda o'tgan asr oxirlarida umri tugab borayotgan sovet tuzumining chirkin hayoti, rahbar hodimlarning o'z foydasi yo'lida har qanday razil ishlardan tap tortmasligi ochiq-ayon ko'rsatib beriladi. Asar markazida turuvchi Mirvali obrazining yaramas qiliqlari, hech kimni pisanda etmasligi, boylik, o'z nafsini qondirish yo'lida hech narsada hayiqmasligi o'quvchini tamoman hayratga soladi. Faqatgina Mirvalining o'zi emas, balki uning atrofidagi insonlar ham uning bu ishlariga sherik, ko'makdosh. Romanda Nizom polvon (Qiz polvon), Nasim polvon va Rajab polvon (Ishton polvon)larning obrazini ko'rishimiz mumkin. Mirvalining qo'lida ishlovchi Nasim polvon hamda Rajab polvonning ma'naviy dunyosi ham o'z hojalarining tabiatiga moslashgan. Ular har qanday chirkin ishlarni kiprik qoqmay bajaradilar: *"Abdulaziz uni chaqirdi. Mirvali unga aftini burishtirib qaradi. O'ylab qaragam, sen ham kerakli odam ekansan. Senga muhim topshiriq bor. Bu yerda o'ralashib yurma. Toqqa bor. Azizbek degan bolani bilasan-a? – Ravshanning o'g'lini aytyapsizmi? Bilaman. – Shu bolaning orqasidan soyadek ergashib yurasan. Holiroq joyda ro'baro' kelib qolsa, otib tashlayver, savobga qolasan. – Hozir tog'da o'q ovozi chiqishi bilan formal, formasiz melisalar ko'z ochib yumguncha yetib keladilar. Unday bo'lsa, bo'g'izlab xandaqqa tashlab yubor. Bu gapni eshitib turgan Abdulaziz seskanib ketdi. Mirvali Rajab polvonni maqtab qo'ydi. – Zo'r bolasan-da, ishton. O'zimming ishtonimsan, ablah".¹⁴*

¹⁴ Ahmad S. Jimjitlik. – T: O'zbekiston, 2007-yil. 228 –B. Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan ko'chirmalar qavs ichida beriladi.

Tuzum har qanday insonni o'ziga boysundirishga qodir. Ayniqsa, bunda e'tiqodi sustlar, qat'iyatsizlar birinchi galda moslashuvchilarga aylanadilar. Rajab polvon ham bir vaqtlar og'izga tushib qolgan polvonlardan edi. Davrada yuz bergan sharmandachilikdan so'ng, u o'zini tiklab ololmadi. Nafsining quliga aylandi. Yana bir "qahramon" Nizom polvonning pastkashligi esa kishini lol etadi. Bunday holatni o'quvchi boshqa biron-bir asarda uchratmaydi. *"Makritlik Nizom polvon desa hamma tanirdi. U Urgutda bo'lgan katta bir kurashda nomardlik qildi-yu, nazardan qoladi. Makritda bosh ko'tarib yurolmay, Denovga ko'chib ketdi. U yerda hech kim uni kurashga tortmadi, to'rt oy o'tib yana bosh egib, Makritga qaytib keldi. Urgutda katta kurash bo'ldi. Panjkentdan kelgan bir ayol polvon: – Kim talabgor bo'lsa o'rtaga chiqsin, - dedi... Nizom polvon davraga chiqib, yiqilgan polvonlarni haqorat qildi. – Ayol kishidan yiqilgan nomardlar! Kurash tushishni senlarga ko'rsatib qo'yaman..., Nizom polvon jirkanch bir ishga qo'ldi. Tirsagi bilan juvonning ko'kragini eza boshladi. Bor kuchi bilan jon achchig'ida ezdi. Shunda nimadir bo'ldi. Juvonning ko'krigidan allaqanday tomir uzildi. Juvon ingrab yubordi. Yerda bir yelkasi bilan yotgan Nizom polvonning ustidan turdi. Ko'kragini changallab davradan chiqarkan, unga g'azab bilan dedi: – Rizqi yak bacham xo'rdi-ya, nomard! (Bir bolamning rizqini yeding, nomard!) Ana shundan keyin Nizom polvonning nomi Qiz polvon bo'lib ketdi. Davralarda o'rtaga tushsa, chiq, chiq davradan, ayollar bilan kurashga yaraysan, Qiz polvon bilan kurashmaymiz, deb chiqazib yuboradigan bo'lishdi"*(218-bet). Said Ahmad ijodida polvonlar obrazi alohida mavqeyga ega. Ular turli qiyofalarda, vaziyatlarda namoyon bo'lishadi. Yuqorida tasvirlangan polvonlar esa polvonlik nomini saqlay olmaganlar, nafs qutqusiga duchor bo'lishgan. Ayni vaqtda, insonlarning turish-turmushiga ijtimoiy muhit shu darajada ta'sir etyaptiki, ular asli kim bo'lganliklarini va kim ekanliklarini unutib yubormoqdalar. Bu masalaga keyingi boblarimizda yana qayta to'xtalib o'tishimiz sababli fikrimizni muxtasarroq qildik.

O'zbek adabiyoti tarixida mustaqillik davri adabiyoti o'zining yangi mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Unda, ayniqsa, qissachilik va hikoyachilikning o`rni beqiyos. Bugungi kunda o`zining hikoyalari bilan keng jamoatchilikka manzur tushib kelayotgan yosh ijodkorlardan biri Nurilla Choridir. Uning ayrim hikoyalari o`zbek xalqining mard og`lonlari bo`lmish polvonlarga ham alohida o`rin beriladi. Masalan, "Bo`ron tingan kecha" hikoyasida Shaymardon polvon hamda O`roq polvonlarning taqdir yo`llari juda chiroyli chiziladi. Hikoyada urush yillar qalamga olinib, insonlarning hayoti xuddi bo`ronda qolgandek har tomonga sochilib ketadi. Shaymardon polvon hamda uning yaqinlari ham ana shu alg`ov-dalg`ovli yillar qurboni. U hayot yo`lida hamma yaqinlaridan ajralib qoladi. Ammo kurash bahonasida hayotda yolg`iz yaqini O`roq polvon bilan uchrashdi: *"Norbo`ta Sharof Shaymardon polvonning talabgori O`roq polvon ekanini elga e`lon qildi. Ularning chakmoni ustidan bakovulning o`zi belbog` bog`ladi. Tomoshatalablarning butun vujudi ko`zga aylangan: lab juftlamay, kiprik qoqmay davraga tikiladi. Polvonlar avval qo`sh qo`llashib salomlashdi. So`ng Shaymardon o`ngdan davra aylandi. Raqibi unga ergashdi. Bir-biriga yuzlangancha chap oyog`idan o`ngini yarim qadam oldinga tashlagan polvonlar biroz engashdi. Go`yo qanot qoqib turgan xo`rozlarday bir-biriga xezlandi. Shaymardon polvon raqibiga tikilgancha... o`n yashar bolaga aylandi., polvonning qomati "alif" bo`ldi. Raqibining yoqasini tutishga chog`langan qo`llari to`qsonga to`qnashib, asosga kuchi kelmaydigan ilklarday shalvirab qoldi. Birdan ortiga tislani, qo`lini osmon qadar ko`targancha "kurashmayman" ishorasini berdi..., "Bir kun bu tanni tuproqqa topshirar bo`lsam, manzil-makonimga qo`yar odamning qanday yoqasidan olay, oqsoqol?!" derdi*¹⁵. Inson zoti bu dunyoga mehmon bo`lib keladi. Biz kimnidir oxirgi manzilga kuzatib qo`yamiz, yana kimlardir bizni kuzatib qo`yuvchilardir. Shaymardon polvon ham g`alabaga qanchalik intilmasin, u hayotning azaliy haqiqatlaridan uzilgan inson emas. U ota-bobolarining ruhiga sodiq. Qavm-qarindoshining yoqasidan aslo tutmaydi.

Tahlilimiz doirasida bo`lgan o`zbek polvonlarining hayot tarzi, ma`naviy dunyosi, ruhiy olamiga sayohat qilish davomida ularning

¹⁵ Chori N. Bo`ron tingan kecha. – T: Adib, 2016-yil. 60-B.

atrofimizda har kuni uchratadigan oddiy odamlardan farq qilishining guvohi bo'ldik. Avallo, ular ko'ngil odamlari. Vijdoni buyurmagan ishni aslo ado etolmaydilar. Bo'ri polvon sof e'tiqodi, buyuk qalbi bilan, Azizxon dovyurakligi, hech narsadan tap tortmay faqat olg'a qadam tashlashi, Norsoatning taqdir yo'llarida pok vijdonini saqlab qolishi, Shaymardon polvon esa oqibati hamda sadoqati bilan ko'nglimizga oshno bo'ldi. xayolimizni band etdi. So'zimiz boshida aytganimizdek, adabiyot o'z oldiga komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib olar ekan, o'zbek adabiyotida polvonlar obrazi alohida bir sistemani tashkil etaveradi, chunki ular haqiqiy komillik timsolidirlar.

2.2 Ma'naviy qadriyatlarning polvon obrazi xarakter xususiyatlarini ochib berishdagi o'rni xususida

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon, inson zoti o'zi kabi boshqa bir insonga bo'lgan tuyg'ularini turli nomlar bilan ataydi. Bularning ichida esa do'stlik, muhabbat tuyg'ulari eng go'zali va eng nozigidir. Sababi bu tuyg'ular o'z ortidan sadoqat, ishonch, hurmat kabi boshqa hislarni ham ergashtirib yuradi. Badiiy adabiyot inson hissiyotlarini uyg'otib, uning ong oqimiga kirib borar ekan, albatta, u o'z yaratig'ida bu tuyg'ularni qalamga olmay iloji yo'q. Inson taqdirini turli tomonlarga to'zg'ituvchi ushbu ilohiy tuyg'ular uning hayotida qanchalar muhim bo'lsa, badiiy asrda ham u muhim detal sifatida qatnashadi. Odatda qahramonlar hayotidagi muhabbat mo'jorolari asar tuguni yoki kulminatsiyasiga yo'l ochib beradi, obrazlar taqdirida muhim burilishlar yasaydi, ruhiy dunyosida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Biz so'z yuritayotgan o'zbek polvonlari hayotida ham ushbu tuyg'ularning o'rni beqiyos. Bu bobda ana shu tuyg'ularning polvon obrazi yaratishdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida muhabbat va do'stlik tuyg'ularining uyg'unlikdagi go'zal qissasini uchratamiz. Adib qissa tugunini asar boshidayoq muhabbat uchligiga qo'yadi. Bu esa obrazlar xarakterini ochib berish vazifasini o'tay boshlaydi. Muallif polvonlarni bir-biriga solishtirish uchun qahramonning ichki o'ylaridan

foydalanadi. Qissada Bo`ri polvonning armonli muhabbat qissasi bir umrga birodar tutingan do`sti Nasim polvonning unga qilgan xiyonati orqali ochib beriladi. Bu xiyonat polvon yuragida bir umrga bitmas yara bo`lib qoladi. Uning ruhiyatidagi azoblanish polvonning o`ylarida mahorat bilan chiziladiki, qahramon dardi bevosita kitobxonga ham yuqadi. Bo`ri polvonning muhabbatga munsabati ham samimiy, u hatto sevgan insoniga izhori dil qilishgada ko`ngli dosh bermaydi. Aynan shuning tufayli u hayotidagi eng katta xatoga yo`l qo`ydi, bir umrga dildoridan ajrab qoldi. Umri davomida armon girdobida yashadi: *“Nasim ayyorona iljaydi. Chiroyli ko`zlari o`ynab, tishlari orasidan chirt etib tupurdi. – Momoqizning oldigadir-da? Bo`ri lovillab ketdi. – Ha, Momoqizning oldiga! Xo`sh, senga shu gap kerakmidi? – E, Bor, menga desa oyog`iga yiqil. – yiqilaman! Men shunday oyog`osti odamman! Bo`ldimi? Poyiga yiqilib, Momoqiz, men senga nima yomonlik qilib edim, deyman! Bo`ldimi! Ixx! Bo`ri hangiga hoda urdi. Tahlikaga tushib qolgan Nasim uning izidan yetib kelib, yo`liga ko`ndalang bo`ldi. Bo`ri hansirar edi: - Qoch yo`ldan, qoch! Men Momoqizga yolvorgani ketyapman! – Bo`ri, borma! – Nega hukm qilasan? Nima, hosilotmisan?! – Bo`ri, meni jo`ram desang bormaysan. – Senga nima?! – Bo`ri, men... seni aldab edim. Bir-biriga tikilib qoldilar. Nasim ko`zlarini olib qochib, so`qmoq chetidagi turnaqator qumursqalarga tikilib qoldi... Boyagi tun. Cho`ponlar gulxani. Elas-elas qo`shiq... - Ayt aytgichingni, Nasim, qizlar yomon hayolga boradi. – Momoqiz, Bo`ri senga bir gap aytaman, deb yuribdi. – Bilaman, aytolmayapti. – Momoqiz, u menga ko`nglini yordi, tayin ayt, dedi. – O`zimga aytishga uyalgan gapni senga aslo aytmas. – Aytishga bet chidamaydigan gap-da, Momoqiz, aytayinmi nima dedi? Momoqiz bilan o`ynagim kelyapti... qo`yniga kiraman, dedi. – Yopirim, chini minan shunday dedimi? – Aldasam ko`r bo`layin. – Unda, Bo`rining betiga qaramaganim bo`lsin. Betini murdashuy ko`rsin! – Tag`in, unga aytib yurma, oshna degan otimiz bor... Bo`ri hangini oldinga qimtdi. Yonlaridan odam bo`yi quyun charx urib o`tdi. – Ayt, nima deb aldading? – Aytmayman. – Men senga gapiryapman! – Bo`ri, ursang ur, baribir aytmayman. – Ayt deyman! – Bo`ri jo`ra, Momoqiz mengayam*

yoqadi... Bo`ri iziga hurilib, xirmonga keldi”¹⁶. Ha, ishonmagin do`stingga, somon tiqar po`stinga maqoli xalqimizda orasida bekorga keng tarqalmagan. Chunki maqollar xalq turmush tarzi va donishmandligining mukammal namunalaridir. Do`st xiyonatidan hikoya qiluvchi boshqa yana ko`plab asarlarni uchratishimiz mumkin. albatta, ammo bu holatga mana shunday yechim takrorlanmasdir. Bu takrorlanmaslik esa obraz xususiyatidagi o`ziga xoslikka sabab bo`ladi. Bo`ri polvon bilan bog`liq keyingi hayot lavhalariga to`xtalsak, u ham davralarda Nasimdan och olishga harakat qilgan o`rinlarni kuzatishimiz mumkin, ammo u qalbidagi to`g`rilik o`ti, bir zamonlar birodar tutinganlik hurmati uni bunday qilishiga yo`l qo`ymaydi, adib qalbdagi tug`yonlarning haqiqiy, ishonarli manzarasini yaratadi, Bo`ri polvon ma`naviy dunyosining ochilishiga xizmat qiladi: *“Zo`rdan zo`r chiqsa oyog`i tipir-tipir! Bo`ri polvon uning yuziga qaramadi. Davrada kimdir sarosima bilan qabatidagiga dedi: - Ikki oshna-ya. Oxir zamon bo`lyaptimi deyman. - Oshna bo`lgani minan ikkovi gaplashmaydi. - Biror gap o`lgandir-da. - Kim biladi deysiz. - Bo`ri polvonga juda-juda alam qildi: “Ux, qizbet! Aqalli bir og`iz chiqmayman demadi-ya. Itidan bo`lgan qurbonlikka yaramas! Qarab tur, davraga qaytib chiqmaydigan qilmasam ko`rasan”*(39-bet). Bo`ri polvonning qalbida alam va nafrat toshib borar, och olish niyati yonardi. U do`stidan oqibat kutardi. Bu holat kitobxon uchun ham tabiiy, kutilayotgan hodisadek qabul qilinadi, ammo ushbu vaziyatda ham kutilmagan hodisa yuz beradi, polvonning qalbidagi ma`naviy barkamollik uni yomon ish qilishiga yo`l qo`ymaydi. Bu esa Bo`ri polvon haqida qissa boshidan shakllanib kelayotgan fikrlarni mustahkamlaydi: *“Bo`ri polvon to`xtadi. Ishtonini tizzasigacha lippa urdi. Ko`kraklarini ochdi. Uning niyati yovuz edi: “Birdan qo`l chilga olaman”. U vajohat bilan Nasim polvonga qarab yurdi. Nasim polvonning vajohati ham unikidan kam emasdi. Bu Bo`ri polvonning niyatini amalga oshirishga bo`lgan ishtiyoqini zo`raytirdi: “Bakovul sezib qolib qichqirsayam bari bir qo`l chil qilaman. O`zimni eshitmaslikka olaman”. Shunday qilib, yana bir necha sekunddan keyin Nasim polvonning bir qo`li chiqadi, yo sinadi! Bo`ri polvon o`ynab-*

¹⁶ Мурод Т. Юлдузлар мангу ёнади. –Т: Фахур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 29-Б. Кейинги ўринларда ушбу маъбадан олинган кўчирилмалар қавс ичида берилди.

o`ynab, uzil-kesil hamlaga o`tdi. Qo`l uzatmoq bo`lib olg`a intilgan edi, Nasim polvon chaqqonlik bilan o`zini orqaga oldi. Xuddi shu daqiqada ko`zlar uchrashib qoldi! Bo`ri polvonga o`sha qop-qora ko`zlar tik boqar, bu ma`nosiz, bez ko`zlar Bo`ri polvon uchun qanchalik jirkanchli bo`lsa, shunchalik qadrdon ham edi! Qadrdon ko`zlar Bo`ri polvonning qalbida ko`pirib-toshayotgan qahrni so`ndirib yubordi. U beixtiyor bo`shashib, qo`llarini tushirdi. Qo`l siltab: - Haqini beringlar, u zo`r ekan! – dedi-da, davradan chiqdi-ketdi”(40-bet). Ha, haqiqiy polvon qalbida oqibat va mehr kuchli bo`ladi. Mana, biz buning isbotini Bo`ri polvon timsolida ko`rib turibmiz. Haqiqiy polvon dilidagi qahr va g`azabdan kuchli shaxsdir, u o`zini jilovlay oladi, muallif bu lavhalarda ushbu fikrlarlarni ilgari suradi. To`g`ay Murod Bo`ri polvon obrazi orqali nasrimizda polvon obrazini xarakterdan tip darajasiga olib chiqdi. O`zbek nasrida povon obrazi yaratish silsilasiga yana bir tamal toshini qo`yib berdi. Bo`ri polvon haqida fikrlarni tahlil qilib, uning boy ma`naviy qiyofasini kuzatishni davom ettirsak. Bo`ri polvon bolalik qadrdoni, birodari Nasimdan umid qilib yashadi, unga xiyonat qilsa-da, u bir kun kelib kechirib so`rab, afsuslanishini kutdi, ammo uning butun umidlari puchga aylandi: “Bo`ri oshna, yomon bo`ldi, juda yomon bo`ldi. Boshingga yomon kunlar soldim. Men buni olishda ko`zlaringdan bildim. Ko`zlaring to`la dard, ko`zlaring to`la o`pka-gina edi. Oshna, sen meni yuruvsiz qilding. Bundan zo`r bo`lgandan ko`ra o`lganim yaxshi edi! Odam deb dardingni menga aytganding-a! Oshna, senga rahmim kelyapti. Momoqiz menga ham yoqqani chin. Lekin men baribir Momoqizni deb senchalik qayg`urmayman, dard chekmayman. O`zi, senga hech tushunib bo`lmaydi, oshna. Bir og`iz qattiq gapirmading, mening kimligimni bilsang-da, yuzimga aytib solmading, Momoqizgayam aytmading-a. Oshna, buni birov eshitmasin. Eshitgiligi yo`q. men o`zim bor gapni Momoqizga aytaman. Mayli, meni la`natlasin, mendan nafratlansin. Sen qiyomatli oshnam bo`lmaganingda ham senday odam uchun shunday qilardim. Oshna, Momoqizning oldiga bor. Ko`nglingni to`q qil – uning oldida sening yuzing yorug`. Oshna, meni faqat bir nima qiynayapti: keyin, ikkalangning yuzlaringga qanday qarayman? Balki, mendan bir umr yuz o`girib ketarsizlar? Yo`q, oshna, men sendan

ayrilib qolgim kelmaydi. Bo`lmasa nima qilayin? Bilmayman, oshna, bilmayman... Oshna, men senday bo`lgim keladi! Afsus, bo`lolmayman..." Bo`ri polvon Nasimdan shu gaplarni umid qildi. "Uning o`rnida men bo`lganimda shunday qilardim, - o`yladi Bo`ri polvon. – kelib shunday derdim"(41-bet). Ammo hayot doim ham kutayotgan fursatimizni in`om etavermaydi. Biz kutgan narsalar amalga oshmay qoladi. Va aksincha, biz umid qilgan, kutgan narsalarning butkul teskarisi yuz beradi. Bu bizga hayot tomonidan berilgan qattiq zarba bo`lib tegadi. Qahramonimiz hayotida ham xuddi shunday holat yuz berdi. U birdaniga do`sti va suyukligidan ajrab qoldi: "U intiq bo`lib yashadi. Momoqizning oldiga borishga yuragi betlamadi. Kutilmaganda Nasim Momoqizga... odam qo`ydi. Non sindirildi! Buni eshitgan Bo`ri polvon yarasiga tig` tekkan bemorday seskanib, ingrab yubordi. Nasim yashashni biladi. U boshqa brigadaga o`tib ketdi. Momoqiz bilan. Olcha gullayotganda to`ylari bo`ldi. Nasim to`yga Bo`rilarning xonadonlariniyam aytdi. To`yga Bo`rining onasi bordi. Bo`ri, majlis bore di, deb rayonga ketdi"(41-bet). Bo`ri polvonning yuragiga og`ir dard yopishadi. Bu dard uni butun umri davomida ham azoblab, to`lg`ontirib yashadi. Bo`ri polvonni polvon qilgan bu dard – armon, muhabbat armoni edi. Ammo bu dunyoda hech kim jazosiz qolmagay, har kim o`z qilmishiga yarasha nasibasini olgay. Adib ushbu hukmni qissada yana bir bor isbotlaydi. Ikki dilni bir-biridan ayirgan, "aldasam ko`r bo`layin" degan Nasim polvon, haqiqatdan, o`ziga hukm qilgan jazoni oldi: "Bo`ri polvon davraga kirdi. Ana, Maksim polvon, Alimardon, Shodi, bu... Bo`ri polvon beixtiyor to`xtadi. Juda tanish yuzga ko`zi tushdi. Bu kim bo`ldi ekan?...Nasim polvon davraga qarayaptimi yo uzoqlarga nazar solyaptimi, bilib bo`lmas, boshini tik tutgancha ko`zi o`jizlarga xos shoirona o`tirardi. Bo`ri polvonning qalbi uyushib ketdi. Nasim polvonga juda-juda rahmi keldi. Qulochini keng ochib: "Nasim oshna!" – demochi bo`ldi"(16-bet). Kechirimlilik – oliy fazilat. Polvonlarda ham bu fazilat oliy darajaga ko`tarilgan. Qahramonimiz bir umrlik do`sti, shu bilan birgalikda boshiga og`ir savdolar solgan dushmanining gunohidan o`ta oladimikan: "Ammo, qalbing tub-tubida yashirinib yotganyotgan nimadir... bu istagini rad

etdi. U boshini ma'yus egib, hurildi. Bir qadam bosib yelkasi osha yana qaradi. Davradagi ovozlarni eshitmay, odamlarni deyarli ko'rmay qoldi. Uning keng yelkalaridan nimadir bosar, nima bo'lsa ham juda og'ir, zilday og'ir edi. U madori qurib, ko'zi tinib, qur chetiga o'tirdi. Yonidagi odamga o'girildi: - To'ra oqsoqol, Nasim polvonning ko'zi... - Bechora otdan yomon yiqilgan ekan, zarbidan bu ko'ziyam oqib tushibdi. - Yo pirim-e, tuf-tuf-tuf... - Falokat-da. Bo'ri polvon o'ng kaftini tizzasiga qo'yib chiroq yorug'ida yiltirayotgan somonga tikilib qoldi"(16-bet). Yillar o'tsa-da Bo'ri polvonning yuragidagi do'stiga bo'lgan mehr o'ti so'nib qolmadi, shunday bo'lsa-da, yuragidagi do'st xiyonatidan yig'ilgan achchiq alam zardobi uni Nasim polvonga hamdardlik bildirishga yo'l qo'ymadi. Polvondagi ruhiy ikkilanishlar, yurak o'rtanishi, or-nomus masalasi juda ishonchli va ta'sirchan yaratiladiki, kitobxonning yuragi beixtiyor jumbushga keladi. Bu kechinmalarni go'yoki, o'z boshidan kechirayotgandek hissiyot paydo bo'ladi. Keyingi o'rinlarda esa, do'st xiyonatidan kelgan iztiroblarga, muhabbat dardlari ham qo'shilib ketadi. O'quvchi obraz ruhiyatidagi chuqur tushkinlikka guvoh bo'ladi: "Nasim oshna, men Momoqizdan ulug'ini ko'rmadim! Har er ko'nglining qiz ko'ngilga aytajak gaplari bo'ladi. Ko'nglida shu gapi bo'lmagan yigit - yigit emasdir. Shu gapni qaysidir yigitdan intizor bo'lib kutmagan qiz ham - qiz emasdir. Dunyoga keldim, deb yurmasinlar! ..., Nasim oshna, Momoqiz haliyam ko'nglimning tub-tubida yashaydi. Uni birov ham, hatto Tilovberdining onasiyam bilmaydi. Men Momoqizni uyqularimda ko'raman. U jilmayib qarab turadi. Ko'zlarimni ochsam - uy zimiston, yonimda Tilovberdining onasi yotgan bo'ladi. Ay onasi, Momoqiz keldi - men uni ko'rdim, degim keladi. Demayman... Azongacha uyqum kelmay, Momoqizni o'ylab yotaman. Yana kelar degan umidda ko'zlarimni yumib kutaman. Yo'q, u kelmaydi..."(88-bet). Sevgi azoblari, ayniqsa, armonli muhabbat azoblari oshiq qalbini bir umr tirnab o'tadi. Bo'ri polvon Momoqizga bo'lgan muhabbatini butun umr qalbi tubida saqladi. Shu bilan birgalikda rafiqasiga nisbatan hurmatni saqladi. Uning bu hurmati nishonasi sifatida ayolini ismi yoki "rafiqam, xotinim", deb emas "Tilovberdining onasi" deb murojat qilishida ham yaqqol namoyon

ko'tarilmadi"(32-bet). Asar xotimasi badiiy g'oya takomilida katta ahamiyatga ega, u kitobxonning ana o'sha asardan chiqargan xulosalari va estetik zavqi uchun asos vazifasini o'taydi. Muallif Davron va Norsoat polvonlarning taqdir xotimasida ham polvonlikning shartlarini ko'rsatishga intiladi. Polvon u, avvalo, qalbi ilohiy tuyg'u – muhabbat dardi bilan og'rigan be'mor. Bu dard polvonni xokisor qiladi, uni nafs balosidan, turli hoy-u havasdan saqlaydi. Ushbu qissa faqatgina polvonlargina emas, balki butun erkak zoti uchun ham taalluqli bo'lgan ibratga boy asarligi bilan ham qimmatga ega. Unda hayotiy voqealar rang-barang bo'yoqlar ostida mahorat bilan chziladi, kitobxon bundan zavqlanadi, o'zi uchun ibrat maktabi yasaydi.

Vodiy odamlarning samimiy fe'l-atvori, ularning uyishqoqligi va mehnatsevarligi qadim zamonlardan buyon e'tirof etib kelinadi va bu haqda juda ko'plab asarlar yaratilgan. "Qirq besh kun" romani esa ana shu asarlarning eng dilga yaqini va eng mashhuridir. Asarda Aziz polvonning otashin muhabbati kitobxonga avval boshda shunchaki yoshlik beboshligi bo'lib tuyiladi, ammo muallif fikri bu borada o'zgacharoq. Muhabbat polvon ruhini tarbiyalovchi vositadir. Adib qahramonining muhabbat qissasini ham uning fe'l atvoridan kelib chiqqan holda tasvirlaydi: *"Qo'li bog'liq, belari kaltakdan ko'karib ketgan Azizxonga ko'zi tushdi. – Yana nima hunar ko'rsatdi, bu tiyilmas! Yigit aytib bo'lmaydigan gapni tildan chiqazishga istiloqa qilib, atrofdagilarga qarab oldi. Keyin kaftining orqasiga yo'talib gapira boshladi. – Bu yaramas tong saharlab devor oshib, qo'rg'onga tushipti. – Nima, o'g'irlikmi? – O'g'irlik qilsa ming marta rozi edim-a! singlimning qo'yniga kirmoqchi bo'lib endi ko'rpani ko'taryotgan ekan. Yaxshiyam toleimga peshobga uyg'onib qoldim. Kuyovga bo'lishib qo'yganniz-a! To'rt kundan keyin to'y. Bu yaramas bizni badnom qilmoqchi ekan"*¹⁸. Azizxonning muhabbati ham o'zi kabi olov edi. Uning yoriga bo'lgan sevgisi o'quvchida romantik dostonlardagi olovqalb oshiq-larni eslatadi: *"Uning muhabbati sekin-asta boshlanmadi. Olovdek lov etdi-yu yurak-bag'rini kuydirdi, qo'ydi. Ana o'sha kundan beri Azizxon Lutfinisaning yo'lini poylaydi... U o'tgan ko'chada atir*

¹⁸ Ahmad S. Ufq. – T: Sano-standart, 2016 – yil. 17-B. Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan ko'chimalar qavs ichida beriladi.

hidi anqib ketardi. Bu hid Azizxonni jinni qilar, uni ko`rolmagan kezlarida ko`chasini, yo`lagini hidlab kelardi. Nima bo`ldi-yu, Lutfinisa Azizxon tayin qilgan joyga kelmadi. Ertasi kuni uchrashganda uni ayamay shapaloqladi. Qiz bu kaltakni og`ir olmadi... Ularning bu darajada besaranjom, xavfli uchrashuvlaridan tashvishga tushgan qizning akasi Akbarali nima qilishni bilmay ko`p bosh qotirdi. Ota-onasi bo`lganda-ku, ularga maslahat solardi. Lekin, nachora, ular bu foniy dunyodan ko`z yumganlar. Oxiri marg`ilonlik kosib yigitdan kelgan sovchilarga rozilik berib, patir ushatdi. To`y kuni ham tayin qilindi. Singlisini ostona hatlab ko`chaga chiqarmay qo`ydi. To`y taraddudidan xabar topgan Azizxon – jinnining o`zi bo`ldi-qo`ydi. Marg`ilonga tushib kuyovning yo`lini poyladi. Uchratsam bir o`lasi qilib uraman, qizdan aynitaman, deb niyat qildi. Ammo kuyov bolani uchratolmay qaytib keldi. "Agar shunga tegsang so`yaman, pichoq charxlatib keldim", deb Lutfinisaga xat kiritdi"(19-bet). Muhabbat toshda gul undirishga qodir tuyg`u. Biz uning ta`rifmi keltirmasakda, badiiy adabiyot bilan yonmayon yashagan har qanday kitobnavis uning kuchiga ishonadi, qalbi ham sevgi, muhabbatga oshno yashaydi. Demakki, kitobxon, ayniqsa, bugungi kun o`quvchisi uchun Azizxondagi sevgi jununi g`ayriodatiy tuyilmaydi. Ammo shuni aytib o`tishimiz joizki, o`jizaga – ayolga qo`l ko`tarish har qanday sharoitda ham katta gunoh hamda ma`naviy zaiflik hisoblanadi. Azizxondagi bu holat keyingi voqealarda kuchayib boradi. Natijada bir insonning yigitlik sha`ni to`kiladi, ota-onasi el ichida mulzam bo`ladi, o`zi qadrdon qishlog`iga qaytib kela olmaydigan holatga tushib qoladi: "Bo`layotgan voqealarni alam bilan kuzatib turgan Ummatali bu ishlarga men gunohkor, degandek chetda, odamlar ko`zi tushmaydigan panada devorga suyanganicha qimirlamay turardi..., bolam, bolaginam, nimalar qilib qo`yding? Yurt oldida yigit boshining egilishi nimaligini bilasanmi, axir. Bu dog` Akbaralining ko`ksida butun umr qolib ketadi-ya. Seni kechirarmikin?! Bir kun sendan xun olsa, men qandoq chidayman. Ertaga tong otadi, odamlar betimga qaraydi. Shundog` og`il o`stirgan otaga la`nat demaydimi? Betimga tupurmaydimi?! Bolaginam, meni tiriklay o`ldirib qo`yding-ku, murda qilib qo`yding-ku!"(25-bet).Er kishi uchun or-nomus masalasi

xalq orasida obro' qozonishi, hurmatga sazovor bo'lishi uchun eng muhim omil hisobladi. Oriyatsiz yoki vijdoniga dog' tushirgan yigitning el oldida hurmati bo'lmaydi, sha'ni to'kiladi. Qahramonimiz ham shunday xatoga yo'l qo'ydi. Albatta, bu yozuvchining ijodiy niyati bilan bog'liq. Bu hodisa keyingi voqealar rivoji uchun xizmat qiladi: *"Tog'a ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha o'ylab qolgan Akbaraliga ich-ichidan kuyinib qarab turardi. Bu yigit hech kimga so'z bermagan yaydoq yigitlardan edi. Endi zabun, ko'zlar andishadan yerga boqqan. – Menga qara. Ko'p kuyinma! Ayb o'zingda. Ikkovining boshini qovushtirib qo'yganingda bunchalik bo'lmasdi. Singlingni lochin olib qochdi. Bilasanmi, lochin qandoq bo'ladi. Justini boshqa qushlarga talatib qo'ymaydi. Agar shundoq bo'lsa, u o'zini tog' qoyalariga urib halok qiladi. Lutfinisani zo'r lochin olib qochdi. Ketidan quvma! Bir kun bosh egib keladi. Tiz cho'kib qilmishiga uzr so'raydi"*(26-bet). Xalqimiz e'tiqodida yaqinlar rizoligisiz turmush qurish oxir-oqibat o'sha insonlar hayotining baxtsizlik bilan tugashiga ishonch shakllangan. Romanda ham ana o'sha tushunchaning bevosita ijobotini ko'rishimiz mumkin. Bu holatlarga keyingi o'rinlarda to'xtalamiz. Bu, albatta, har bir ijodkorning o'zi mansub bo'lgan millatning hayot tarzidan, dunyoqarashidan chiqib ketib asar yoza olmasligi bilan bog'liq. Ammo Azizxonning yorini himoya qilishda lochinga qiyos etilishi, muallifning qahramon xatti-harakatini oqlashga urinishdek tuyiladi, ayni vaqtda bu qiyoslov o'quvchining ham unga nisbatan fikrlarini ijobiylashuviga ta'sir etadi. Har bir rohat mehnatsiz qo'lga kiritilmaganidek, qiz olib qochgan dovyurak Azizxon ham ertangi kuni aniq bo'lmagan sharoitda sarosimaga tushib qoladi, ana shu davrdan boshlab Azizxonning dunyoqarashida o'zgarishlar davri boshlandi. Qiyinchilik hamda mehnat uning ma'naviy olamida tub burilish yasadi: *"Yigitlik g'ururi bilan hech narsadan tap tortmaydigan, qiz olib qochish allaqanday mardning ishi, deb bilgan Azizxon hozircha nochor edi. Xuddi o'rgatilgan ayiqqa o'xshab o'rgatuvchisining qamchisini kutib turganga o'xshardi. Agar musofirlik gardanida bo'lmaganda, bu joylar va odamlar sinashta kishilar bo'lganda, u albatta biron qiliq qilardi: yo birov bilan mushtlashardi, yo zo'ravonligini ko'rsatish uchun biron ta daraxtni*

sug`urib otardi. Afsuski, u hatto kelgindi itning ham dumi chotiga qisiqlik bo`ladi, deganlaridek, mo`mingina bo`lib, o`z taqdirini kutardi”(50-bet). Dunyoda musofirlikdan yomon narsa yo`q. Muallif esa qahramon holatini ochib berishda o`xshatishning ajoyib usulidan foydalangan. Azizxonni lochindan o`rgatilgan ayiqqa o`tkazib qo`yadi. Lochin erkinlikda yer-u ko`kning podshohiman desa, o`rgatilgan ayiq esa erksizlikda bir qafasning gadosi bo`ladi. Bu o`xshatish ayni vaqtdagi qahramonning ruhiy holatini aniq ko`rsatishga imkon tug`diradi.

Ayolga yaxshi munosabat barcha zamonlarda o`zbek er kishisining asosiy vazifalaridan bo`lib kelgan. Qahramonimiz Azizxonda ham avvalida Lutfinisaga bo`lgan munosabatida otashin sevgi bilan bir qatorda qo`rslik, past nazar bilan qarash sezilib turadi. Azizxonning o`zgarib borishi bilan birga, uning ayolga bo`lgan munosabatida ham o`zgarishni ko`rishimiz mumkin: *“Lutfinisa yerdan boshini ko`tarmay sekin dedi: - Qiziqsiz-a, shu ahvolda qandoq boraman. Ko`ylagimni qarang, konsert u yoqda tursin, shatta kiyib yurishga ham yaramay qoldi-ku. Azizxon bundoq qarasa, Lutfinisaning ustidagi ko`ylak bir ahvolda. Hayron bo`lib qoldi. – Nega shu paytgacha indamading? – Aytishim shartmidi? Ko`zingiz bor-ku, axir. Azizxon tilini tishlab qoldi. Axir dadasiga yuborgan yetti yuz so`mdan tashqari yana yuz sakson so`m puli bor. Yotoqda bolish tagida turibdi. Chekmasam, ichmasam, nima qilaman pul yig`ib, deb o`zini koyidi. Kechir meni, Lutfi. Basharangga, qosh-ko`zingga qarayveribman-u, bu yog`i esimga kelmapti*”(140-bet). Yuqoridagi misolda Azizxonning bolalarcha beg`uborligi, ko`ngil pokligi yaqqol aks etadi. U qat`iyatli, dildagi alam va anduhni darrov yuvib yubora olmaydigan, sof vijdon egasi. Buni uning asarning yana bir qahramoni Vaziraga bo`lgan munosabatida yanada aniq his etiladi. Asar davomida unga bo`lgan hurmat va mehr yanada chuqurlashib boradi: *“Azizxon o`zini kuch bilan bosdi. Asta unga yaqin kelib yotig`i bilan gapira boshladi: - Opajon, siz uyli-joyli xotinsiz. Unaqa aldamchi xayollarga bormang. Mendan nega umid qilasiz? Kechagina boshimga tog`dek kulfat tushgan odamman. Bir odam men uchun jonini fido qildi. Nahotki uning xotirasi bir oy bo`lmay unutilsa. Hali Lutfinisaning tuprog`i sovugani yog`-a! O`zingizni*

tuting!"(214-bet). Vafo – ulug' tushuncha. Kamdan- kam insonlargagina bu tuyg'u nasib etadi. U oriyat, vijdon, nomus bilan yonma-yon yuradi. Tahlilga olgan asarlarni kuzatish davomida o'zbek polvonlarini chin vafo timsoli ekanligiga guvoh bo'ldik. Azizxon ham bundan mustasno emas. Muallif asar davomida Azizxonni tarbiyalab, sinovlar asosida uni charxlab bordi. Oxir-oqibat u haqiqiy inson; chin ma'nodagi polvon bo'lib yetishdi: *"Vazira yana uning yelkasiga qo'l tashlab, ko'ksiga boshini qo'ydi..., seni deb uyimdan, ro'zg'orimdan kechdim. Kechalari uxlamay seni o'yladim. Yursam ham, tursam ham, ko'z oldimdan bir nafas nari ketmading. Endi meni arosatda tashlab ketmoqchimisan. Qayoqqa borsang, orqangdan soyadek ergashaman. Seni deb yo'linga jonini tikkan ne-ne o'ktam yigitlarni tashlab kelyapman..., Vaziraning gaplari qanchalik ta'sirchan, toshni eritadigan haroratga ega bo'lmasin, Azizxon Lutfinisa xotirasini oyoq osti qilolmasdi. Hozir uning Vazira tomonga bir qadam bosishi Lutfinisaning qabrini bosish bilan teng edi. U ehtiros olovida jizg'anak bo'layotgan juvonga yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'ldi: Menga qarang, axir men sizni umidvor qiladigan biron gap aytmagan bo'lsam, nima qilasiz o'zingizni ham meni ham qiynab. Axir men azador odamman"*(215-bet). Dunyoda muhabbat olovida qovurilayotgan ayoldek kuchli inson bo'lmaydi. U maqsadi yo'lida harnarsaga tayyor. Ammo Azizxondagi o'z yoriga hurmat va sof muhabbat oldinda uchragan barcha zarbalarga dosh bera oldi. Hali hayot nimaligini bilmagan, uning achchiq-chuchugini totib ko'rmagan bo'z bola xalq bilan hamnafas og'ir mehnat qildi, hamdardlikni, xalq koriga yarashni o'rgandi, suyukli insonidan ayrildi, dard-alam chekdi. Muallif obraz xarakterini shakllantirar ekan, uning atrofida uch tabiiy omilni jamladi. Birinchisi, inson ijtimoiy muhitdagina onglilik va foydalilik kasb etadi, ikkinchisi, mehnat insonni ulug'laydi. degan azaliy qonunning amaldagi isboti, uchinchisi muhabbat polvonni chin polvon qilib yetishtiradi. Azizxon obrazida biz bu uch holatning mukammal isbotini ko'ramiz va u kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylanib ulgurgan.

II bob yuzasidan xulosalar

Ma'naviyat masalasi adabiyot hodisasi bilan egiz tushuncha sanaladi. Bu adabiyotning didaktik funksiyasidan kelib chiqqan holda, kitobxonga badiiy voqelik asosida ibrat bo'la olishi va shaxs ma'naviyatini o'stirishga xizmat qilishida yuzaga chiqadi. Ishimiz davomida "polvon ma'naviyati" masalasini alohida bir bo'lim sifatida olishimizga ham ana o'sha sabablar, ya'ni adabiyot va ma'naviyat hodisalarining uzviy aloqasi asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'nikim, "Polvon obrazi" qanday obraz?" degan savolga o'zbek polvonlarining ma'naviy-axloqiy dunyosi, ichki-ruhiy olami haqida so'z yuritibgina javob topishimiz mumkin. Shu sabablarni hisobga olgan holda, quyidagilarni xulosa tariqasida keltiramiz:

- Hozirgi o'zbek nasrida polvon obrazi ma'naviy ehtiyoj yuzasidan yaritilmoqda, sababi jamiyatda or-nomus masalasining oqsab borishi bu kabi qahramonlarning badiiy adabiyot doirasida yuzaga chiqishi uchun asosiy omildir;

- "Polvon obrazi" qanday obraz?" degan savolga, "o'zbek polvonlari har tomonlama barkamol, ma'naviy dunyosi, vijdon pokligi va samimiyati bilan bugungi kun o'quvchisiga o'mak bo'la oladigan obrazdir;

- Muhabbat, do'stlik, vafu tushunchalari va polvonlarning bu tuyg'ularga bo'lgan munosabati orqali o'zbek polvonlarining xarakter xususiyatlari ochib beriladi. Polvonlarning xalqimiz milliy-ma'naviy qadriyatlariga munosabati, hurmatini ko'rsatib berish esa obraz xususiyatini belgilovchi asosiy unsurlardandir.

III BOB. POLVON OBRAZIDA DAVR QIYOFASINING BADIYY TALQINI

3.1. Polvon obrazi talqinida ijtimoiy muhit muammolarining aks ettirilishi

Har qanday ijod namunasi o'zi mansub bo'lgan jamiyat hayotidan ayri yaratilmaydi. Buning sababi esa oddiy, ijodkor o'zi yashayotgan jamiyatning muammolarini ko'radi, his etadi, shu muammo ta'sirida dard chekadi va qog'ozga tushuradi. Bu, albatta, shunchaki oq qog'ozni qoralash emas, balki dardni his etish, uni qayta ishlash, yechim izlash, o'z o'quvchisiga ham ana shu muammolarni ko'rsatish, his ettirish, ya'ni jamiyatni uyg'otishdir. Avvalgi boblarimizda o'zbek polvonlarining hayot tarzi, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy olamiga batafsil to'xtalib o'tishga harakat qildik. Keling endi, ijtimoiy hayotimizdagi muammolar polvonlarimizning ongi-shuurida qanday talqin etilmoqda, bu muammolarga ular qanday yondashadi va qanday yechim izlashlari haqida suhbatlashaylik. Avvalo, "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ijtimoiy hayot muammolari talqiniga to'xtalsak. Yaratilgan davridayoq yilning eng yaxshi qissasi nomiga sazovor bo'lgan ushbu asarda atrofimizda sodir bo'layotgan, e'tiborimizdan chetda qolib ketayotgan muammolarga keng o'rin beriladi. Bo'ri polvon obrazi orqali oddiy bir o'zbek kishining atrofidagi muammolarga befarq qarab tura olmasligi, xalq dardi uchun jon kuyuktirish hamda ichki ruhiy kechinmalarning jonli ifodasini kuzatamiz. Shu bilan birgalikda Bo'ri polvon timsolida o'zbek polvonlari avlodining bir vakili sifatida uni bardavom bo'lishini tilovchi, buning uchun qayg'uruvchi shaxs qiyofasini ko'ramiz. Davralarda raislik qiladimi yoki yosh polvonlarga ustozlik qiladimi, uning qalbidagi samimiy muhabbat doimo yuzaga ufurib turadi: *"Bolalar davra aylandi. Biroq chappa tarafdin. Odamlar gurr etib kulib yubordi. Bo'ri polvon ularni to'xtatdi: – E-e, manovi tarafdin aylaninglar! Kulmang, xaloyiq polvonlar g'ayratiga chiday olmay shoshib qoldi. Polvon – shuytib-shuytib polvon bo'ladi-da!"*

*Bolalar davrani ikki aylanib, qoʻl herib koʻrishdi. Shukur polvon choponining oʻngirlarini qayirib, belbogʻiga qistirdi. Enkayib, oʻng qoʻlini oldinga sermah tashlab bora berdi. Ermat polvon ishtonini yuqoriga bir koʻtarib qoʻyib, uyam qulochini sermah kela berdi. Ha, qulochingdan, polvonchalar!”¹⁹. Boʻri polvonning yosh polvonlarga, umuman, polvon xalqiga mehri boʻlakcha. Har bir yosh polvonni kelajakda xalqining oldi boʻladigan pahlavon boʻlishini xohlaydi. Har biriga ustozlik qiladi, toʻgʻri yoʻlga soladi. Ich-ichidan ularni oʻz farzandidek sevadi: “Shukur polvon, qattiq-qattiq chil bering! Kim aytadi sizni raisning uli deb! – Ermat polvon, koʻp shalpaymang, dadil boʻling! Shukur polvon yiqitdim, deb oʻylab, bosh bakovul qoshiga oʻtirdi. Ermat davra oʻrtasida choponiga ilashgan somonlarni qoqib Shukur polvonga angrayib qarab: – Gʻirrom, men yiqilmadim, - dedi. Boʻri polvon Shukurning yelkasiga qoʻlini qoʻydi: – Polvon, yiqitolmadingiz, boshqatadan olishing. Yelkangizni koʻp siltamang. Yo otangizga ishonyapsizmi? Otangiz idoraga rais, davraga Boʻri polvon rais! Turing! Shukur polvon qovoq-tumshuq qilib, otasining yoniga borib oʻtirdi. Boʻri polvon uning peshonasini silab, suydi: – Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi. Aylanay polvonimdan”(12-bet). Halollik va toʻgʻrilikni oʻziga odat qilgan insonga doimo qiyin boʻladi. Ammo qanchalik ogʻir boʻlmasin, u albatta yaqinlari orasida hurmatga sazovor boʻladi. Agar shunday inson xalq boshida boʻlsa, unda, albatta, jamiyat gullab yashnaydi. Kitobxon Boʻri polvonning xarakter xususiyatlarini kuzatish davomida, ushbu obraz muallifning toʻla idealidagi obraz ekanligiga guvoh boʻladi. Adib ushbu obraz orqali oʻquvchiga aytar gaplarini juda taʼsirli ifodalaydi: “*Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi: Qishloq odamlari urugʻ-aymoqlarga boʻlinib olishadi. Qishloqda urugʻlar koʻp: olchin, togʻchi, paritoʻp, qovchin, goʻrxov, yuz, eshbadal, qashqa... barchasi ham polvon aymoqlar. Bordi-yu chetdan polvonlar kelgan boʻlsa-chi? Unda qishloqning jami urugʻlari birlashib, ular bilan kurashadi. Odamlar kindik qonlari tomgan yer shon-sharafi, oriyati uchun olishadilar. Vatan**

¹⁹ Мурад Т. Юлдузлар мангу ёиқиди. –Т: Фахур Ғулов номидати Адабиёт ва санъат назарияти. 1980. 11-Б. Кейинги ўринларда ушбу манбадан олинган кўчирилмалар каве теида бериллади.

– *kindik qon tomgan yerdan boshlanadi!*” (13-bet). Ha, vatan muqaddas tushuncha, u unda yashovchi har bir inson uchun qadri va suyuk. Ammo uning gullab yashnashi unda istiqomat qiluvchi insonlarga bogʻliq. Bundan tashqari, ana oʻsha xalqni boshida turgan yurtboshida ham katta masʼuliyat boʻladi, donishmandlardan qolgan bir fikr bor: “Agar xalqqa it boshchilik qilsa, xalq ham itga aylanadi, agar sher boshchilik qilsa sherga”. Qissada ham ushbu muammoning bevosita aksini koʻrishimiz mumkin. Muallif bu masalani koʻtarishda aynan oʻz tilidan bayon etmay, balki boshqa bir vositadan, odamlar orasida yuruvchi mish-mishdan foydalanadi. Bu bilan esa ushbu gap koʻpchilikka maʼlum ekanligi anglashiladi: *“Mish-mishlarga qaraganda raisning oyogʻi buzuq edi... Kokxoz mirobi suv yoqalab toqqa chiqib ketadi. Quloqlarda haftalab och-nahor yotadi. Qishloq suvsiz qolmasin, deydi. Bu yoqda... Rais uning xotini bilan oʻynaydi...”* (35-bet). Parchada bevosida ikki holatning, yaʼni mirobning ogʻir mehnati hamda qishloq raisining axloqsizligi bir-biriga kontrast qoʻyiladi. Xalq boshida turgan insonning bunday yoʻl tutishi esa butun qishloq ahliga boʻlgan hurmatsizlikni ifodalab, muallif oʻz oʻrniga nomunosib boʻlgan insonning hokimyat tepasiga kelib qolishini va buning fojeasini koʻrsatib beradi.

Kurash sanʼati ota-bobolarimizdan bizga oʻtib kelayotgan qadimiy merosimiz. Surxon vohasida kurash sanʼat darajasigacha koʻtarilgan. Oddiy xalq toʻy-u tomoshalarda, bayramlarda kurash tushishib, koʻpkari oʻynab koʻngillarini xushnud etadi. Qissamiz qahramoni Boʻri polvon ham kurash sanʼatini kelajak avlodlarga qoldirishni oʻziga burch deb biladi, har oʻgʻlonni polvon deb chaqiradi, haqiqiy polvonlikka munosib boʻlishni xohlaydi: *“Boʻri polvon oʻzi gaplashar edi: “Biz polvonlik maktabida oʻqimadik. Polvonlik bizga ota meros, pushtidan-pushtga, qondan-qonga oʻtib kelyapti. Polvonlikning koʻzga koʻrinmas, til bilan tushuntirib boʻlmaydigan shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlarga biladi. Biz bilamiz. Bu sirlar hech bir kitobda yoʻq”* (45-bet). Boʻri polvon taʼkidlaginidek, har bir sanʼatining oʻz ustasidan boʻlak inson tushunmaydigan, tushuna olmaydigan oʻz sirlari boʻladi. U xoh nafis sanʼat turi boʻlsin, xoh amaliy sanʼat. Polvon

bo'lishning ham o'z shartlari, sir-sinoatlari bor. Har qanday bilagi kuchga to'lgan o'g'lon polvon bo'la olmaydi. Buning uchun polvonlik qoni uning tomirida oqishi kerak, ruhiy olami mardlik, jasurlik, tantilik kabi ezgu fazilatlar bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Shundagina u haqiqiy polvon sanaladi. Bo'ri polvonning polvonlik haqidagi qarashlari insonning ma'naviy dunyosi, xalqning xalq bo'lishi kabi tushunchalar bilan bevosita, chambarchas bog'lanib ketgan. Chunki u har bir narsada polvonlikning, bu san'atdagi mardlikning, tantilikning jilvasini ko'radi: *"Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlari bilan xalq! Otabobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq! Ko'pchiligini birovlar... birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi. Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik. Shunday keta bersak hademay o'zimizniyam boy berib qo'yamiz. Uyog'i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Sal qoldi – xalqning o'ziniyam eskilik sarqitiga chiqarib yuborishimizga"*(45-bet). Muallif Bo'ri polvon tilidan ichidagi dard-alamni to'kib oladi. Fikrlar to'lqini yanada avj olib boradi: *"Bugun buni, ertaga uni yo'qota bersak adirdagi podadan nima farqimiz qoladi! Biz hademay dunyodan ketamiz. O'zimiz ketsak-ku go'rga-ya. O'zimiz bilan... buni rais biladimi? Bo'ri polvon raisga qarab-qarab qo'ydi. Yana nimalar yo'qolib boryapti. U o'ylab o'yiga yetdi. Avlodlar almashgan sayin... "Yo pirim-e, tuf-tuf-tuf... Yurak yo'qolib boryapti! Farzandlar hayotga hayotga heparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilikning farqiga bormaydi. Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi. Odam kim-u, mashina kim – bilib bo'lmay qolyapti"*(45-bet). Adabiyot o'zining pragnozlash funksiyasi asosida kelajakni oldindan bashorat qiladi. Bundan salkam yarim asr oldin yozilgan ushbu mo'jaz qissada kelajak avlod tashvishi, farzandlarning o'zgarib borayotgan e'tiqodidan, insonlarda vijdon tushunchasi yo'qolayotganidan yozg'irish o'z aksini topadi. Texnika-texnologiyalar asri deb nom olgan, ayni chog'da temirga sig'inish kuchayayotgan ushbu davrimizda inson qalbi ham temirga aylanib qolayotgandek. Adibimizni qiynagan savollar, balki o'tgan asrning daxshatli kunlari, xalq e'tiqodining so'nib borishi, omma ichida ruslashishning avjga olganidan paydo bo'lgan kechinmalar bo'lsa-da, ammo. fikrimizcha, bu

gaplar hali eskirmagan. Jonajon O'zbekistonimiz mustaqillikni qo'lga kiritdi, minglab yillar intizor kutilgan, sog'inilgan. bobolarimizga nasib etmagan ozodlik kunlarini mana bugun biz ko'rib turibmiz. Biroq savol tug'iladi, mustaqillik osonlikcha qo'lga kiritilmadi, ne-ne insonlar uning uchun shirin jonini qurbon etishdi, biz bu ne'matga loyiqmizmi? Texnikalar kuchayib borayotgan bir davrda biz ham ana o'sha texnikaning bir bo'lagiga aylanib qolmayapmizmi? Texnikani inson emas, insonni texnika boshqarib qo'ymayaptimi? Bekorga adibimiz To'g'ay Murod: "*Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi. Odam kim-u, mashina kim – bilib bo'lmay qolyapti*", - demagan edi. Ha, u kelajakni oldindan ko'rgan edi. Bo'ri polvon orqali aytilgan ushbu gaplar aslida muallifning ichki dardi, hasratidir. Ushbu qissa ham muallifning o'zbek xalqi doimo o'zligini saqlab qolishi kerakligi isatagidan paydo bo'lgan. U o'z savollariga javobni o'zining olis qishlog'idan, qadrdon polvonlari orasidan izlagan. Xalqining doimo birligini tilagan holda an'analarimizni, urf-odatlarimizni bardavom bo'lishini, kurash san'ati jahon sport turlaridan biriga aylanishini niyat qilgan. Xalqimizning Bo'ri polvon kabi pahlavonlarini jahon tanishini orzulagan: " – *Televizorda Monreal olimpiadasini ko'rdilaringizmi? Klassik kurashni olib ko'rsatdi. Biram sovug'-e, shuyam olish bo'ldi-yu. – Hm, juda lanj olish. Klassik kurashda oyoq chil berish dagan gap yo'q. – Yana tag'in jahon sporti emish deng. – U fransuzlarniki-a? – Shu, fransuzlargayam qoyilman – o'zining olishini butun jahonga yoygan-a. – Mo'min muallim, mana siz o'qimishli odamsiz – uyingizda kitobingiz ko'p, deb eshitaman. Siz ayting, nega endi lanj klassik kurash butun jahon sporti bo'ladi-yu, o'zimizning olishni faqat to'yda yo "hosil bayrami"da ko'ramiz? Yo olishimiz sport emasmi? – Sport ham gapmi, san'at! Ko'ryapsizmi, Tilovberdining o'ynab olishishini. Buni hech qaysi trener, seksiya ham o'rgata olmaydi. – Bali! Uzoqlarga qarab yashaymiz-u, oyog'imiz ostidagi gavharni ko'rmaymiz"*(66-bet). Dunyoda hech bir narsa sportchalik xalqni jahonga tezda tanitmaydi, nomini yuksaklarga ko'tarmaydi. Xalqimizda esa bunday sport turlari talaygina. Hamda hech bir yurt vakili yo'qki, o'z yurtining jahon maydonidagi yutuqlaridan quvonmasa, faxrlanmasa. Oddiy

tomoshabinlar suhbatidan olingan ushbu parchada xalqimiz azaliy orzularining ovozi eshitgandek bo'lamiz: "Ota-hovamizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo'r polvoni biz bo'lamizku-ya, nima dedingiz, sho'ro bova? – Ko'p noshukurlik qila bermanglar, haliyam zo'rmiz. Ana, jahon chempionlari Sayfiddin, Sobir Qurbonov... – E-e, bo'tam, ular o'zimizning olishdan chiqqani minan sambo bo'yicha champion bo'lgan-da. – Sizga qandayi kerak? – Shu, o'zimizning olish bo'yicha jahon chempioni bo'lsa ekan. – Gapingizga tushunmadim, Nurmat tog'chi. – Nima balo, kallang shamolda qolganmi deyman. Masalan, dunyodagi ko'pdina xalqlar o'zlarining hech bo'lmaganda bitta sportini jahon miqyosiga ko'targan. Bizdan esa jahonga ko'tarilgan bittayam sport turi yo'q. – Bu o'zimizga bog'liq..."(68-bet).

Nurmat toqchi o'kinib aytganidek, O'zbekiston o'zining uzoq o'tmishi davomida o'zining biror sport turini jahon maydonlariga olib chiqa olmagan. O'zbek xalqining ne-ne kuragi yer ko'rmagan polvonlarini jahon xalqlari tugul, hatto shu o'lka odamlarining o'zi ham tanimas edi. Hech bir niyat bekor ketmas deganlaridek, muallif orzularining ijobati bugun amalga oshmoqda. O'zbek milliy sporti bo'lmish kurash jahon sport turlaridan biriga aylandi. Vatanimiz o'g'lonlari xalqimizning nomini jahonga tanitmoqdalar. Manaman degan jahon chempionlari bizning pahlavonlar oldida ojiz bo'lib qolmoqdalar. Yana ko'plab marralarga erishish, adibimiz orzulagan kunlarga yetishimiz bu, albatta, o'zimizga bog'liq bo'lgan narsa. Xalqimizning birligi, vatanimizning istiqboli uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qadimdan alpqomat, jasur o'g'lonlar yurti bo'lmish O'zbekiston eng buyuk davlatlardan biriga aylanadi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi Tog'ay Murodning ilk ijod namunasi hisoblanadi. U yaratilgan davridayoq mashhurlik pog'onalarini zabt etdi. Chunki unda xalqimizning boy urf-odatlari, turmush tarzi ishonarli tarzda, ortiqcha detallarsiz, samimiy til bilan hikoya qilinadi. Kitobxon o'zini voqealarni ko'zi bilan ko'rayotgandek, polvonlar kurashini tomoshabinlar qatorida o'tirib kuzatayotgandek his etadi. Hakamlik qiladi, ma'qullaydi, rad etadi. Bundan tashqari, asarda sevgi sujetining mavjudligi, halollik, to'g'rilikning ulug'lanishi, ijtimoiy hayotimizdagi muammolarga keng o'rin berilishi. Bo'ri polvon qismati

orqali polvonlar hayotining ochib berilishi o`quvchining diqqatini o`ziga jalb etadi. Tahlilimiz davomida shunga guvoh bo`ldikki, polvonlar Yaratgan inoyat etgan jismoniy kuchdan tashqari, ruhiy quvvat hamda qalb go`zalligiga ega insonlar. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini esa polvonlar hayotidan hikoya qiluvchi, polvonlikning og`ir hamda mashaqqatli yo`lini ko`rsatib beruvchi eng yaxshi asar, desak xato bo`lmaydi.

Barchamizga ma'lumki, oila jamiyatning bir bo`g`ini sanaladi. U jamiyatning kichik bir modelidir. Davlatning eng katta yutug`idan tortib, eng kichik fojeasigacha unda o`z aksini ko`rsatadi. Butun bir jamiyatning joriy holatdagi ham moddiy, ham ma'naviy qirralarini ko`rish uchun birgina oilani kuzatish yoki bir necha oilalarni solishtirish ham kifoya qiladi. Biz tahlilga tortgan Luqmon Bo`rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasida ham ana shunday turli xil taqdirlar orqali jamiyat vakillarining yutuqlari, kamchiliklarini hamda ongli mavjudot sifatidagi ahamiyatini keng pardalarda namoyish etilgan. Muallif, avvalo, o`zining badiiy niyati asosida qahramonini harakatga keltiradi. Qahramon adibning o`y-xayollarini, orzularini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Adibimiz ham shu kabi mulohazalarini, qarashlarini qahramonlari orqali juda chiroyli va ta'sirli ifodalagan. Avvalo, o`z qishlog`ining polvonlari deb tan olingan, mard o`g`lonlar Davron va Norsoat obrazlari ikki turli xil oilaning vakili sifatida maydonga chiqadilar. Ularning harakatlari, qarashlari va maqsadlari turli tuman. Bir davr vakili bo`lsalar-da, boshqa-boshqa muhit vakili. Muallif obrazlardagi solishtirmalik orqali badiiy g`oyaga yo`naladi.

Moddiy boylik insonning yashash instinktini oshiruvchi ne'matlardan biri. Unga ega bo`lgan insonning so`zlarida harorat va harakatlarida esa ishonch sezilib turadi. Odamlar buni tan oladilarmi yo`qmi, inson o`zini shunga munosib tutishga harakat qila boshlaydi. Atrofdagilar ham unga joriy holati bo`yicha muomala qiladilarki, uning o`zi ham endi bunga ko`nikishga majbur. Qissada Davron obrazida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkin. To`g`ri u hech qachon Kengsoy qishlog`ining raisi o`g`li ekanligidan foydalanishga yoki bu bilan ko`krak kerishga urinmagan, ammo atrofdagi boshqa insonlarning

munosabati va nima bo'lganda ham qishloq raisi bo'lmish Quvondiq qaysarning farzandi ekanligi o'zini sarkash va mag'rur tutishiga, boshqa bolalardan ajralib turishiga sabab bo'lgan. U xohlaydimi yoki yo'q, muhitning o'zi uni shu pog'onaga olib chiqdi. Ammo bu imkoniyatlar uni baxtli qila olmadi, qalbi halovat bilmadi, hamma narsani topdi-yu, biroq o'zini, muhabbatini topa olmadi. Atrofidagi jonli muhit uning xarakteriga ta'sir o'tkazdi, qalb ko'zining xiralashishiga, mohiyatdan uzoqlashuviga sabab bo'ldi. U raisning o'gli bo'lmaganida "Kengsoy burgutlari"ning sardori bo'la olarmidi? Bu mansabga uni faqatgina o'sha davrda tutgan o'rni olib chiqib qo'ydi, deyish xato bo'lar, albatta. Uning o'zi ham shaxsiy fazilatlargan holi emasdi. Boshqa bolalardan ustun bo'lishiga undagi qat'iyat, so'zlaridagi sarbalandlik ham sabab bo'lib xizmat qilgan. Ammo chuqurroq o'ylab qaraganda esa qat'iyat va sarbalandlikning sababi yana moddiy holatga borib taqaladi. Fikr qilib aytganda, muallif bir-biriga bog'langan hayotiy haqiqatlar zanjirini ustalik bilan terib chiqadi va bu orqali badiiy tafakkur rivojiga erishdi. Davronning maktab hovlisida tomosha ko'rsatganida uni raisning farzandi ekanligi asrab qoldi. Buni qarangi, uni sahna markaziga olib chiqqan narsa ham otasi orqali unga nasib qilgan maqom edi: *"Davron sarosima ichida bir iljayib, bir bosh qashlab turardi. Direktor ildam intilib vakilning qulog'iga allanimalarni shivirladi. Aftidan, u maynavozchilik qilgan bola raisning o'g'li ekanligini uqtirdi, shekilli, vakil vajohatidan tushib, sovuq tirjaygan ko'yi joyiga qaytib o'tirdi. Davronning o'rniga otilib chiqqan faol qiz ma'shum xatoni to'g'rilagan bo'ldi"*²⁰. Bizga ma'lumki, mash'um sho'ro tuzimi davrida necha-necha ota-bobolarimiz "xalq dushmani" sanalib umrlari qamoqxona panjarasi ortida xazon bo'lgan. Ammo har qanday davrda ham falokat har kimga turli xil ta'sir etadi.

Davron umr bo'yi moddiy qiyinchilik nima ekanligini bilmadi. Uning eng yaqin do'st-birodari, yana bir qahramonimiz Norsot esa uch-to'rt so'm uchun ta'tilni ham mehnat qilib o'tkazar edi. Maktab

²⁰ Бўрихон Л. Қўёш хали ботмаган. //Ёшлик. 2015. 1-сон. 12-Б. Кейинги ўринларда ушбу маънадан олинган кўчирмалар кавс ичида берилди.

o'qituvchilari ham Davronga boshqacha munosabatda bo'lar, undan. u orqali esa Quvondiq qaysar zug'midan hayiqar edilar: "Davron ilkis bosh ko'tardi. Lablari qimtilib, qoshlari chimrildi. So'ng alam va achchiqdan qip-qizargan ko'yi o'rnidan irg'ib turdi-da eshik tomon shitob bilan yurdi. Muallimning rangida rang qolmadi. Kimsan, rais, kimsan, Quvondiq qaysar bo'lgan odamning bolasini xafa qilish qanday oqibatlarga olib kelishini u juda yaxshi bilardi. O'qituvchi qo'llarini qanotday yoyib arazchining yo'lini to'sishga urinarkan, yalinchoq bir tovushda: "Davronjon, uzr, Davronjon, hazillashdim", - deya bot-bot takrorlard. Ammo sarkash bola unga zarracha quloq solmay o'zi tomon iltijo bilan uzalgan qo'llarni siltab tashlab tashqariga otildi. Biz sinfdoshlar o'rnimizdan duvva qo'zg'aldik. "Iltimos, qaytaringlar uni, - dedi ustoz jonsarak tipirchilab, - Norsoat, G'iyos, ortidan chopinglar!"(12-bet). Muallif bu tasvirlar orqali o'zbekchiligimizga xos bo'lgan ba'zi milliy illatlarni qalamga oladi. Badiiy umumlashmalarga erishadi. Davronning xarakteriga, e'tiqodiga bu holatlar ta'sir etmay qolmadi. Uning o'zini topish, anglash jarayoni juda qiyin kechdiki, u yillar davomida ruhiyati azob chekib keldi. O'zida o'jarlikning jabrini faqatgina o'zi emas, balki boshqalar ham ta'tib yashadi. Ko'p ham o'ylab o'tirmay, e'tibordan chetta qoldirgan voqea-hodislar inson botinida emas, balki zohirida ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin ekanligini Davron obrazi orqali yozuvchi yaqqol gavdalantiradi. Balki, Davron yashagan muhit atrofdagi boshqa bolalarnikidek bo'lganida, u hayotdagi yaxshi, yomon haqiqatlarni real ko'z bilan ko'rar, maqsadini aniq belgilar, do'sti Norsoat kabi muhabbatning asiri bo'la olarmidi? Demak, Davron qismati orqali xulosa chiqarishimiz mumkinki, moddiy boylik va to'kinlik insonni o'zini baxtli his qilishi yoki hayotda qiyinchilik ko'rmay yo'lini topib olishi uchun yetarli omil emas. Insonni, avvalo, jonli muhit, qiyinchilik kamol toptiradi.

Oila shunday bir dargohki, uning birdamligi oldida butun olam tortishish kuchi ham ojizlik qiladi. Chunki u insonlarning oddiy uyushmasi bo'lmay, balki uning a'zolari bir-biri bilan ham tabiiy, ruhiy va ma'naviy jihatdan bog'lanib turadilar. Va ularni bir joyga jamlovchi

vosita va kuch ota-onadir. Ayniqsa, bu holat o'zbek oilalarida juda mustahkam va muqaddas. Ota-ona, avvalo, farzandlarni voyaga yetkazuvchi, ta'minotchi, asosiysi esa, farzandini haqiqiy shaxs, komil inson bo'lib yetishishida o'rnak maktabi hamdir. Ota-onaning yaxshiyomon amallari farzandida bo'y ko'rsatadi. Ota farzandi tufayli yo rahmat, yoki la'natga ega bo'ladi. Ota-ona xulqidagi ma'naviy buzqlik oilani parokanda bo'lishiga, ular o'rtasidagi munosabatlarning salbiy tus olishiga olib keladi. Qahramonimiz Quvondiq qaysar ham bir qarashda tanti, sarkash kishi, sahro odamlariga xos bo'lgan mehnatkashlik, har bir ishni puxta bajaradigan, tashkilotchi shaxs. Muallif o'quvchiga uning oilasini, farzandlarini va undagi ahvolot bilan tanishtiradi, xulosani esa o'quvchiga tashlaydi. E'tibor bilan qaralsa, qissada Quvondiq qaysar bilan farzandlarining biror bir suhbatini berilmaydi. Farzand va ota o'rtasida ruhiy, ma'naviy yaqinlik jihatlari bo'y cho'zmaydi. Quvondiq qaysarning farzandlaridan, oilasidan uzoqlashuviga nima sabab bo'ldi ekan? Xiyonat. Oilaga, farzand haqqiga xiyonat farzandlarining noshud va noqobil bo'lishiga sabab bo'ldi. Faqatgina Davron bu hayotda o'zini anglashga qiynalmadi. Balki undan katta ikki o'g'il ham ma'rifat sohiliga yetib borolmadilar. Davrondan farqli o'laroq ular bunday narsa haqida o'ylab ham ko'rmasdilar. Birlari ota nomi soyasida noshud, birlari esa vaziyatga isyon tariqasida noma'qul yo'ldan yurib ketdi. Mana otaning farzandlar hayotidagi qoldirgan surati. Atrofimizda biz ham minglab-millionlab shunday otalarni topishimiz mumkin. Ularning farzandlari Quvondiq qaysarning farzandlari holiga tushmaydi deb kim ayta oladi? Yozuvchi biz ko'rgib turgan, ammo anglamagan real hayot qatlamlarini, hali biz kashf qilmagan, bizga notanish bo'lgan rangtasvirda aks ettirdi. Asl mohiyatni ko'rsata oldi.

Norsoat va Davron obrazi bir-biriga chambarchas bog'langan, ularning yaxshi va yomon xislatlari ularning harakatlari asnosida ochib boriladi. Davronning qarori Norsoatning chin muhabbat quli ekanligini o'quvchiga isbotlab bersa, Norsoatning vazmin harakatlari, muhabbat yo'lida sirlitoblighi Davronni sarkashligini yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Muallif bir-birini taqozo etuvchi vaziyatlarni qissa tarkibiga shunday terib chiqqanki, bir voqea-hodisa, albatta ikkinchisini talab

qiladi. Asarga bitta soʻz yoki eng jajji detal ham shunchaki kiritilmagan. uning ham asar kompozitsiyasida yoki boʻlmasa badiiy mantigʻda oʻzining oʻrniga ega. Qissada Davron va Norsoatga nisbatan qishloqdoshlarining qisqagina munosabati beriladi:

“ Bu gap avval qay biridan chiqdi ekan?

– Kimdan boʻlardi, raisning anovi erkatoyidan-da, doim bemaza ishlarni boshlab yuradi. Bolaligidan shunday buzgʻunchi, janjalkash.

– Hech oldi qaytmagan-da, bu bolaning. Hamma narsaning egasi oʻzimman deb oʻrgangan, hech kimni yuz-xotir qilmaydi.

– Norsoatboy b-i-r shohini sindirsa, yaxshi boʻlardi-da”(2-son, 16-bet).

Insonning kimligini atrofda u kabi boshqa insonlar belgilaydi. Muallif bu kichik parchada xalq tili orqali boʻlayotgan vaziyatga oʻzining munosabatini bildirib ketadi. Kitobxonga masalaning mohiyatini oydinlashtiradi. Ammo maqsadimiz qaysidir obrazni muvofiq yoki nomuvofiqqa ajratish emas, balki ularning xarakteriga taʼsir oʻtkazayotgan ijtimoiy muhit qirralarini koʻrib chiqish, mushohada yuritish va kerakli xulosalar chiqarishdir. Zeroki, hech bir inson muhitdan holi boʻlmaganidek, hech bir asar davrdan holi tarzda yaratilmaydi. U ijtimoiy muhitdan suv ichadi. Uning bagʻridan unib chiqadi. Va oʻzida ana oʻsha muhitning, insonlarning tasvirini yaratadi.

Adabiyotning ijtimoiy hodisa ekanligi barchamizga ayon. Kitobxon badiiy asar mutolaasida bu holatni yaqqol his etadi, tahlil qiladi. Va barchamizga ayonki, har bir davrning oʻz muomosi, yechimini kutib yotgan chigalliklari boʻladi. Tahlilimizdagi asarlarda ham polvonlar hayoti va maʼnaviyati bilan bir qatorda mavjud sharoitning muammolari yoritilib oʻtadi. Keling, endi har bir asarda koʻtarilgan ijtimoiy, maʼnaviy muammolarni tahlil qilib koʻraylik. Avvalo ishni Said Ahmadning “Qirq besh kun” romanidagi Azizxon – Ummatali, Azizxon – Akbarali va Azizxon – Esh polvon obrazlari oʻrtasidagi munosabatlar bilan boshlaylik. Avvalo, Azizxon va Ummatali masalasida ota va bola munosabatining mavjud tuzumdagi umumlashma tasviri yaratiladiki, romanda yana boshqa shunday sujet liniyalarini uchratamiz. Masalan, Tursunboy va Ikromjon, Nizomjon va Inoyat

oqsoqol o'rtasidagi munosabatlarda ham ota va bola o'rtasidagi ziddiyatli holatlar bor. Albatta, bunday muammolar qadim zamonlardan beri mavjud va u o'z aksini adabiyotga ham tez-tez tushirib turadi. Ammo o'zbekchilikda farzand yuziga bet kelolmaydi, ota bolasini doimo avaylab yashaydi. Bu holat adabiyotga ham xuddi shu tarzda ko'chib o'tadi. Azizxon haqiqiy inson va polvon bo'lib kamol topishida Akbarali va Esh polvonning ham o'rni yaqqol seziladi. Azizxonning boshiga tushgan og'ir judolik uning ruhiyatida keskin burilish yasadi. Demak, insonlar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiylikning asosiy omili bo'lib xizmat qilar ekan. Bundan tashqari, adib Katta Farg'ona kanali qurilishida ter to'kayotgan odamlarning uyushqoqligini shu darajada mahorat bilan tasvirlaydiki, o'zbek xalqi mentalitetiga xos bo'lgan fazilatlar yaqqol yuzaga chiqib keladi.

Voha odamlarining samimiyati va sodda qishloq hayotining udumlari juda chiroyli tasvirlangan To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida Bo'ri polvon obrazi orqali kelajak avlod tashvishi, farzandlarning ko'ngil e'tiqodi masalasiga katta e'tibor beriladi. Oddiy qishloq raisi bo'lmish Bo'ri polvon vatandoshlarining taqdiri, yosh avlodni ota-bobolarining chinakam davomchisi bo'lishi uchun tun-u kun bosh qotiradi. Ijodkor o'zini qiynagan muammolarini Bo'ri polvonning ichki ruhiy holati fonida tasvirlaydi.

Chinakam iste'dod sohibining fikri teran, tili o'tkir, vijdoni sof bo'lishi lozim, shundagina u millatining haqiqiy iftixoriga aylanadi, vatandoshlari qalbida bir umr yashab qoladi. Ijod namunasida millat qalbi, ruhiyati aks etib turmas ekan, u hech qachon o'quvchisi qalbiga yetib bormaydi. Faqatgina ruhiyatni berish bilan, albatta, ko'zlangan muddaoga erishib bo'lmaydi, qachonki asarda xalq dardi, insonlar qalbidagi alamlar, dardlar qalamga olinib, unga davo izlanar ekan, shundagina ham yozuvchining, ham o'quvchining murodi hosil bo'ladi. Abadiyatga muhrlanarli asar dunyoga keladi.

3.2. Polvon va muhit munosabatini yoritishda

elegiyaviylikning o`rni

Barcha mavjudotlar ichida inson ong tizimining shakllanganligi bilan boshqa maxluqotlardan ajralib turadi. Ong esa inson individiga tafakkur, til va shu orqali vujudga keladigan ma'naviy, hissiy, axloqiy va boshqa tushunchalarni yuzaga chiqishi uchun imkon tug'diradi. Ana shunday ma'naviy, hissiy va axloqiy tushunchalar negizida vujudga keladigan, shaxs omilini shakllantiruvchi hodisalardan biri bu "o`z menini namoyon qilish"dir. Elegiyaviylik polvon obrazi xarakterini, jamiyat va polvon shaxsi munosabatini ochib berishda muhim omillardan. Avvalo, bu adabiy istilohning anglatayotgan ma'nosiga to`xtalib olsak: "*Elegiyaviylik uchun eng muhim motiv – yo`qotishdir. Biroq yo`qotishning o`zi elegiyaviylik modusini belgilay olmaydi(yo`qotish motivi tragizm yoki drammatizmida ham bo`lishi mumkin). Elegiyaviylik uchun muhimi yo`qotishdan keladigan iztirob, ayni shu narsa elegiyaviylik modusidagi asar qahramoni uchun o`z "men"ini namoyon qilish usuliga aylanadi. Elegiyaviy qahramonga makon yoki zamonda atrof-dagilardan chetlashish – uzlatnishlik yoki bir joyda qo`nim topmay, jahongashta bo`lib yashash xos, shuning o`zida qahramonning atrof-muhitga qarshi sokin isyoni botindir*"²¹. Xo'sh, tahlilimiz ostidagi asar qahramonlari bo'lmish polvonlar "men"ini namoyon qilish yo'lida nimalarni boshdan kechiradilar? Polvon obrazida "yo`qotish" (muhabbatini, do'stini, or-nomusini va b) "menni topish" uchun vositadir. Keling, tahlilni shu nuqtadan boshlaymiz.

Said Ahmadning "Qirq besh kun" romani qahramoni, butun vodiydaga dong'i ketgan Azizxonning ma'naviy dunyosida burilish sevgilisidan judolik natijasida yuz berdi. Muallif o`quvchisini ana o'sha burilish uchun tayyorlab boradi. Azizxonni kuch-g'ayratda tengsiz qilib ta'riflaydi: "*Minilmagan asov otning o`zi. Bilmay minganni irg`itib tashlaydi. Egar urdirmaydi, hurkovuch. Ha ishqilib omon bo`lsin!*" Ma'lum bo`lib turibdiki, muallif qahramonini alohida mehr bilan

²¹ Quronov D va b. Adabiyotshunoslik lug'ati – T: Akademnaslr, 2010. 149-bet.

ta'riflaydi va bu hisni kitobxonga ham yuqtiradi: *"Agar Zirillama qizlaridan falonchiga falon qishloqning yigiti gap qotipti, deb eshitsu, tamom. Atayin o'shaqqa borib gap qotgan yigitning og'zi-burnini qopqora qon qilib kelardi. Kuchi, g'ayrati taniga sig'maydigan bu yigit ko'cha eshigi oldida o'tirib atayin kuchini ko'rsatib qo'yish uchun eshak qo'shilgan aravaning orqasidan tortib yurgizmay qo'yar, qopdagi bug'doymi, unmi, nima bo'lsa tishi bilan ko'tarib irg'itardi. U qishloqning "ko'ziri" deb nom olgan edi. Shu bolaning ko'ngliga birdan muhabbat otashi tushdi"*²². Ushbu obraz xususiyatlarida muallif takrorlanmaslik jihatiga katta e'tibor qaratadi. Nasrimizda Azizxon obrazidek boshqa biror asar qahramonini topish mushkul. Adibimiz Said Ahmadning o'zi ham bolalik chog'larida juda ham bebosh va sho'x bo'lganligi haqida ayrim manbalarda uchraydi. Ehtimol, Said Ahmadning qahramonlari ham o'ziga tortgandir. (Eslang, "Jimjitlik" romani qahramoni Mirvalining bolalikdagi va umri davomidagi beboshliklari).

Sevgi, muhabbat liniyasi badiiy asarning emotsianalligini ta'min etuvchi asosiy vositalardan biri, qahramonimiz ham muhabbat tufayli o'zgarish sari ilk qadamini tashladi. Muallif sujet tizimiga Azizxonning o'zgarishi uchun sabab bo'ladigan voqealarni mahorat bilan birma-bir terib chiqadiki, kitobxon buni qiyinchiliksiz qabul qiladi. Avvalgi boblarimizda Azizxonning o'zgarish sabablaridan biri sifatida uning mehnatga berilishi va xalq uchun nafi tegadigan odamga aylanishiga uning Katta Farg'ona kanali trassasida pahlavonlardek ish olib borishi sabab ekanligi aytib, ko'rsatib o'tgan edik. Bugun esa Azizxon obrazida "yo'qotish" uning ruhiyatida katta burilishga sabab bo'lishi, tubdan boshqa insonga aylanishiga sabab bo'lganligi haqida so'z yuritiladi. Muallif "yo'qotish" motivini "o'zlikni anglash" uchun vositaga aylantirdi: *"Ichkari jimjit. Azizxon yo'lakdan o'tishi bilan ayvon o'rtasida ustiga oq choyshab yopilgan Lutfinisaning jasadini ko'rdi. O'zini tutolmay ichidan bir olov keldi-yu, tomog'iga qadalib turib qoldi. Birdan bu o't portlagandek tomog'idan yig'i bo'lib otilib chiqib ketdi.*

²² Ahmad S. Ufq. – T: Sano-standart. 2016 – yil. 18-B. Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan ko'chirmalar qavs ichida beriladi

Azizxon alam-sitam bilan Lutfinisa jasadiga o'zini otdi. Kimdir uni tirsagidan olib ko'tarmoqchi bo'lgan edi, Orzixon aya: - Mayli, qo'yib beringlar, ular bamisoli Layli-Majnun edilar. Mayli, yig'lasin, to'yib yig'lasin. Armonlarini to'kib yig'lasin, - dedi"(163-bet). Sabab-oqibat kategoriyasi asosida "Lutfinisaning o'limi" – sabab, oqibat esa "Azizxon ruhiy olamida burilish" tarzida tahlil etiladi: *"Bir odam olamdan ketdi. Ammo hayot o'z oqimidan bir nafas to'xtamasdi. Oftob – o'sha oftob. Kecha qanday bo'lsa, bugun ham o'shanday porlab turipti. Daryo hech narsa sezmagandek qirg'oqqa bosh urib pishqirib oqyapti. Biroq birinchi muhabbatini tuproqqa ko'mgan Azizxon kechagi Azizxon emasdi. Uning nazarida quyosh qog'ozdagi yog' tomchisidek xira, bug'doyi o'rib olingan sap-sariq adirlar tobutga yopilgan malladek suvuq, xunuk edi"*(166-bet). Ijodkor mahorat bilan tashqi olam fonini qahramon ruhiyatiga moslaydi: *"Quyosh qog'ozdagi yog' tomchisidek xira, bug'doyi o'rib olingan sap-sariq adirlar tobutga yopilgan malladek sovuq, xunuk edi"* shu ikki birikma qahramonning ruhiy holatini ochib bera olgan, bu esa kitobxonning ham Azizxonga nisbatan hamdardlik hissini kuchaytiradi, asar voqealari bilan yashashni ta'minlaydi. Ushbu voqea esa qahramonda o'zlikni anglash uchun vositaga aylandi: *"Shu qog'ozlar betiga surati tushirilgan o'n minglab Azizxon butun vodiy tepasida, bulutlardan ham balandda, olmos cho'qqilar, sap-sariq adirlar, sonsiz jilg'alar ustida suzardi. Azizxon entikdi. Hamisha iyagini ikki kaftiga tirab o'tiradigan dardchil onasi, qachon odam bo'lasan, tentagim, deb noliydigan dadasi ko'z oldida paydo bo'ldi. "Ayajonim, dadajonim, mana, odam bo'ldim-ku, endi koyimang!" deb qichqirgisi keldi. Osmoni falakda qog'ozlar uchardi. Bolalar qichqirardi. Butun vodiy og'zida doston bo'lgan Azizxon yo'l chetida yig'idan ko'zlari qizarib, hiqqillab borardi"*(234-bet). Muallif niyati badiiy asarda qahramon taqdirini belgilovchi, uni harakatga keltiruvchi asosiy omildir. Va yana shunisi kitobxonbgga ayonki, ijodkor uchun qahramoni farzandidek mukarram bo'ladi. Chunki u qahramonga ham jon beradi, o'z qalb qo'rini, hissiyotlarini unga bag'shida etadi. Uning jonini olish, o'lim sahnasini tasvirlash esa muallif uchun ham azobli va og'irdir. Muallif ham Lutfinasaning o'limi sahnasini haqiqiy

dard va ichki bir alam bilan tasvirlaydi, yozuvchining badiiy niyati. o'lim fojiasi Azizxonni tubdan o'zgartirib yuboruvchi kuchga aylanadi. Fikrimizcha, adibning maqsadi to'la amalga oshadi, qahramoni Azizxonni mehnat zavqi va muhabbat dardlari orqali kamolga yetkazadi, o'zligini namoyon etadi.

Voha odamlarining samimiyati va boy madaniyatidan so'zlovchi Tug'oy Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi mana qariyb yarim asr o'tibdiki, mashhurlik shohsupasini band qilib kelmoqda. To'g'ri shakllantirilgan badiiy g'oya, obrazlar tizimining takrorlanmasligi hamda o'zgacha ifoda yo'sini o'laroq ushbu asar bu nomga munosib sanalib kelinmoqda. Asar qahramoni bo'lmish Bo'ri polvon obrazida "men"ning namoyishi qay tarzda kechdi, yozuvchi o'z qahramoniga (va shu orqali kitobxonga) qanday hayotni ilindi: "Odamlar, uzoq-yaqindan kelgan hurmatli mehmonlar! Mana, jamoa jam bo'ldi, olishni boshlasak ham bo'la berar. Bugungi davramizda vohamizga dong'i ketgan Bo'ri polvon o'tiribdi. Davraga bakovullik qilishni shu kishiga topshirsak, nima deysizlar? Davra: - Ma'qul, polvon bovaning suyaklari davrada qotgan!"²³. Odatda, badiiy asarda, avvalo, qahramonning portreti chiziladi yo muallif yoki atrofdagilarning u haqdagi fikrlari beriladi, shu orqali qahramon kitobxonga tanishtiriladi. Qissada biz ikkinchi usulni, ya'ni Bo'ri polvon haqida atrofdagilarning fikri bilan tanishamiz. Yana bir holatda esa qahramonning o'z tilidan aytilgan fikrlar orqali o'quvchining unga beradigan bahosi oydinlashadi: "Bo'ri polvon davra aylanib, odatdagidek, barchaga murojat etdi. - Xaloyiq, davrada halol olishib, elga tomosha ko'rsataylik! Haq-nohaqni men ajrim qilaman. Aytganim ayrgan, deganim degan! Davradagi Bo'ri polvon so'zim: tarafkashlik, g'irromlik, oshna-og'aynichilikka yo'l qo'ymayman!"(9-bet) Muallif kitobxonda qahramoni haqida tasavvur hosil qilib bo'lgach, voqealar rivojida retrospeksiya qiladi. U qahramonni shu holatga olib kelgan voqealarni o'tmishdan izlay boshlaydi: "-Nasim oshna, bir gap aytsam birovga aytmaysanmi?"

²³ Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. -T: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1980. 8-b. Keyingi qismlarda ushbu manbdan olingan xulosa va qismlar kafe ichida beriladi.

Oshna, Momoqiz yaxshi, eshityapsanmi, u yaxshi... Nasim sergaklanib, Bo`riga sinovchan tikildi. Bo`ri ko`zlarini pirpiratib, gapida davom etdi: - Nasim oshna, sen Momoqizga ayt, Bo`ri seni tushlarida ko`radi, de. Senga qiyofni do`rjiroq berishida gap bor, de. - O`zing ayta ber. - Men? Bor-e, qaytib aytaman? -O`zing bilasan. -Qo`rqaman-da, Nasim oshna. Sen bilmaysan, necha martalab aytaman dedim, bo`lmadi. Ko`ziga ko`zim tushsa... garang bo`lib qolaman”(25-bet). Qissa kompozitsiyasini shakllantirishda muhabbat liniyasi katta rol o`ynaydi. Bo`ri polvon xotirotlari asosida goh hozirgi davr, goh o`tmish voqealari qalamga olinadi. Sujet tizimidagi o`ziga xoslik kitobxon diqqatini yanada jalb etishga xizmat qiladi: “Chaqirgani minan baribir bormayman, oshnam bo`lsa o`zi aytsin”, ko`nglidan o`tkazdi u. O`tirib-o`tirib qaytib keldi. Chalqancha yotgan Nasimning yoniga cho`kkalab, qo`lini ushladi. -Nasim oshna, u nima dedi-a? Ko`zingni ochib ayt, nima dedi? Yo uyalib indamadimi? Nasim unga o`girildi. -Bo`ri, men gaplaringni oqizmay-tomizmay aytdim. Bo`ri oshnamga sensiz kunduz ham qorong`u, dedim. -Uh, bormisan, oshna! U nima dedi? -U, e, beti qursin, deb qo`l siltadi, jo`ra. Senda ko`ngli yo`q ekan. Ishonmaysanmi? Mana, qiblaga qarab aytaman: agar yolg`on aytsam ko`r bo`layin. Bo`rining dili xufton bo`ldi”(26-bet). Qahramonning taqdiridagi burilish, ruhiyatidagi o`zgarish birgina “dili xufton bo`ldi” birikmasi orqali ochib beriladi. Aldov, do`stning xiyonati qahramon psixikasidagi o`zgarish uchun turtkiga aylanadi: “Bo`ri hangiga xoda urdi. Tahlikaga tushib qolgan Nasim uning izidan yetib kelib, yo`liga ko`ndalang bo`ldi. Bo`ri hansirar edi: - Qoch yo`ldan, qoch! Men Momoqizga yolvorgani ketyapman! -Bo`ri, borma! -Nega hukm qilasan? Nima, Hosilotimisan?! - Bo`ri, meni jo`ram desang bormaysan. -Senga nima?! -Bo`ri, men... seni aldab edim. Bir-biriga tikilib qoldilar. Nasim ko`zlarini olib qochib, so`qmoq chetidagi turna qator qumursqalarga tikilib qoldi...” Voqealar sekin asta asosiy nuqtaga olib boradi. “Momoqiz, aytayinmi nima dedi? Momoqiz minan o`ynagim kelyapti... qo`yniga kiraman, dedi. -Yo pirim, chini minan shunday dedimi? - Aldasam ko`r bo`layin. -Unda, Bo`rining yuziga qaramaganim bo`lsin. betini murdasha`y ko`rsin! -Tag`in, unga aytib yurma, oshna degan

otimiz bor... "(28-bet). Bu dunyoda yor-u do'stning bori yaxshi, ammo xiyonatkor do'stning boshga solgan kulfati, bir umrga qalbdagi bitmas yaraga aylanadi. Yozuvchi bu fikrni Bo'ri polvonning ichki o'y-kechinmalari fonida berib boradi: "Oshna, Momoqizning oldiga bor. Ko'nglingni to'q qil – uning oldida sening yuzing yorug'. Oshna, meni faqat bir nima qiynayapti: keyin ikkalangning yuzingga qanday qarayman? Balki, mendan bir umr yuz o'girib ketarsizlar? Yo'q, oshna, men sendan ayrilib qolgim kelmaydi. Bo'lmasa nima qilayin? Bilmayman, oshna, bilmayman..., Bo'ri polvon Nasimdan shu gaplarni umid qildi..., Kutilmaganda Nasim Momoqizga... odam qo'ydi. Non sindirildi! Buni eshitgan Bo'ri polvon yarasiga tiq tekkan odamdek, ingrab yubordi. Nasim yashashni biladi. U boshqa brigadaga o'tib ketdi. Momoqiz bilan. Olcha gullayotganda to'ylari bo'ldi. Nasim to'yga Bo'rilarning xonadoniniyam aytdi"(41-bet). Hayot materialini mahorat bilan badiiy voqelikka aylantira olish ijodkordan tug'ma iste'dod va ulkan iqtidorni talab etadi. Bu esa Tangri o'zi suygan mingdan bir bandasiga nasib etadigan imkoniyatlardandir. To'g'ay Murod qalamida ana shunday imkoniyati va iqtidori bo'lgan yozuvchi edi. Mutola jarayonida kitobxon qahramon ruhiyatiga oson kirishadi, uning asarlaridagi kompozitsion qurilishning o'ziga xosligi esa mutola zavqini beradi. Masalan, ushbu qissada ham Bo'ri polvon taqdiri va ruhiyatidagi o'zgarishning sababi berilgan holatda, undan kelib chiqadigan natija asarning so'nggi qismigacha to'liq bayon etilmaydiki, bu esa o'quvchi qiziqishini ortib borishi uchun yetarlidir: "Saharmardondan to'riqni minib, o'zimizning qirlarga yo'l olaman. Hayron daradan ot solaman! Bizning g'allazorlar yo'q – endigi Hayron dara boshdan-oyoq paxtazor. Suv tarayotgan suvchilar yo'l bo'lsin, deydi. Men, shunday, to'riqni sovutib yuribman, deyman. Men to'riqniyam, o'zimni sovutib yurganimni suvchilar bilmaydi..., Tomog'imga nimadir tiqiladi. Yutinayin deyman – bo'lmaydi! Bo'ri polvonday odamning yutinishga darmoni yo'q..., Shunda... shunda, olis-olislardan bir qo'shiq eshutiladi. Sergak tortib, qadimni rostlayman. Qo'shiq tobora yaqinlashib kela beradi. Bora-bora qirni tutadi. Qo'shiq qo'ynida qolaman. Ko'nglim tomchilashini qo'ymaydi, men – kulishimni! Oshna, men o'zimizning

qo'shiqni eshitaman, o'zimizning! Uni Momoqiz aytadi, Momoqiz!
Qizlar jo'r bo'ladi! Nasim oshna, men ana shunda Momoqizni
ko'raman..! Bo'ri polvonning ko'ngli to'lib, yonoqlaridan marjon-
marjon yosh oqdi. Qalbi to'ridan nimalardir o'ksib-o'ksib kela berdi.
Lablarini mahkam yumdi. O'ksik zarbidan elkalari silkina berdi"(90-
bet). Qissa so'nggida Bo'ri polvon botinidagi bor dard to'la chizgilarda
beriladi, bu esa kitobxon ongida shakllanib kelayotgan qahramon
haqidagi xulosalarni yanada zalvorliroq qiladi. Qissa boshidan
qahramonning ichki o'zgarishlariga faol munosabatda bo'lib kelayotgan
muallif, qissa oxirida bu faollikdan chekinadi, ya'ni o'quvchini mustaqil
xulosa chiqarish uchun imkon yaratadi: "Sen ko'rmayapsan, oy botib,
yulduzlar birin ketin so'nib borayapti. Oshna, men shu so'ngan
yulduzlarga o'xshab qoldim... Yo'q, oshna, yulduzlar yonadi!
Davralarimiz davom etadi. Ularning adog'i yo'q"(91-bet).Yozuvchi
ushbu qahramonni o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi ko'priikka
aylantiradi. Qissada ishlatilgan eng kichik detallardan tortib, qahramon
qalb tug'yonida ro'y beruvchi kechinmalarda ham vorisiylik hissining
ustivorligi kuzatiladi. Bu esa Bo'ri polvonning oxirgi so'zlaridan yana-
da aniqroq anglashiladi: "Nevaralarim davralarda "Yo bobomning
piri!" deya hayqirib-hayqirib olisha beradi. Yulduzim mangu
yonadi!"(91-bet) Ijodkor o'zi tanlagan hayot materialini tafakkur oqimi
va qalb amri ila qog'ozga ko'chirar ekan, asar muvaffaqiyati uchun
zarur bo'lgan har bir detallni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib chiqadi.
Avvalo, aniq va to'g'ri shakllantirilgan badiiy g'oya va bu g'oyani to'la
ochib berish uchun xizmat qila oladigan badiiy obrazni minglar ichidan
saralab oladi. Bo'ri polvon obrazi ana shunday tanlab olingan va badiiy
g'oya takomili uchun to'la xizmat qila oladigan obraz. Ushbu
qahramonning adib o'zi mansub bo'lgan hayot tarziga yaqin ekanligi va
yana ijodkorning hayot haqiqatini, badiiy haqiqatga mohirona aylantira
olganligi, yuqoridagi fikrlarni tasdig'i sanaladi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti o'zining g'oyaviy tizimi, estetik
ta'sir kuchi, ifoda yo'sini va yana boshqa qator jihatlari bilan o'tmish
davri adabiyotidan tubdan farq qiladi. Ammo inson va uning muhit bilan
munosabatini qalamga olish, ko'ngil dardlari, ruhiy olami kashf etish

badiiy adabiyotning bosh maqsadlaridan bo'lib qolaveradi. Mana shunday zamon va inson munosabati, taqdir yo'llaridagi chalkashliklar haqida hikoya qiluvchi asarlardan biri Abdulla Ayizovning "Polvon yig'lagan tun" qissasidir. Qissa ekspozitsiyada kitobxon voqealar sodir bo'ladigan joy va qahramonlar haqida ba'tafsil ma'lumot oladi. Shundan so'ng esa, o'quvchi nigohi asar tuguniga qaratiladi: *"Qariya gap orasida negadir Sardor polvonga bir necha bor tasmollab tikildi. – Sardor polvonman, deng. Jarlik ekanligingizni eshitgandim. Ammo kimning uli ekanligingizni bilmasdim... Sardor endi og'iz juftlagan edi, otaxon gapni uladi. – Odanni bir ko'rishda bilamiz. Siz, Jardagi obro'li kishilarning avlodidansiz, to'g'rimi? Rahmatli otangizni bir-ikki marta ko'rganman. Ham o'qib, ham banisada ishlardi chog'i... Eh-he... -Meni boshqasi bilan adashtiryapsiz chog'i, buva, -dedi polvon qimtinibgina. – Ol-a, adashtirib, o'ldimmi, bir aniqlik bilmasam tilimga kalima kelmaydi. Sinab ko'rmoqchisizlar, shekilli. Xohlang-xohlamang, siz, Sardorjon, - otaxon polvonga tikildi, - Jabbor do'xtirning uli bo'lasiz. Ah-ha topdimmi? Qani, polvon, qo'lni tashlang. Sumbatingiz, boringki, qosh-ko'z'laringiz quyib-qo'ygandek otangizning o'zi... polvon qulog'igacha qizarib ketdi. Qariyaning polvonga uzatgan qo'li havoda muallaq qoldi"*²⁴. Tugunining qissa boshlanishidayoq berilishi kitobxonning jalb etadi, qiziqishini orttiradi, ayni shu nuqtada roviy o'quvchi uchun savolli vaziyatni yuzaga keltiradi. Va bu qahramonning ruhiy holatidagi o'zgarish bilan yanada qabartirib boriladi: *"Sardor polvon chuqur "uf" tortib osmonga boqdi. Samoda jimirlayotgan yulduzlar ko'zlariga tig' yanglig' qadaldardi. Polvonning ra'yiga qaragan hamrohlar ham allanechuk sukut saqlab odimlashar, xuddi shu hol ham Sardorning shubhalarini battar oshirar edi"*(3-bet). Tugunning ko'lamini kengayib borgani sari, voqealar shiddati ham oshib boradi va kulminatsiyaga yetib keladi: *"Nihoyat, Sardor polvon bir shaxd bilan raqibining belbog'idan tutdi. Oyog'ini Hoshimning butidan oshirib. uning boldiriga mahkam ildirdi. Ko'kragi bilan orqaga sura ketdi. Hoshim polvonning oyog'i toya boshladi. Gurs! Hoshim polvon*

²⁴ Айизов А. Полвон йиглаган тун. // Ёшлик. 4-сон. 2011. 2-Б. Кейинги ўринларда ушбу маънадан олинган кўчирмалар кавс ичнда берилган.

chuyqonlik bilan yonboshga ag'darildi. –Hisob emas, chappa! Hoshim polvon tura solib, raqibining yoqasiga yopishdi. Bakovul uning qo'lini Sardor polvonning yoqasidan ajratar ekan: –Yaxshimas, Hoshim polvon, buni kurash deydinglar, mard bo'lish kerak. Hozir tag'in bel olishasizlar. Chappa dedik-ku, axir, biroz dam olinglar, –dedi. Ko'zlari kosasidadan chiqqudek turgan Hoshim polvon orqaga burilar ekan: –Sardor, o'zi kimning bolasi ekanligingni bilasanmi? – dedi-yu gavdasini ikki yonga sallona tashlab chelaklik polvonlar tomon ketdi. –Nima deding?! – Sardor polvonning gapi og'zida qoldi”(5-bet).Asarning tugunidan kulminatsiyasigacha bo'lgan voqealarda muallif qahramondagi ruhiy o'zgarishlarni ko'rsatib berishga harakat qiladi. O'quvchining nigohi bevosita qahramonning ong tizimiga qadaladi. Ruhiy holat to'liqini asta-sekin qahramon ma'naviy dunyosi uchun yo'l ocha boshlaydi: “Hoshim polvon noiloj davraga tushdi. Raqibiga ro'baro' keldi. Sardor polvon bir hamla bilan raqibining yoqasidan tutib o'ziga tortdi. Ko'zlar to'qnashdi. –Nima deding? –Sardor polvonning panjalari Hoshimning badanini teshgudek botib borardi. –Bilib qo'y. senga o'xshab davrani harom qilganim yo'q! Jomakorimni, belbog'imni, bosib yurgan tuprog'imni harom qilganim yo'q...Yo pirim!!! Sardor polvonning o'kirigidan davra bir qalqib tushdi. –Halol, halol!”(5-bet).Polvon ma'naviyati tushunchasi tahlilimizdagi har bir asarda ko'tarilayotgan bosh masalalardan biri. E'tiborlisi shundaki, bosh qahramon qiyofasini ochishda asarda, albatta, yana bir qahramonga ehtiyoj seziladi. Misol uchun, Sardor polvon qiyofasini ochishda Hoshimning tuban fe'li muallifga qo'l kelgan. Dualizm qonunidan muallif o'rinli foydalana olgan. Keyingi o'rinlarda muallif sujet tizimida retrospeksiya qiladi, kulminatsiya nuqtasiga sabab bo'lgan voqea hikoya qilib beriladi, bu o'rinda kitobxon ham, muallif ham kuzatuvchiga aylanadi.

Nasl-nasab tushunchasi turkiy xalqlarda qadim zamonlardan juda muhim sanaladi. Naslning butunligi er kishi uchun ham or, ham nomusdek aziz. Adibimiz ham bu masalani qissada bosh mavzuga olib chiqadi. Xo'sh, muallifning qissaga aynan shu mavzuni tanlab olishida qanday maqsad ko'ndalang? Nima uchun ushbu obraz talqinida or-nomus masalasiga katta o'rin berilmoqda? Fikrimizcha, bu polvonlar

shaxsiyatida zohir bo'lgan or va nomus softligi hamda bugunning ehtiyojidan kelib chiqqadi. Jamiyatda or-nomusga ehtiyojning sezilishi (ya'ni bu tushunchalarning yo'qolib borishi) muallifni bu masalaga to'xtalishiga sabab bo'lgan. Va endi ijodkor o'zini qiynagan muammoni polvon obrazi talqinida yaratishi uning uchun bir-muncha qulaylik tug'diradi, sababi esa yuqoridagidek, o'zbek polvonlarining shaxsiyatida zohir bo'lgan or-nomusning balandligiga bog'liq. Ushbu qissada ham Sardor polvonning oriyatiga bo'lgan tajovuz tufayli, ya'ni betayinlikda haqorat qilinishi uning hayoti va ruhiyatida kuchli o'zgarishga sabab bo'ldi: *"Sardor, Jabbor do'xtirning zur...riyodisan. Adashma... ota-onangning nikohini o'zim o'qiganman. Bemorning ko'zlari shifiga qadaldi. Mendan rozi bo'linglar! Xonada piq-piq yig'i ovozi eshitila boshladi. Kimdir Sardor polvonning yelkusidan mahkam quchdi. Qarasa, Hoshim. U Sardor polvonning ko'ziga tik qaray olmasa-da, labi-labiga tegmay bidirlardi: -Meni... meni kechi-iring. Ahmoq ekanman. Kecha jahl ustida... men noshud, bobojonim o'qigan nikohga loy chaplabman-a! Sardor polvon Hoshimni o'zidan nari siltadi va eshikka yuzlandi. O'pkasi to'lib ketdi. Shu lahzada ilk daf'a ota-onasini - Jabbor do'xtir bilan onasini qo'msadi. Ularni juda-juda sog'inib ketdi..."* (21-bet). Qissadagi problematika, ya'ni Sardor polvonning betayin bo'lib chiqishi, uning boshqa bir polvondan haqorat eshinishi, Jabbor va Gulasal hikoyasi va Jabbor va Gulasalga Mulla bobo tomonidan o'qilgan nikoh, Sardor polvonning ota-onasi haqidagi haqiqatdan xabar topishi sahnalari barchasi bir-biriga uzviy bog'liq va bu voqealar markazida turgan qahramonning ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarga ham keng o'rin beriladi. Ammo oxirgi holatda esa qahramon psixikasi *"o'pkasi to'lib ketdi"*, *"juda-juda sog'inib ketdi..."* birikmalari orqali yoritilib, bu birikmalar yechim vazifasini o'taydi. Qissa boshidan asosiy qahramon planida kelayotgan Sardor polvon obrazi, qissa so'ngida kuzatuvchi mavqeiga o'tib qoladi. Qissa kompozitsiyasi uch qismdan tarkib topadi: Sardor polvonning otasi haqida haqiqatni bilginicha bo'lgan davr, Jabbor do'xtir va Gulasal qissasi, Sardor polvonning o'zligini anglagan davr. Bu qismlarning har birida qahramonning ruhiyatidagi o'zgarishlarni kitobxon yaqqol

kuzatish imkoniga ega bo'ldi, ammo qahramonning ruhiy o'zgarishiga keng o'rin berilmaydi. yuqorida ta'kidlaganimizdek xulosa va u olib keladigan estetik zavq o'quvchi zimmasiga qoldiriladi. Kitobxon odatdagi holat bo'yicha muallif izohini kutadi, ammo kitobxonga yuklanayotgan bu vazifa, qissaning noodatiyligini ta'min etadi.

Bugungi o'zbek nasrida o'zining qissalari bilan katta shuhrat qozonib kelayotgan yozuvchilardan biri bu Luqmon Bo'rixondir. Uning qissalari serqirra qahramonlarga, ishonarli hayotiy ziddiyatlarga boy hamda kompozitsion o'ziga xoslikka ega. "Quyosh hali botmagan" qissasi ham shular jumlasidan. Norsoat va Davron ismli polvon yigitlar taqdiriga bag'ishlangan ushbu qissada o'quvchi ma'naviyatini oshirishga xizmat qiluvchi ko'plab hayotiy voqealar keltiriladi. Muhabbatda barqaror bo'lish, vatanga, ota-onaga munosabatda sofdillik va hurmat, do'stlikka sadoqat to'g'risida hikoya qilinadi. Qissadagi elegiyaviylik do'stlik mavzusida kechadi: *"Kechga yaqin ikki milisioner bizni mahkamaga olib ketdi. Bir-ikki soat u eshikdan bu eshikka sudrakashgach, Davronni olib qolib, meni qo'yib yuborishdi. Tun yarmida ijara uyimni arang topib oldim. Ertasi kuni birinchi imtihonga kirishim kerak edi! Ammo men sahar turib universitetga emas, yana mahkamaga yugurdim..., Men kuldim. –Esingda yo`qmi, tentak. Ikkovimizning tomirimiz bir-ku, sen bu yerda bo'lsang, men qanday qilib imtihonga horaman? Davron bir zum menga mamnun-minnatdor tikilib pichirladi: -Chin do'stimsan... ketar chog'im Davronga qarab, o'ng qo'limni baland ko'tardim. U ham shunday qildi. So'ng past, lekin shavqli-zavqli bir ovozda bab-baravar tak'orladik. –Quyosh hali botmagan!"*²⁵. Badiiy asarda muallifning bosh qahramonga bo'lgan munosabati uning psixologizmidan anglashilib turadi. Ushbu qissada esa adib har ikki qahramoniga teng nazar bilan yondashdiki, bu omil ayni vaqtda o'quvchining ham biror qahramon haqida salbiy fikr yuzaga kelishi uchun imkon tug'dirmaydi. Norsoat obrazining ruhiyatidagi o'zgarishlar qissa boshidan oxiri qadar ichki monolog tarzida berib

²⁵ Бўрихон Л. Қўёш ҳали ботмаган. //Ёшлик . 2015. 1-сон. 31 -Б. Кейинги ўринларда ушбу маънадан олинган кўчирмалар кавс ичида берилган.

boriladi, asarning katta qismi ayni shu obrazning ichki savol-javoblaridan tashkil topadi. Norsoat obrazida muallif o'z idealini jonlantirishga urinadi, do'stlik va muhabbatda vafodor, ahdigga sodiq yigit. Ammo taqdir uning oldiga do'stlik yoki muhabbatdan birini tanlash yo'lini qo'yadi: *"Soat, Tanzilani sevishingga men hali ishonib qolganim yo'q. Sen, shunchaki, qizni mendan qizg'anayapsan, mendan, jonajon do'stingdan! Sen... sen yo'linga to'g'anoq bo'lyapsan. Men buni do'stlikka xiyonat deb hisoblayman. –Davron, gaplarim chin, men uni qattiq sevaman, bolalikdan beri sevaman, aytganlarimga ishon, har kuni, har daqiqa shu qizni o'ylayman"*. Qissada xarakterlararo qo'yilgan konflikt sujet rivojini ta'min etuvchi kuchga aylanadi, kulminatsiya sari yo'l ochiladi: *"Konibodomlik do'stim o'rgatgan usulni qo'llayman. Samboda qat'iy taqiqlangan deb ogohlatirgandi, shekilli...-deb o'yladim raqibning baquvvat qo'llaridan ko'z uzmay, -boshqa ilojim yo'q, yo, Xudoyim, o'zing kechir, Tanzilani birovlarga berib qo'yolmayman"*(18-bet).Norsoat muhabbati uchun g'irromlik yo'lga o'tdi, do'stiga xiyonat qildi, buning natijasida u o'zligidan, bir umrlik do'stidan ayrildi. Keyingi voqealar qahramonning ichki ziddiyatlari asosiga quriladi: *"Ana, izlaganim, ana! "Kengasoy burgultari"ning muqaddas makoni hisoblanmish tutzor yonidan o'tayotgan chog'im men uni ko'rdim! Yovqur, mag'rur qiyofasi ko'z oldimda jonlanib, o'ktam ovozi, zavqli kulgulari quloqlarim ostida jaranglab entikib qoldim. Ammo u menga qaramadi. Jazava bilan silkinib yo'l bo'ylab keta boshladi. Men emrana-emrana ergashdim. Davron, kechir meni, do'stim! Ketma, qishloqqa qayt, jo'ra! Seni juda sog'indim. Xuddi yarmim yo'qday yuribman. Axir tomirimiz tutash deganding-ku, meni qanday tashlab ketasan. Senga aytar gaplarim ko'p, do'stim"*(22-bet). Do'stidan ayrilish Norsoatning hayotida kelajak orzularini so'ndirdi, u muhabbatiga erishdi, ammo bu bilan baxt-saodat topa olmadi. Sababi esa undagi vijdon hissining ustivorligi edi. Muallif qahramon hayotidagi tub burilishlar olib kelgan ruhiy o'zgarishlarni mahorat bilan ko'rsatib beradi. Qissa boshidan bosh qahramon ruhiyatidagi iztiroblar, asar so'nggida har ikki qahramon uchun taalluqli dardga aylanadi: *"Biz yuzma-yuz turib qoldik. –Qanchadan-qancha maydonga tushdim, ne bir*

polvonlarni yiqitdim, -dedi Davron chuqur tin olib, -lekin doim o'zinni mag'lubday his qildim, hech ko'nglim ko'tarilmadi. -Nega, axir... Chunki Tanzila urgan shapalog'ning achchig'i, ko'zlaridagi nafrat meni doim quvib yurdi. -Iltimos, bizni kechir, Davron, - dedim ochiq-oshkora ko'z yoshlarga qarishib. Do'stim og'ir-og'ir bosh chayqab, uzun uff tortib yubordi. -Dunyo kezib, ikki haqiqatni angladim. Norsoat, eng birinchisi chin polvonning joyi panada ekan, shuni bildim. Ikkinchisi... har polvonning o'z sibizg'asi bo'lsin ekan... "(31-bet). Muallif personaj ruhiyatini ochib berishning psixologik asosini ko'p hollarda ichki monolog va o'y-kechinmalar orqali ko'rsatib beradi. Adib inson hayotining asosini chin qadriyatlar tashkil etishini ochib berishga intiladi. Davr ijtimoiy holatining shaxs ruhiyatiga ta'sirini, inson o'zini anglab yetishida tashqi omillarning o'rnini ko'rsatishga intiladi. Haqiqiy polvon bo'lishning shartlari, or-nomus tushunchasining ahamiyati haqida qalam tebratadi. Eng muhimi esa, muhabbat va do'stlik tuyg'ulari inson baxt-saodatining asosi ekanligini obrazlar vositasida to'laqonli tasvirlab beradi.

Obrazlar vositasida fikrlash badiiylikning asosiy sharti. Ijodkor hayot oqimida o'zi anglagan haqiqatni badiiyLashtirar ekan, avvalo, buning uchun ana o'sha badiiylikka mos obrazlar tizimini yaratadi. Bugun nasrimizda polvon obrazi ham ana shunday obrazlar tizimiga aylanib ulgurdi. Xo'sh, polvon obrazini yaratishda boshqa obrazlar tizimidan farqli qanday xususiyatlar namoyon bo'ladi, yuqorida biz ko'rib chiqqan asarlarda ushbu obrazga xos jihatlar nimalarda ko'rinadi? Avvalo, polvon obraziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyat bu elegiyaviylikdir. Ya'ni polvon taqdiridagi yo'qotish va bu yo'qotishdan keladigan iztirob, polvonda o'zlikni anglash uchun vositaga aylanadi. Masalan, "Qirq besh kun" romanida bebosh Azizxon sevgilisi Lutfinisadan judolik tufayli hayoti va ruhiyatida tub burilish yasaldi. Millat, ota-ona, yaqinlar, or, nomus tushunchalari haqida o'ylay boshladi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi qahramoni Bo'ri polvon esa xiyonat tufayli ham do'sti, ham muhabbatidan ayrildi, bu yo'qotish esa, uning hayotida bitmas yaraga aylandi. Yillar davomida uning ichida boshqa bir inson yashab keldi, qissa so'nggidagi qalb iqrorlari uning

botinini namoyon etadi. Yoki bo'lmasa, "Polvon yig'lagan tun" qissasida Sardor polvonning kamsitilishi va bundan kelgan iztiroblar oxir-oqibat o'ziligini anglashga sabab bo'ldi. "Quyosh hali botmagan" qissasida Norsoat va Davron polvonlar bir-birlariga juda qadrli bo'lgan bir paytda yo'llari ayro tushdi, uzoq yillik ayriliq ularning ruhiy dunyosida ham, hayotida ham burilish yasadi va nihoyat ular haqiqiy polvonlik sirini anglab yetdilar. Demak, polvon obrazini yaratishda "yo'qotish" motivi ularning hayotida "o'zlikni anglash" uchun vosita sanalmoqda. Ikkinchi tomondan esa, milliylikni ifodalash uchun polvon obrazi ideal obrazdir. Chunki o'zbek polvonlari shaxsiyatidagi ezgu fazilatlar bunga asos bo'ladi. Yana bir tomoni polvon obrazi yaratishda ijodkorlar ulardagi ustivor or-nomus tushunchasiga katta e'tibor qaratilar va bu obraz yaratishdagi bosh xususiyatga aylanadi. Uchinchidan esa, polvon obrazini mukammalroq yaratishga xizmat qiluvchi maxsus detallar borki, ularni aslo nazardan qochirish mumkin emas. Misol uchun, ko'z yosh, tush, yulduz, quyosh detallari. E'tibor berilsa, tahlilimizdagi har bir asarning so'nggi sahnasida polvonlar ko'z yosh to'kadilar. Bu bir qarashda kitobxon uchun nomunosib holatdek tuyiladi, negaki, asar boshidan bilagi kuchga to'la pahlavon bo'lib kelayotgan qahramonining ko'z yosh to'kishi sira kutilmagan holatdek, ammo ijodkorlar bundan polvon obrazining ichki dunyosini, ruhiy barkamolligini ko'rsatib berish uchun unumli foydalanganlar. Keling, shu sahnalarni qaytadan kuzataylik: "*Butun vodiy og'zida doston bo'lgan Azizxon yo'l chetida yig'idan ko'zlari qizarib, hiqillab borardi*" ("Qirq besh kun" romani, Azizxon obrazi). "*Bo'ri polvonning ko'ngli to'lib, yonoqlaridan marjon-marjon yosh oqdi. Qalbi to'ridan nimalardir o'ksib-o'ksib kela berdi. Lablarini mahkam yumdi. O'ksik zarbidan yelkaları silkina berdi*". ("Yulduzlar mangu yonadi" qissasi, Bo'ri polvon obrazi). "*Sardor polvon Hoshimni o'zidan nari siltadi va eshikka yuzlandi. O'pkasi to'lib ketdi*". ("Polvon yig'lagan tun" qissasi, Sardor polvon obrazi). "*-Itimos, bizni kechir, Davron, - dedim ochiq-oshkora ko'z yoshlarga qarishib*". ("Quyosh hali botmagan" qissasi, Norsoat obrazi). Kuch va shijoatga to'la polvonlarni badiiylashtirishda ijodkor ko'z detallidan unumli

foydalanmoqda. buning sababi nimada? Fikrimizcha, ko'z yoshi bu – polvon obrazining mehr-muhabbatga. hayot haqiqatiga to'la uyg'oq qalbining timsoli. Ko'z yoshining bunday funksiyasi psixologik tomondan ham isbotlangan.

O'zbek nasrida polvon obrazini yaratish o'zining tarixiga ega bo'lib, salkam yarim asrdan buyon polvonlar haqida katta-kichik asarlar yaratilmoqda hamda bu asarlar adabiyot dunyosida o'ziga yarasha mashhurlikka ham erishdi. Zabardast adiblarimizdan tortib, yosh ijodkorlar ijodida ham ushbu obrazning turli qiyofalarini uchratishimiz ushbu obrazning nasrimizda o'z o'rniga ega ekanligini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib chiqqan asarlarimizda o'zbek polvonlarining o'ziga xos hayot yo'li, ibratomuz turmush tarzi va bag'rikeng qalbi haqida hikoya qilinadi. Otashin qalb egalari haqida samimiyat bilan yozilgan ushbu asarlar yillar davomida o'z o'quvchisi qalbini xushnud qilaveradi.

III bob yuzasidan xulosalar

Har bir inson o`zi yashab turgan jamiyatning bir bo`lagidir. Uning kamoli ham va ayni paytda zavoli ham jamiyat uchun ahamiyatli sanaladi. Polvon va ijtimoiy muhit masalasini yoritish esa bevosita “o`zbek polvoni” obrazining individual xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatlar esa quydagilarda namoyon bo`ladi:

- O`zbek polvonlari xalqimiz bag`ridan o`sib chiqqan mard og`lonlar sifatida o`zi mansub bo`lgan jamiyatning muommolariga ko`z yumib ketolmaydilar. Buni, ayniqsa, Azizxonning kanal qurilishidagi jasoratlarida va Bo`ri polvonning xalq birligi haqidagi fikrlarida yaqqol kuzatamiz;

- Polvon va muhit munosabatlarida ijtimoiy dard, asosan, polvonlarning ichki monologi tarzida beriladi. Ular davr bilan keskin ziddiyatlarga bormaydilar, bu holat esa polvon obrazining xarakter xususiyatidagi vazminlik va bag`rikenglik tushunchalaridan o`sib chiqadi;

- Elegiyaviylik polvon obrazini shakllanishida muhim unsurlardan sanalib, polvon o`z shaxsini tanish va tarbiyalashda asosiy vosita vazifasini o`taydi.

Badiiy adabiyotda haqiqiy ijodkorning o'z yo'nalishi va faqatgina o'ziga xos bo'lgan uslubi bo'ladi. bunday ijod turli takroriylikdan, ko'chirmachilikdan holi bo'ladi. Ijodkorni qiynagan dard, o'y va kechinmalar tasvirlash mahorati ila obrazlar silsilasida yorqin pardalarda chiziladiki, bu kitobxonning hissiy sezimlariga o'z ta'sir kuchini o'tkazadi. Yuqorida siz bilan ko'rib chiqqanlarimiz, o'zbek polvonlari hayotiga berilgan chizgilar ham ana shunday ijodkor qalbidagi dardlarning mahsuli desak, xato bo'lmaydi.

So'nggi so'zni aytish doimo o'yga toldiradi, tinglovchisining xotirasida butun umr saqlanib qoladigan gaplarni, fikrlarni izlashga tushadi. Biz ham butun bir ishimiz davomida siz bilan bo'lishgan fikr-mulohazalarimizning umumiy si tarzda quydagi xulosalarni keltirib o'tmoqchimiz:

- O'zbek nasrida polvon obrazining paydo bo'lishi o'tgan asrning 70-yillariga borib taqaladi. Ushbu obrazni o'zbek nasrida ilk bor Said Ahmadning "Qirq besh kun" romanida uchratamiz. So'ngra esa, To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida qalamga olingan bo'lib, unda polvonlarning ichki ma'naviy dunyosi mahorat bilan ochib beriladi. Mustaqillik davri adabiyotida ham bu obrazni bir qancha nasriy asarlarda uchratishimiz mumkin. Ayni paytda shuni ta'kidlashimiz kerakki, polvon obrazini yaratishda ijodkorlar xalq og'zaki ijodi an'analaridan keng foydalanadilar.

- Polvonlar badiiy adabiyot doirasida ko'p hollarda ijobiy qahramon tarzida namoyon bo'ladi. Ularning qalbi mehr-muhabbatga to'la, vijdoni sof hamda ular ma'naviy barkamol inson timsolidirlar. Kitobxon Azizxon timsolida mard, jasur, g'ayrati ichiga sig'magan oqko'ngil o'spirin yigitni ko'rsa, Bo'ri polvon obrazida esa yoshi o'tib, polvonlarga ustozlik qilayotgan, xalqining bir-butunligi hamda farzandlar kamoli haqida qayg'uradigan oqsoqol qiyofasini ko'radi. Tahlilimizdagi boshqa polvon obrazlari ham barkamollikda ulardan aslo qolishmaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'zbek polvonlari mardlik, jasurlik va komillik timsolidir.

- Adabiyot mavjud muhitdan, sharoitdan suv ichadi. Demakki,

ijtimoiylikka yog`rilmagan biror-bir badiiy asarni uchratish mushkul. Mualliflarimiz polvon obrazi timsolida ijtimoiy hayotimizning ich-ichiga kirib boradilarki, hayotimizdagi muammolar, xalq yuragidagi hasratlar bu obraz talqinida ta`sirli qilib yoritib beriladi.

O`quvchini mutolaaga oshno qiladigan, qahramonlarning taqdiri haqida bosh qotirishga undaydigan asosiy omillardan biri bu ijodkorning ishontira olish qobiliyatidir. Bu esa kamdan-kam noyob iste`dod egalariga nasib etadi. Ana shunday iste`dod sohiblaridan biri To`g`ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida o`zbek polvonlarining hayot tarzi hamda ichki dunyosi mahorat bilan ochib beriladiki, kitobxon beixtiyor asardagi voqealarga va qahramonlarning ma`naviy olamiga mahliyo bo`lib qoladi. Asardagi Bo`ri polvon, Normurod polvon, Temir polvon va boshqa qahramonlarni ming yillik polvon bobolarimizning davomchilari deb bermalol aytishimiz mumkin. Nasrimizning yana bir ulkan asarlaridan bo`lmish “Ufq” trilogiyasining birinchi kitobi “Qirq besh kun” romanida ham polvonlarning mashaqqatli, shu bilan birgalikda sharaflil mehnat yo`llari hikoya qilanadi. Yoshgina polvon Azizxonning kuch-qudratiga kanal trassasida mehnat qilayotgan yosh-u qari lol qoladi. Azizxon boshiga tushgan barcha azoblarni, g`amlarni mustahkam qat`iyati bilan yengadi. Hamda jismoniy va ruhiy komillikning timsoliga aylanadi.

Barcha davrlarda insonlarni yaxshi va yomon kabi ikkiga ajratish mavjud bo`lgan. Biz povonlarni bunday sinfga ajratishdan mutlaqo yiroq bo`lsakda, ular orasida ham nafs balosiga duchor bo`lganlari yo`q emas. Zabardast adibimiz Said Ahmadning yana bir mashhur asari “Jimjitlik” romanida Nizom polvon, Nasim polvon va Rajab polvon obrazlari orqali ana shunday nafsi hakalak otgan polvon obrazlarini ham uchratamiz.

Mustaqillik yillarida o`zbek polvonlari hayotiga bag`ishlangan asarlardan biri Abdulla Ayizovning “Polvon yig`lagan tun” qissasidir. Asarda nafaqat polvon shaxsi balki, o`zbek yigiti uchun nasl-nasabning naqadar ahamiyatli ekanligi hamda inson hayotida ota va onaning o`rni beqiyos o`rin egallashi haqida hikoya qilinadi. Qissaning uslubiy o`zgachaligi va mavzuviy yangiligi kitobxon e`tiborini o`ziga tortadi.

Muhabbat insonni komillikka yetkazuvchi asosiy tuyg`u. Unga oshno bo`lmagan va bu dardga chalinmagan inson qalbi kamdan-kam

topiladi. Polvonlarimiz ham muhabbat tuyg'usining chinakam shaydolari. Tahlilimizdagi ijod namunalarida sevgi, muhabbat hissiga polvon shaxsini kamol toptiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. "Quyosh hali botmagan" qissasi qahramoni Norsoatning ham ma'naviy yetuk, qalb amriga bo'sunuvchi inson bo'lib yetishishida bu tuyg'u asosiy omil bo'lib xizmat qildi. U o'z sevgisi uchun mardonavor kurash olib bordi va haqiqiy baxtga erishdi.

Insonning oriyati butunligidan, vijdoni softligidan dalolat beruvchi narsa bu uning oqibatidir. Oqibatli kishilar hech qayerda xor bo'lmaydilar. O'zgalarga ko'rsatgan oqibati uchun doimo hurmatga va ehtiroimga sazovar bo'ladilar. Bugungi kunda o'ziga xos yo'nalishda ijod qilayotgan yosh qalamkashlardan biri bo'lmish Nurilla Choriyevning "Bo'ron tingan kecha" hikoyasida Shaymardon polvon o'zining oqibati, qarindosh-urug'larga sadoqati bilan katta-kichikka birdek o'rnak bo'ladi. O'zi ham yaqinlarining ehtiromiga va muhabbatiga musharraf bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o'zbek nasrida polvon obrazi o'zining mustahkam o'rniga ega. Adabiyotimizning zabardast vakillari o'z asarlarida ushbu obrazga, ularning boy ma'naviy dunyosiga qayta-qayta murojat etmoqdalar. Sababi shundaki, polvonlar nafaqat o'zbek xalqi, balki butun sharq elatlari uchun ham kuch-qudrat va shunga munosib ravishda ma'naviy barkamollik timsoliga aylanganlar. Ijodkor uchun ham aytmoqchi bo'lgan gaplari va o'quvchini ruhiy dunyosini tarbiyalashga qaratilgan fikrlarini polvon obrazi orqali yetkazish qulaylik yaratadi, chunki ma'naviy barkamollik o'z vaqtida jismoniy sog'lomlikni ham talab etadi. Polvonlarda esa bu ikki omilning chambarchas bog'liqligiga guvoh bo'lamiz. Ha, o'zbek polvonlari ana shunday ham jismonan, ham ma'nan sog'lomlik timsollaridir. Badiiy adabiyotimizda ana shunday barkamol polvonlarning ko'plab protatipini uchratishimiz mumkin. Agar o'zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari umrboqiy yasharkan, kurash, polvonlik an'analari bardavom idiz otarkan, bir polvon ikkinchi polvonni yelkasidan oshirib ko'kka otar ekan, adabiyotimizda ham polvon obrazining umri uzoq, davomlidir. U doimo yashashda va rivojlanishda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. MirziyoyevSh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O`zbekiston”, 2017.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. – T.: “O`zbekiston”, 2018.
3. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Abdulla Ayizov. Polvon yig'lagan tun. “Yoshlik” jurnali, 2011-yil, 4-son.
5. Alpomish. – T.: O`qituvchi, 1987.
6. Balogardon. – T.: Fan, 1964.
7. Go`rog`lining tug`ilishi. – T.: Yozuvchi, 1996.
8. Imomov K. O`zbek xalq prozasi. – T.: Fan., 1981.
9. Karimov H. Yangi davr o`zbek adabiyoti. – Andijon., 2008.
10. Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. – T.: O`qituvchi, 1999.
11. Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U.XX asr o`zbek adabiyoti tarixi.Oliy o`quv yurtlarining bakalavrlk bosqichi uchun darslik.-T.:O`qituvchi,1999.
12. Luqmon Bo`rixon. Quyosh hali botmagan. “Yoshlik” jurnali, 2015-yil, 1-2 son.
13. Mirzayev T, Safarov O, O`rayeva D. O`zbek xalq og`zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi., 2008.
14. Mirzayeva S. O`zbek realistik adabiyotida folklor an`analari. – T.: “Istiqlol”., 2005.
15. Mirzayeva S. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. – Andijon., 2010.

16. Mirzayeva S. O`zbek xalq romanik dostonlar poetikasi xususida. – Andijon., 2000.
17. Normatov U. Eng muhim muommo. // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati”, 2003.
18. Normatov U. O`ziga xoslik sirlari.,”Nasrimiz an`analari”-T,1980.
19. Normatov U. O`ziga xoslik sirlari.,”Nasrimiz an`analari”-T,1980.
20. Nurilla Chori. Bo`ron tingan kecha. – T.: Adib, 2014.
21. O.Safarov. O`zbek xalq og`zaki ijodi. –T.: Musiqa., 2010.
22. Pardaeva Z. Romanning taraqqiyot tamoyillari. // “Yoshlik”, 2002, 5-6 son.
23. Qo`shjanov M. Ijod mas`uliyati. – T.: Fan, 1981.
24. Quronov D. Badiiyat sirlari//Tafakkur.-1998.- №1.
25. Quronov D. Istiqlol dardi.— T.,2000.
26. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // “O`zbek tili va adabiyoti”, 2001, 6-son.
27. Rahmonov B. O`zbek adabiy tanqidchiligi. – T.: Istiqlol nuri, 2015.
28. S. Sodiq. Hozirgi o`zbek adabiyoti.-T,1992.
29. Said Ahmad. Jimjitlik. – T.: O`zbekiston, 2008.
30. Said Ahmad. Ufq. – T.: Sano-standart, 2016.
31. Sarimsoqov B. O`zbek folklorining janrlar sostavi//O`zbek folklori ocherklari. 2 jild. – T., 1982.
32. Solijonov Y. Roman kashfiyotlar manbaidir. // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati”, 2003.
33. Tog`ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – T.: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1980.

34. Yo'ldoshev B. Adabiy tanqidchilikda tarixiy-biografik yondashuv tamoyili// O'zbektili va adabiyoti.-2000.- №3.-B.16-18.
35. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.
36. Abdurauf Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1995. Andijon, 1981.
37. Boboev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T., O'zbekiston. 2002.
38. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.
39. J.Eshonqul. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi.: Nasaf,1999.
40. Jalilov B. Badiiy asar kompozitsiyasi va uning mohiyati.
41. Zarif Hodi. O'zbek sovet folkloristikasi tarixidan //O'zbek sovet folklori masalalari. – T., 1970.
42. Imomov K. Afsona //O'zbek folklori ocherklari 2-qism. – T: Fan, 1989.
43. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T: O'qituvchi, 1990.
44. Yo'ldoshQozoqboy. Yoniqso'z. – T.: Yangiasravlodi, 2006.
45. Quronov D, Z. Mamajonov, M. SHeralieva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
46. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon.: Hayot, 2002.
47. Quronov D. Adabiy o'ylar. – T.: Turon zamin ziyo, 2016.
48. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T.: Akademnashr, 2013.
49. Quronov D. Talqin imkonlari. – T.: Turon zamin ziyo, 2015.
50. Qo'shjonov M. Hayot va qahramon.-Toshkent., “Adabiyot va san'at”, 1979 yil.
51. Normatov U. Ijodkorning haroratli so'zi. – T.: Turon zamin ziyo, 2015.

52. Normatov U. Talant tarbiyasi. T, O'qituvchi, 1980.
53. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. – T.: SHarq, 2007.
54. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
55. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent., 2004.
56. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1995.

Internet saytlari:

www.referat.uz

www.uzstudent.uz

www.uz.report.com

www.zivonet.uz.

| | |
|-------------|---|
| Kirish..... | 3 |
|-------------|---|

I BOB. O'ZBEK NASRIDA POLVON OBRAZINING KELIB CHIQUISHI VA UNDA FOLKLORNING O'RNI

| | |
|--|----|
| 1.1. O'zbek nasrida polvon obrazining kelib chiqishi xususida..... | 5 |
| 1.2. Polvon obrazini yaratishda folklor an'analari..... | 22 |
| I bob yuzasidan xulosalar..... | 29 |

II BOB. POLVON OBRAZI TALQINIDA MA'NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLAR NAMOYISHI

| | |
|--|----|
| 2.1. Polvonlarning ma'naviy-axloqiy prinsiplari..... | 30 |
| 2.2. Ma'naviy qadriyatlarning polvon obrazi xarakter xususiyatlarini ochib berishdagi o'rni xususida..... | 50 |
| II bob yuzasidan xulosalar..... | 63 |

III BOB. POLVON OBRAZIDA DAVR QIYOFASINING BADIY TALQINI

| | |
|--|----|
| 3.1. Polvon obrazi talqinida ijtimoiy muhit muammolarining aks ettirilishi..... | 64 |
| 3.2. Polvon va muhit munosabatini yoritishda elegiyaviylikning o'rni..... | 76 |
| III bob yuzasidan xulosalar..... | 91 |
| Umumiy xulosa..... | 92 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | 95 |

Mahbuba Ismonaliyeva

O'ZBEK NASRIDA POLVON OBRAZI

Monografiya

Muharrir: Gulchehra ZOKIROVA
Texnik muharrir: Abdulaziz TOSHPO'LATOV
Musahhib: Dilobar TO'RABOYEVA

Terishga berildi 05.08.2021-yil.
Bosishga ruhsat etildi 24.08.2021-yil.
Bichimi 60x42 1/16, Hajmi 6 bosma taboq.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“ARJUMAND МЕДИА” Nashriyoti
Namangan shahar, A. Navoiy ko'cha 36-uy.
Nashriyot tasdiqnoma raqami AI - 007
2018-yil 20-iyulda berilgan

Murojaat uchun telefon: +99891 362-93-00

“Toshbuloq oqshomi” MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Manzil: *Namangan shahri, I.Karimov ko'chasi, 10- uy.*

ISBN 978-9943-6981-8-5



9 789943 698185